

Nurmaxmamatov Lutfulla
Abduhomid o'g'li

"TEXNOLOGIYA O'QITISH METODIKASI" FANIDAN O'QUV QO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHARISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"BOSHLANG'ICH TA'LIM" KAFEDRASI

**NURMAXMAMATOV
LUTFULLA ABDUHOMID O'G'LI.**

TEXNOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

O'QUV QO'LLANMA



**TOSHKENT
"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU-2025**

UO'K 371.3(075.8)

KBK 74.48.73

N

Nurmaxmamatov L.A. *Texnologiya o'qitish metodikasi* /: [O'quv o'llanma] / –
T.: “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU, 2025. – 199 b..

Mas'ul muharrir:

Shodiyev R. D.- Qarshi DU Boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sh.Hamroyev - Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang'ich ta'lim” kafedrası mudiri, p.f.n

S.Yo'ldashev - QarDu Pedagogika fakulteti, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini, PhD

Mazkur o'quv qo'llanma o'quv materiallari, ma'ruza materiallari, laboratoriya mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari, glossariy va ilovalardan tashkil topgan. O'quv qo'llanmaning o'quv materiallari umumiy texnologiya o'qitish metodikasi fani to'g'risida talabalarda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar asosida ilmiy-texnika taraqqiyoti va kreativ texnologiyalar rivoji bilan bog'liq mavzular bo'yicha nazorat savollari hamda mavzuga oid atama va terminlar bilan shakllantirilgan.

O'quv qo'llanmaning ilova qismida esa fan dasturlari, ishchi fan dasturi, tarqatma materiallar, keyslar to'plami, nazorat savollari va baholash mezonlari kiritilgan.

O'quv qo'llanma 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'llanma “Texnologiya o'qitish metodikasi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

ISBN 978-9910-690-37-2

UO'K 371.3(075.8)

KBK 74.48.73

© “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU. 2025

© Nurmaxmamatov L.A.. 2025

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiq eta oladigan yetuk malakali kadrlarni tayyorlash masalasi turibdi. Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasi eng zarur masalalardan biridir.

Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan texnologiya ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz, karton, sim, yog'och, gaz mol va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xom ashyolar (maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar) bilan ishlash keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika institutlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Texnologiya o'qitish metodikasi" fani bo'yicha mo'ljallangan bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiya yutuqlari asosida, "Milliy dasturi" hamda

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablarini bajarish maqsadida o'quvchilarning tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish umumiy ta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalarini amalga oshirishda,

Davlat ta'lim standartlarini bosqichma bosqich amalga oshirilishida, yo'nalishi Bakalavr: 60110500-Boshlang'ich ta'lim mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanmadir.

O'quv qo'llanma talabalarining texnologiya o'qitish metodikasi fani bo'yicha boshlang'ich ta'lim metodikasi asosida qazany ameliy va



laboratoriya mashg'ulotlarida bajaradigan ishlarning namunalariga yo'llanmani o'z ichiga oladi. Har bir nazariy, va amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan.

O'quv qo'llanma talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanishida foydalanishlari uchun, ularning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun mo'ljallangandir.

1-Modul: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA‘LIMI VA TARBIYASINING VAZIFALARI

1.1 Texnologiya o‘qitish metodikasi fanining maqsadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qo‘l mehnatiga o‘rgatishning asosiy maqsadi, boshlang‘ich mehnat elementlari bosqichlarini, ya‘ni bajariladigan ishlarning oddiy elementlari (qog‘ozlarni buklash, qirqish, yelimlash, geometrik shakllarni yasash, applikasiya ishlari)ni yasash bilan boshlaydilar.

Undan tashqari qo‘l mehnatiga o‘rgatishda „Tikish va bichish“, „Pazandachilik“, „Plastilin bilan ishlash“, „Qog‘oz va karton bilan ishlash“, „Applikatsiya va mozaika ishlari“ turlari bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar.

Maktabdagi texnologiya ta‘limi va tarbiyasi fanining maqsadi

-mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘usini singdirishdan;

-o‘qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko‘nikmalari va mahoratini hosil qilishdan;

-ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang‘ich hunar ta‘limini olishga undashdan iborat.

Texnologiya ta‘limi va tarbiyasining asosiy vazifalari:

- o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash,
- o‘qitish va umum ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish,
- davlat ta‘lim standartlari talabi bo‘yicha tarbiyalash
- o‘quvchilarni kasb-hunar egasi bo‘lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan iborat.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni,

shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

Boshlang‘ich sinflardagi texnologiya ta‘limining asosiy vazifalari quyidagilar:

- mehnatga axloqiy tayyorlash
- ruhiy tayyorlash
- amaliy tayyorlash

Mehnatga axloqiy tayyorlash o‘zaro do‘stona yordamni berishni, ijodiy tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat qilishni o‘rgatishdan iboratdir

O‘quvchilarni mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkibiy qismlari deyiladi.

Mehnatga amaliy tayyorlash texnologiya ta‘limining muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. U o‘zaro bog‘langan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli jarayonlarni to‘g‘ri va aniq amalga oshira bilish, ya‘ni u yoki bu materialga ma‘lum izchillikda ishlov bera olish, yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘rilay olish kabilardan tarkib topadi.

O‘quvchilar mehnati faoliyatining turlari

- 1) maishiy mehnat;
- 2) o‘quv mehnati;
- 3) o‘quv ishlab chiqarish mehnati;
- 4) ijtimoiy-foydali mehnat.

1. Shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega mehnat ob'yektlarini ishlab chiqarish tajribasi:

- mehnat ob'yektlarini tanlash;
- faoliyat maqsadlariga muvofiq materiallar va mehnat vositalarini tanlash;
- asboblardan va jihozlardan foydalanish;
- texnologik jarayonda xavfsiz mehnat usullaridan foydalanish;
- jarayonning borishi va ishingiz natijalarini kuzatish.

2. Shaxsiy va jamoaviy mehnat faoliyatini tashkil etish tajribasi:

- mavjud resurslar va sharoitlarni hisobga olgan holda ishlarni rejalashtirish;
- jamoaviy faoliyat davomida ishni taqsimlash;
- asboblardan va jihozlarni oqilona joylashtirish.

3. Texnologik axborot bilan ishlash tajribasi:

- o'quv adabiyotlaridan kerakli ma'lumotlarni izlash;
- texnologik muammolarni hal qilishda axborotni qo'llash.

4. Moddiy ob'yektlarni yaratish bo'yicha loyiha faoliyatidagi tajriba va xizmatlar:

- faoliyat maqsadini asoslash;
- maqsadga erishish yo'llari va vositalarini belgilash;
- loyihani tayyor mahsulot shaklida amalga oshirish;
- ob'yekt yoki xizmatni yaratish uchun zarur bo'lgan harajatlarni baholash.

5. Kasbiy martaba qurish imkoniyatlarini baholash tajribasi:

- moyillik va qobiliyatlarni o'z-o'zidan tashxislash;
- kasbiy faoliyatning turli sohalarida kuch sinovi;
- kasbiy ta'lim va ish bilan ta'minlash bo'yicha qurilish rejalari.

6. "Texnologiya" ta'lim yo'nalishini o'rganish natijasida talabalar asosiy tushunchalarni o'zlashtirishlari va ularni tavsiflay olishlari kerak:

- texnologiya;
- mehnat madaniyati;
- texnologik madaniyat;
- texnologik jarayon;
- texnologik jarayonlarning ekologik xavfsizligi;
- texnologik operatsiya;
- texnologik jihozlar;
- loyihalash, modellashtirish, qurish-yasash;
- mehnat mahsulotining tannarxi;
- kasb, mutaxassislik;
- kasbiy o'zini o'zi belgilash;
- mehnat bozorini o'rganish.

Texnologiya ta'limning tamoyillari ikkita: didaktik tamoyillar va umumiy pedagogik tamoyillar bo'lib, shaxsning mehnat faoliyatiga to'liq taalluqlidir. Lekin, shu bilan birga, maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish jarayonida bu tamoyillarni qo'llash quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Texnologiya ta'limida ko'rinish alohida ahamiyatga ega, chunki mehnat harakatlarini ko'rsatmasdan to'g'ri ish usullarini o'rgatish mumkin emas. Har bir sinfda o'quv materialining mazmuni, hajmi va metodikasi o'quvchilarning yoshi va darajasiga, ularning jismoniy kuchiga va kognitiv maqsadlariga mos kelishi kerak. Biroq, texnologiya ta'limni sodda yo'l bilan o'rganish o'quvchilarning aqliy faolligiga hissa qo'shmaydi. Har bir mavzuni o'rganish oddiydan murakkabgacha ta'lim tamoyilga muvofiq tuzilishi kerak.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik. O'rganishning amaliy mehnat faoliyati bilan uyg'unligi maktab o'quvchilarining ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishi va ularni to'g'ri qo'llashini ta'minlaydi.

Amaliy faoliyatga tayyorgarlik nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida boshlanadi. Talabalar tomonidan bajariladigan barcha mehnat faoliyati nazariy materialni bilishga asoslanishi kerak. Bilimga tayanmasdan, faqat mexanik taqlid qilish orqali amaliy ko'nikma va qobiliyatlar shakllanmaydi.

Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnatga tayyorgarlikning nazariy va amaliy darajasini oshirish vazifalariga bo'ysundirilishi kerak. Topshiriqlar ijodiy izlanishni o'z ichiga olishi, o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam berishi, ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak.

O'quvchilarning ongli ravishda o'rganishi va faolligi esa o'qishdagi onglilik boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnatga munosabati, o'qituvchining topshiriqlarini o'z vaqtida, aniq va ijodiy bajarishga intilishini anglatadi. Talabalarning faoligi mehnati nazariy materialni o'zlashtirishda va ish topshiriqlarini bajarishda, o'z ishini oqilona tashkil etish va uni amalga oshirish usullari sohasida doimiy ijodiy izlanishga intilishda, o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirishda va ish faoliyatini to'g'ri baholashda namoyon bo'ladi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir o'quvchida zamonovaiy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha ta'lim muassasalarida, keyinroq maktabda yuqori sinflardagi ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar maktablarida, kasb-hunar texnikumlarida o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim.

Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir.

Maktabda muntazam texnologiya ta'limining boshlang'ich bosqichi, boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni qo'ldan keladigan ijtimoiy foydali ishdir. Boshlang'ich maktabdagi texnologiya ta'limining asosiy vazifalari mehnatga ahloqiy va ruhiy tayyorlash, o'quvchilarning boshlang'ich politehnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayyorlashdir. O'quvchilarni mehnatga ahloqiy tayyorlash deganda, ularning bu mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi.

Mehnatga ahloqiy tayyorlash – bolalarga jamoada ishlashni, do'stona o'zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, xatti-harakat normalarini o'rgatishdan iboratdir.

Mehnatga psixologik tayyorlash. Mehnatga psixologik tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun ta'lim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada mehnatga ahloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Mehnatga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur mehnatning psixologik komponentlaridir.

Mehnatga ruxiy tayyorlash – bolalarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Bolalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir.

O'qituvchi texnologiya darslarida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarini izchilligini ko'rsatadi.

Shuning uchun texnologiya ta'limida eshitish, ko'rish, xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda texnologiya darsidan texnologiya darsigacha yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash va xotirada saqlab qolish kerak. Texnologik ta'limni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim.

Bu o'rinda ijobiy natijalar: mehnatidan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mehnatga psixologik va ahloqiy tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash.

Boshlang'ich sinflarda keng ma'nodagi ilmiy asoslar haqida emas, politexnik ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yordam beradi. Biroq, umumta'lim maktablarida fanlarini o'qitish texnologiya darslarini ma'lum darajada politexnik asoslarda, darsdandarsga politexnik bilimlarni qo'shib olib borishga yordam beradi. Politexnik tayyorgarlikka ega bo'lib qo'yilgan mehnat vazifalarini bajarishda asboblardan to'g'ri foydalanishda yordam beradi.

Shuningdek bu tayyorgarlik kerakli ishlab chiqarish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish qanday asboblarni qo'llash va undagi sabablarini anglashga ko'maklashadi. Texnologiya fani bo'yicha dasturning istalgan bo'limini o'tishda o'qituvchi bolalarga ma'lum hajmdagi politexnik bilimlarni beradi. Boshlang'ich politexnik bilim bilan qurollantirish o'quvchilarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o'ziga xosliklari, materialga qo'lda ishlov berilganda qo'llaniladigan asbob-

moslamalarning xususiyatlari ulardan foydalanish qoidalari haqida ma'lumot berishdan iboratdir.

Politexnik bilimlar asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'quvchilarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga o'rgatishni ma'lum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir.

Mehnat malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish. Mehnatga amaliy tayyorlash texnologiya ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshishi mumkin. U boshlang'ich maktabda boshlag'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologiya ta'limining mazmuniga muvofiq o'quvchilarda mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berishda qo'llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishning amaliy malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

Amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rgatish ham demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari duch keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o'rganmasdanoq ish o'preatsiyalarining tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materiallarni o'lchab olish va belgilash, ularni qirqib ishlov berish, qismlarni yelimlash, tikish, o'rash va bog'lash kabi yo'llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig'ish va buyumni o'rnatishdir.

Yakunlovchi bosqich buyumni bezashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatga amaliy tayyorlashga grafik malakalarini shakllantirish ham ta'lluqlidir.

O‘quvchilardagi mehnatga bo‘lgan qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg‘ulotlarida takomillashtirish-lariga yordam berish juda muhimdir. Bunda o‘quvchilarni e‘tiboriga eng oddiy buyum o‘yinchoqlarni, o‘yinlarni, o‘quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applekatsiya ishlari havola etiladi.

Bundan tashqari bolalarda mehnatga qiziqishni o‘yg‘otish, texnologiya darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarin mustahkamlash uchun “Mohir qo‘llar” to‘garaklarida, kuni uzaytirilgan guruhlarda, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya ta‘limi jarayonning o‘shiga ta‘siri.

Texnologiya ta‘limi vazifalari haqida gapirilganda o‘quvchilarda mehnatsevarlik, ma‘suliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma‘naviy ta‘minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Bolalarni aqliy o‘stirishda ham texnologiya ta‘limining o‘rni ko‘p qirralidir.

Texnologiya fani o‘quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo‘zg‘atuvchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Texnologiya ta‘limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy ongini o‘stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o‘shiga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Texnologiya fani eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya ta‘limida mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o‘z mehnati uchun shaxsiy ma‘suliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo‘pol, og‘ir va yoshlariga nomunosib asboblardan ishlasalar, ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

O‘quvchilar har bir qadamda tartibga, tozakorlikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvoffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin. Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga ko‘p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi. O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

1.2 Mehnatga axloqiy tayyorlashda texnologiya fanining ahamiyati

*Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdur oxir.
A.Navoiy.*

Mustaqillik har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo‘lgan ma‘naviyat qirralari iymon, e‘tiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat do‘stlik, sadoqatlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarur.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og‘zaki va yozma ijodiyot avlodidan - avlodga o‘tib kelayotgan iymon-e‘tiqod sirlarining nazariy va amliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim. O‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko‘nikmalari va malakalarini hosil qilish, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o‘rgatish, ongli ravishda kasb

tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya ta'limining vazifalari: turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma'lumotlarni o'rgatish, o'lchash - tekshirish asboblaridan, ma'lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarni belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish; xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan texnika va texnologiyalar to'g'risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalarini bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish; mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Mehnatni sharaflash mehnat ahlining qadr-qiyamatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o'sib kamol tapayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida texnologiyaga munosabatlarini shakllantirish zarur bo'lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi: mehnat, kasb-hunarlarini bilan hissa qo'shishlari pedagog o'qituvchilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kichik sinf o'quvchilarini qo'l mehnatiga o'rgatishning asosiy maqsadi, boshlang'ich mehnat elementlari bosqichlarini ya'ni bajariladigan ishlarning oddiy elementlari (qog'ozlarni buklash, qirqish, yelimlash, geometrik figuralarni yasash, applikasiya ishlari) ni yasash bilan boshlaydilar.

Undan tashqari qo'l mehnatiga o'rgatishda "Tikish va bichish", "Pazandachilik", "Plastilin bilan ishlash", "Qog'oz va karton bilan ishlash", "Applikatsiya va mozayka ishlari" turlari bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar. Har bitta bo'lim o'quvchilarni hayotga mustaqil qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Yaratilgan mehnat natijalari o'ziga va yon atrofdagilariga foydasi tegishini ko'rgan o'quvchi mehnatni asrab-avaylashga va mehnat kishilarining mehnat natijalarini ham hurmat-izzat qilishga o'rganadi. Topshirilgan ishga ma'suliyat hissini va mehnatdagi intizomni tarbiyalash, o'qitishni ishlab chiqarish bilan birga olib borilishi salomatlik va yosh uchun foydali, jamiyat uchun kerakli mehnat izchilligini amalga oshiradi. Boshlang'ich maktablarda texnologiya ta'limi va tarbiyasining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish, davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash hamda o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berish.

Texnologik madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarining meyor va sifatiga, ish ko'rsatkichini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Kerakli material va asboblari bilan yetarli ta'minlanmaganlik ham texnologik madaniyatini shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Ba'zan o'quvchilarning tayyorlanmaganliklari va uyushmaganliklari tufayli o'qituvchining ko'p vaqti bekorga sarf bo'ladi: biri qaychisini, ikkinchisi qog'ozini olib kelmasdan ish qilayotgan o'rtog'ini narsa so'rab chalg'itadi. Shuning uchun o'qituvchi dars boshlashdan oldin guruh sardorlari yordamida o'quvchilar o'rtasidagi do'stona o'zaro yordamga tayanib o'z vaqtida choralari ko'rish lozim. Biroq har qanday holatda ham o'quvchini uyga junatmaslik yoki jazo berish tartibida o'quvchini ishsiz qoldirmaslik kerak, afsuski bunday hollar amaliyotda uchrab turadi. Texnologiya ta'limiga ijodiy tashabbusiz yondashish mehnatning aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi.

Bilimlarni qo‘llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan mehnat faoliyati aqliy qobiliyatlarni o‘stirmaydi.

Texnologiya ta‘limi u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibda va harakatlar izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo‘ladigan ko‘p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

1.3 Texnologiya ta‘limining shakl va metodlari.

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning jo‘shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta‘lim mazmunini emas, balki o‘qitish jarayoning usuli va tashkil etilishini, o‘qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg‘otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o‘rgatish vazifasini yuklaydi.

Texnologiya ta‘limiga o‘rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e‘tirof qilish kerak. Texnologiya ta‘limiga o‘rgatishda ham zamonaviy pedagogika ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va uning usullariga qo‘yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O‘qitish metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning usullari bo‘lib, ular yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining intilishi, hatti-xarakati darsda o‘quvchilarning diqqat e‘tiborlari susay-masligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchaslik-lariga yo‘llangan bo‘lishi kerak.

O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatish kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligigi ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.

O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfn ing imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

Texnologiya ta'limi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Texnologiya ta'limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Ko'r-ko'rona taxminiy yo'l bilan egallangan ko'nikma va malaka tor ma'noda bo'lib, puxta bo'la olmaydi. Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini ko'tarish vazifalariga buysundirilishi kerak. O'quvchilarga berigan topshiriqlar ularni ijodiy izlantirish, ta'lim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o'quvchilarning tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur.

O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan borish o'quvchilarning aqliy rivojlanishi ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab shunungdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqdalar. O'qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni texnologiya ta'limi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa o'qituvchi o'quvchilarning texnologiya ta'limi va tarbiyasining malaka va ko'nikmalarini egallashlariga va mehnatga tayyorlash to'g'ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda qo'llaniladigan asosiy usullar tizimi quydagichadir:

1. Og'zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.
4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Laboratoriya ishlari.
7. Mustaqil ishlar.

8. Ekskursiya.
9. Kitob bilan ishlash.
10. Texnik vositalar.

Og‘zaki bayon qilish usuli ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi.

2. Dialogik bayon bo‘lib bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

Tushuntirish va hikoya qilish.

Bu usulda materialni jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o‘qituvchining o‘zi beradi. Ba‘zan suhbat davomida o‘quvchilarning qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agar bajarilgan ishlar, natural rasmlar, sxemalar, fotosuratlar va shu kabilarni ko‘rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi. Bu o‘rinda tushuntirayotganda – ko‘rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o‘quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim.

Tushuntirishda bu o‘zlashtiruvchilarga alohida e‘tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirayotgan material yuzasidan ularga bir-ikkita savol berish mumkin. Suhbat turli o‘quv maqsadlarda, ya‘ni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o‘quvchilarning bilimni tekshirish uchun qo‘llanishi mumkin. O‘quvchilarni ulardagi qiziquvchanlikni qo‘zg‘ab, savollar berishga undash foydalidir. Umumlashtiruvchi suhbat yaxshi samara beradi.

Suhbat xuddi hikoya singari ma'lum talablarga javob berish kerak, ya'ni:

- savollar shunday shakllantirishi lozimki, ular o'quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;

- mavzuni ochib berishda izchillik bo'lishi uchun suhbatning rejasini oldindan tuzib qo'yilgan savollari albatta bo'lishi kerak;

- o'quvchilarning diqqati qaysi dalil va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o'quv materilining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi: o'quvchilarda bo'lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o'tashi; egallangan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini sindirishga yordam berishi kerak.

Mashqlar olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib ko'proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko'p marta takrorlashidir.

Mashqlar ommaviy va yakka tartibda bo'ladi, ya'ni butun guruxda bir xil ishni va barcha o'quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin. Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo'lgani uchun o'quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishini saqlash talab etiladi. Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko'rsatish lozim.

Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to'xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

Amaliy ishlar o‘quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko‘rgazmali qurollarni o‘quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari ta’limning turli bosqichlarida bo‘lishi mumkin. Laboratoriya ishlarini o‘tkazilishi egallagan bilimlarni ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalga qo‘llashga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o‘tkazilishi mumkin. Laboratoriya ishlari jarayonida o‘quvchilarda ma’suliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi.

Mustaqil ishlar – bu o‘qituvchining bevosita ishtiroksiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o‘rinda o‘quvchilar o‘zlarining intilishlarini qo‘llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar. Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar qo‘l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o‘rtasida uzviy aloqada bo‘lishi kerakligini his etsinlar.

O‘quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo‘lmasligi kerak. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar. Mustaqil ishlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekskursiya - bilishga qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni

egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnasha, ish yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ekskursiyadan so‘ng savol-javob o‘tkazish lozim.

Masalan, to‘qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o‘quvchilarga guruhlar bo‘yicha topshiriqlar berish mumkin. Guruhlardan biri ekskursiyadan so‘ng albomni jihazlaydi, yigiruv sexini eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchi guruh to‘qishning texnologik jarayonini yozadi, uchunchi guruh ishni bo‘yash bo‘limida olib boradi va hokazo.

Kitob bilan ishlash.

Hozirgi kunda texnologiya ta‘limi bo‘yicha 1,2,3,4- sinflarga mo‘ljallangan “Texnologiya ta‘limi” darsliklari asosida o‘qituvchidan o‘quvchilarni kitob bilan ishlashga o‘rgatish talab qilinadi. Bu maqsadda quyidagi kitoblardan: Kuznetsovning “1-3 sinflarda qog‘oz va karton bilan ishlash”, “Boshlang‘ich sinflarda texnik modellashtirish”, “1-3 sinflarda texnologiya fani bo‘yicha albom”, “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy materillar bilan ishlash” kabilardan foydalanish mumkin.

O‘quvchilarni kitob bilan tanishtirishdan oldin o‘qituvchining o‘zi bu kitobni puxta o‘rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O‘quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga ata-sekin o‘rgatib borish kerak. Texnik vositalar qo‘l mehnati mashg‘ulotlarida ayrim bo‘limlarni o‘rganish, kasblar, materiallarni tayyorlash texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo‘llaniladi.

Aytib o‘tilgan usullar texnologiya ta‘limi o‘qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirish faol

jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Texnologiya fani o'qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning barcha turlarini bir xil yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o'z ishida o'qitishning turli usullari bilan birga, pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etgan o'qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo'yilgan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam berishi mumkin. O'quv materialini mumkin qadar qiziqarli va o'qimishli qilinganda, u yaxshiroq egallanib, o'quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo'llash osonroq bo'ladi.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o'qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir. Darslarni to'g'ri tashkil etishda har xil o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni oldindan o'ylab qo'yilgan rejasi bo'lishi muhimdir. Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham oldindan alohida topshiriqlar tayyorlab qo'yish kerak.

Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko'nikmalarini egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, bilimga qiziqishini o'stirishga yordam beradi. O'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi.

Bilish faolligini rivojlantirish o'z navbatida buyumga, mazkur holatda – xizmat ko'rsatuvchi mehnatga qiziqishini rivojlantirishda ko'maklashadi.

Savollar

1. Texnologiya ta'limi metodlari mazmuni nimalardan iborat?
2. Texnologiya fani o'qituvchilarining ushbu metodlardan foydalanishining ahamiyati nimada?
3. Boshlang'ich sinflarda qanday ishlar o'rganiladi?
4. Texnologiya o'qitish metodikasi fanining metodlarilari nechta?
5. Texnologiya o'qitish metodikasi metodlari mazmuni nimalardan iborat?

Topshiriqlar

1. Texnologiya ta'limida o'qitish metodlariga ta'rif bering.
2. Amaliy mehnat ish turlarini keltiring..

Adabiyotlar

1. R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil
2. X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil
3. R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, "Mehnat ta'limi metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil
4. Shumulevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T., "O'qituvchi" 1989 y
5. Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi" 1989 yil

2-Modul. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘L MEHNATINING USULLARI

2.1 Texnologiya darslarida qo‘l mehnatiga o‘rgatish

Maktabdagi mehnat tarbiyasi bolani mehnatga psixologik jihatdan tayyorlaydi: u mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini tushunadi, o‘quvchi mehnat quvonchini o‘rganadi va jamiyat uchun zarur bo‘lgan moddiy qadriyatlarni yaratib, yashash va ishlash istiqbollari rivojlantiradi.

Maktab o‘quvchisining texnologiya darslarida olgan birinchi mehnat ko‘nikmalari murakkabroq mehnat malakalarini shakllantirish uchun juda muhimdir. Mehnat jarayonlari, ayniqsa ularni o‘zlashtirishning birinchi bosqichida o‘quvchilardan aniqlik, shiddat va diqqatni jamlashni talab qiladi.

Katta konsentratsiya har doim boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda juda ko‘p ortiqcha va keraksiz harakatlarni keltirib chiqaradi, kuchaygan kuchlanish nafaqat ishlaydigan organ mushaklarida, balki mehnat operatsiyasida qatnashmaydigan mushaklarda ham paydo bo‘ladi. Shunday qilib, qo‘lni ishlatganda, bola ko‘krak, orqa, oyoq mushaklarining kuchlanishini va tez-tez harakatlanishini sezadi, shuning uchun ko‘plab muskullar tarang ish holatida bo‘ladi, ular harakatlar o‘zgarganda ham dam olmaydilar va bu ko‘proq umumiy holatga olib keladi.

Oddiy asbob va materiallar bilan ishlash talabani murakkabroq asboblardan ustaxonada ishlashga tayyorlaydi. Birinchi ish qobiliyatlari juda kuchli va odatda umr bo‘yi inson bilan qoladi. Shuning uchun bu ko‘nikmalar chiroyli, maqsadli va epchil harakatlarni rivojlantirishga yordam berishi muhimdir.

Texnologiya darslari to‘g‘ri va qiziqarli tashkil etilsa, o‘quvchilar katta zavq bilan ishlaydilar.

Ijtimoiy foydali mehnat, jamoada ishlash, jamoada yaratilgan munosabatlar - bularning barchasi bola uchun yangilikdir. O‘quv yilining boshida birinchi sinf o‘quvchisi jamoaning talablariga qanday bo‘ysunishni bilmaydi.

Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida, mehnat natijasi uchun jamoaviy javobgarlik yuzaga kelganda, birinchi sinf o‘quvchisi asta-sekin o‘zini sinf jamoasi a‘zosi, keyin esa maktab jamoasi a‘zosi sifatida taniy boshlaydi.



1-sinf o‘quvchisi maktabda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullana boshlaganida (gul, daraxt ekadi, ularga g‘amxo‘rlik qiladi va hokazo) u o‘z ishining boshqa odamlarga zarurligini, mehnatga jalb qilinganligini anglay boshlaydi. O‘z mehnatining ijtimoiy manfaatini anglash o‘quvchida ishlashga ishtiyoq uyg‘otadi va u birinchi marta mehnat zavqini o‘rganadi.

Bolaning rivojlanishi bilan uning ish motivlari o‘zgaradi. Buni I va II sinf o‘quvchilarini taqqoslash orqali kuzatish mumkin. Ikkinchi sinfda o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ular murakkabroq mehnat harakatlarini bajarishga qodir bo‘ladi, ishning motivlari va maqsadlari kengroq va chuqurroq bo‘ladi.

Birinchi sinf o'quvchilari, ayniqsa, mehnat faoliyatining boshida, mehnat natijasi emas, balki jarayonga ko'proq qiziqishadi. Birinchi sinf o'quvchilari ko'pincha o'z ishining shaxsiy motivlarini aniq ifodalaydilar: o'zlari uchun, shaxsiy foydalanish uchun buyum yasashni o'rganadilar. Bu yoshdagi bolalar uchun shaxsiy motiv (bir ishni o'zi uchun qilish) har doim katta ahamiyatga ega bo'lib, ish ko'proq ishtiyoq va yaxshi natijalar bilan amalga oshiriladi.

Agar o'qituvchi ularning yanada muhim, ijtimoiy motivlarning rivojlanishini rag'batlantirmasa, o'quvchilarda mehnatning shaxsiy motivlari mustahkamlanib qolishi mumkin. O'zi uchun hisoblash materiali, o'zi uchun xatcho'p, kitoblar uchun papka yasashga odatlangan bola o'z ish faoliyatida shaxsiy, isti'molchi motivlari bilan boshqarila boshlaydi. Agar ish o'zi uchun emas, balki hamma uchun bajarilgan bo'lsa, faoliyat motivlari o'zgaradi, masalan, maktab o'quvchilarining mehnat faoliyati, agar ular o'zlari uchun emas, balki butun sinf uchun material hisoblasa, o'zgarishi mumkin.

Bola maktabda va jamoada ishlaganda, u o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini asta-sekin anglab yetadi, mehnatni qadrlaydi va shu munosabat bilan mehnatning ijtimoiy motivlari uning uchun tobora muhimroq bo'lib, shaxsiy narsadan ustun bo'ladi.

Texnologiya darslarida o'quvchilar ko'pincha tartibsiz ishlaydilar: ularga tez chalg'itish va bu yoshga xos bo'lgan mustaqillik yo'qligi to'sqinlik qiladi: ish ko'pincha to'xtaydi, chunki o'quvchi to'g'ri ish qilyaptimi yoki yo'qmi deb shubhalanadi, u buni o'zi hal qila olmaydi, ishni to'xtatadi va darhol va yordam so'rab o'qituvchiga murojaat qiladi.

Ayrim o'quvchilarning tartibsizligi, ular o'z imkoniyatlariga mos kelmasdan, har qanday vazifani o'z zimmalariga olishadi. Eng qiyin harakatlar kesish, yopishtirishga urinib ko'rishadi. Lekin ular buni yomon va sekin bajaradilar. Ish maqsadsiz bo'lib chiqadi. Biroq har qanday urinish samarasiz bo'lsa ham yaxshi natijaga erishish mumkin.

Eng muhimi bu yoshdagi bolalarni ish sifati unchalik yaxshi bo‘lmasa ham mehnat jarayonining o‘zi qiziqtiradi. Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning keskin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta’lim mazmunini emas, balki o‘qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o‘qitishga qiziqishini,

ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg‘otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o‘rgatish vazifasini yuklaydi.



Texnologiya o‘qitish metodikasi fani o‘rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e’tirof qilish kerak. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab shunungdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar qo‘l mehnatini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni

singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar. Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bola qanday vazifani bajarmasin, u turli ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega: u uchun yangi rolda ob’yektni ko‘rish, ish ob’yektini turli yo‘llar bilan ko‘rib chiqish, taklif qilinganidan farqli ravishda hal qilishning yangi usulini topish, vazifani bajarish uchun yangi variantlarni taklif qilish.

Boshlang‘ich sinflarda mehnatga tayyorgarlik bolalarning ijodiy va estetik rivojlanishining muhim vositasidir. Texnologiya mashg‘ulotlari bolalarda texnik va badiiy fikrlash elementlarini, shuningdek, dizayn qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Mehnat faoliyati shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Mehnat jarayoniga aralashib, bola o‘zi va atrofidagi dunyo haqidagi tasavvurini tubdan o‘zgartiradi. O‘z-o‘zini hurmat qilish tubdan o‘zgaradi. U ishdagi muvaffaqiyat ta’sirida o‘zgaradi, bu esa o‘z navbatida sinfdagi o‘quvchining obro‘sini o‘zgartiradi. O‘rta maktab yoshida hokimiyat va o‘zini o‘zi tasdiqlash masalasi ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi nafaqat o‘z faniga, balki bilimning boshqa sohalariga ham rivojlanayotgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlashi va yo‘naltirishi kerak.

O‘z-o‘zini bilish ushbu qiziqish ta’sirida rivojlanadi. Mehnatning asosiy rivojlanish funksiyasi o‘z-o‘zini hurmat qilishdan o‘z-o‘zini bilishga o‘tishdir. Bundan tashqari, mehnat jarayonida qobiliyat, ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Mehnat faoliyatida tafakkurning yangi turlari shakllanadi. Mehnatning jamoaviy xususiyati tufayli o‘quvchi mehnat, muloqot va hamkorlikda ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, bu esa bolaning jamiyatga moslashishini yaxshilaydi.

Texnologiya ta'limi usullari.

Usul tushunchasini o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan qo'llaniladigan texnikalar majmuasi sifatida aniqlash mumkin. Mehnatga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan metodlar orasida, ya'ni har qanday o'quv fanini o'qitishda qo'llaniladiganlari bor. Masalan: Nazariyaning amaliyot bilan olib borilishi, ko'rsatmalilik, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatni hisobga olgan holdan mashg'ulotlarni tashkil etish, ekskursiya, kichik guruhlariga ishlash, yakka tartibda, jamoaviy, aralash o'qitish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Texnologiya ta'limida o'qitish metodlaridan an'anaviy (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, muammoli), no'anaviy o'qitish metodlari (intetfaol metodlardan)dan keng foydalaniladi.

Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi? Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o'qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyani qaysi tomondan tahlil qilmaylik, uning asosi ta'lim samaradorligini oshirishga, ya'ni kam vaqt sarflab, ko'proq sifatli natijaga erishishga qaratilgandir. Qo'llanadigan pedagogik texnologiya natijasi esa, pedagogning mahoratiga, pedagogik klassifikatsiya turlaridan mohir foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog'liqdir.

Texnologiya faniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ham ta'lim samaradorligini oshirishda elektron axborot-ta'lim resurslari katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

2.2 Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda ish turlari

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda boshqa fanlarni o‘rgatishda bo‘lganidek, o‘qitishning xilma-xil usullarini qo‘llab, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi. O‘quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o‘z so‘zlari bilan buyumni bajarilishini eshlashlari talab etiladi.

Biroq, asosiy o‘rinni hali ham namuna, tayyor ko‘rgazma bo‘yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishda va unga sayqal berdi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo‘l mehnati darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchilar tarqatadi. Stolning ustida diqqatni chalg‘itadigan hech qanday ortiqcha narsa bo‘lmasligi kerak. Asboblarni, ayniqsa kesuvchi asboblarni charm g‘ilofda saqlagan ma‘qul. Har bir g‘ilof asbobning ma‘lum turiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Navbatchi o‘quvchi asboblarni tarqatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda o‘quvchilar tartib va tejamkorlikka o‘rganadilar.

Hamma foydalanadigan asboblar sinf shkaflarda saqlanadi, ishdan so‘ng asboblarni o‘quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o‘quvchiga topshiradilar.

Ish xonasida o‘quvchilarga asboblarni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi ko‘rgazmalar – eslatmalar osig‘liq bo‘lishi kerak. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga to‘liq rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish qoidalarini o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu qoidani tushuntirishda o‘qituvchi nima uchun aynan shunday qilish kerakligini, bu qoidalarga rioya qilinmasa qanday hodisalar ro‘y berishi

mumkinligini o'qitirishi lozim. Xavfsizlik texnikasining barcha qoidalari so'zsiz bajarilishi lozim.

Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo'yicha texnika xavfsizligi qoidalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Ish xonasiga faqat o'qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoaviy ravishda qilinadigan bo'lsa, o'quvchilar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyingni tayyorla, asboblarni to'g'ri va qulay joylashtirish: O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblarni o'ng tomonga, chap qo'l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo'y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni hech qachon ikkita asbob orasiga qo'yma, ularni doimo o'z joyiga, o'tkir tomonini narigi, dastasini o'zing tomonga qilib qo'y. Asboblarni o'ynama, ular o'yinchoq emas.
5. Ish vaqtida ish joyingni tartibli saqla.
6. O'tmas yoki buzuq asbob bilan ishlama.
7. Asbobni ishlatganda, uni o'qituvchi ko'rsatganidek ushla.
8. Asboblarni asra, ularni to'g'ri, o'z o'rnida ishlat, ishlatgandan so'ng ularni tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artadiganlarini artib qo'y.
9. Narsani, har bir detalni oldingi safargidan yaxshiroq, chiroyliroq, tartibliroq qilishga harakat qil.
10. Ishni tugatdingmi, ish joyingni tezda tozalab, tartibli qilib qo'y.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab, ular yordamida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi.



Biroq asosiy o‘rinni hali ham namuna, tayyor ko‘rgazma bo‘yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishdi va unga sayqal berdi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.



Qo‘l mehnatiga o‘rganish ham zamonaviy pedagogika ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va uning usullariga qo‘yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak.

O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, ular yordamida o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak.

O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatish kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligigi ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim.

Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin. O'qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda qo'llaniladigan asosiy usullar tizimi quyidagilar:

- og'zaki bayon qilish.
- tushuntirish va hikoya qilish.
- suhbat.
- mashqlar.
- amaliy ishlar.

- laboratoriya ishlari.
- mustaqil ishlar.
- ekskursiya.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni texnologiya ta'limi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa o'qituvchi o'quvchilarning texnologiya ta'limi va tarbiyasining malaka va ko'nikmalarini egallashlariga va mehnatga tayyorlash to'g'ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi. Texnologiya darslarida qo'lda ishlov berish, atrofdagi dunyoni, go'zallik va uyg'unlikni o'rganish va tushunish amalga oshiriladi.

O'z qo'llaringiz bilan mahsulot ishlab chiqarish universal ta'lim vositasi bo'lib, u har tomonlama rivojlanishi uchun kichkina odamning bir tomonlama intellektual faoliyatini muvozanatlashi mumkin. Qo'l mehnati faoliyati o'quvchilarning ongi, irodasi va his-tuyg'ulariga ta'sir qilish, ularni ijodiy o'zini namoyon qilishga undash uchun mo'ljallangan. Qo'l mehnati ko'nikmalarini o'rgatish aqliy, jismoniy, ijodiy va estetik rivojlanishning muhim vositasidir.

Mashg'ulotning o'ziga xos xususiyatlari turli xil qo'lda operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Amaliyotlar doirasi qanchalik keng bo'lsa, harakatni muvofiqlashtirish qanchalik yaxshi va ko'p qirrali bo'lsa, bolaning yangi faoliyat turlarini o'zlashtirishi osonroq bo'ladi. Dars davomida o'quvchilar kesish, burama, bukish, to'qish, kashta tikish kabi operatsiyalar bilan tanishadilar. Turli xil operatsiyalar qiziqishni yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi.

Darslar o'quvchilarning ijodkorligi va tasavvurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va texnologik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Bu bolalarga o'z ishining ustasi bo'lishga yordam beradi – o'zlarining original asarlarini yaratadi.

Ushbu dasturning maqsadi bolalarni san'at olamiga bolaning shaxsini ijodiy rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tanishtirishdir.

Maqsadga erishish uchun bir qator aniq vazifalarni hal qilish kerak:

- Ijod uchun an'anaviy va zamonaviy materiallar, ularni qayta ishlash texnologiyalari haqida bilim va tushunchalarni kengaytirish;
- Turli xil qo'l operatsiyalarini o'zlashtirish orqali qo'l da ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Bitta materialning turli xossalari va turli materiallarning bir xil xossalari bilan tanishish;
 - ·Shaxsning hayotiy fazilatlarini rivojlantirish:
 - ·Qiyin ishni bajara olish,
 - ·Qat'iylik,
 - ·Aniqlik,
 - Ishni tugatish qobiliyati.
 - Topqirlik, tasavvur, xayoliy fikrlashni rivojlantirish;
 - ·Shaxsiy va jamoaviy faoliyat jarayonida shaxsiy fazilatlarni namoyon etish va rivojlantirish qobiliyati;
 - Har bir bolaning shaxsiy sur'atda ishlash qobiliyati orqali rivojlanishning optimal darajasiga erishish.

Dars davomida o'quvchilar turli xil qo'l da bajariladigan amallar bilan tanishadilar, ularni takomillashtiradilar, dunyoqarashini kengaytiradilar.

Dasturning mazmuni quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- materiallarni badiiy qayta ishlash (qog'oz, tabiiy materiallar, to'qimachilik materiallari, yog'och, plastmassa materiallar);
- dekorativ grafikalar (otkritkalar, taklifnomalar);
- modellashtirish va dizayn;
- erkin ijodkorlik.

Dastur mazmuniga turli bo'limlarni kiritishning dolzarbligi bolaning yoshi va jinsiga qaratilgan. Qizlar ham, o'g'il bolalar ham darslarda zavqlanadigan narsalarni topadilar.

Har bir bola texnika va texnologiyalarning keng tanloviga ega bo'lishi kerak, shunda u materiallarni o'zi birlashtira oladi, ranglarni tanlaydi.

Qo'l mehnatlari paytida texnologiya darslarida ijodiy faoliyat nazariya va amaliyotning birligini ifodalaydi. Nazariy tomon ob'yekt yoki hodisani bilish, idrok etish, uning kelib chiqishi, turlari, xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi, bu ma'lumotlardan o'z tasvirlarini yaratish uchun foydalanish.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun dars uchun zarur bo'lgan materiallar to'planadi va papkalarga jamlanadi. Amaliy tomoni talabalarning badiiy tasvir vositalarini va turli xil materiallarni qayta ishlashning texnologik usullarini o'zlashtirish, shuningdek, ulardan mustaqil foydalanishni o'z ichiga oladi. Qo'l mehnati xilma-xil bo'lib, biror narsa yasaladigan materialiga ko'ra turlarga bo'linadi. Qo'l mehnati, eng avvalo, a'zolarida iroda va his-tuyg'u va idrokni talab qiladi.

Masalan, moddiy bo'yicha qo'l mehnati quyidagi ish sohalarini o'z ichiga oladi:

1. qog'oz bilan ishlash texnologiyasi, origami yasash, applikatsiya ishlari, qog'ozdan narsalarni modellashtirish
2. tabiiy materiallardan ishlash texnologiyasi
3. ipni qayta ishlash texnologiyasi: to'quv ishlari, makrame to'qish ishlari
4. gazlamalarni qayta ishlash texnologiyasi
5. terini qayta ishlash texnologiyasi
6. san'at va hunarmandchilik
7. karton ishlari
8. uy xo'jaligi
9. asboblar bilan ishlashda xavfsizlik choralari

Quyida qo'l mehnatining ayrim turlarini sanab o'tildi. "Dizayn (konstruksiyalash)" atamasi lotincha "construere" so'zidan kelib

chiqqan bo‘lib, model yaratish, qurish, ma’lum bir tartibga solish va turli xil individual ob‘yektlar, qismlar, elementlarni o‘zaro bog‘lash degan ma’noni anglatadi.

Dizayn samarali faoliyatdir, chunki u ma’lum bir mahsulotni olishga qaratilgan.

Bolalar dizayni deganda, odatda, qurilish materiallari va qurilish to‘plami qismlaridan turli xil tuzilmalar va modellarni yaratish, qog‘oz, karton, turli xil tabiiy materiallar (mox, shoxlar, qarag‘ay konuslari, toshlar va boshqalar) va chiqindilardan karton qutilar, yog‘och g‘altaklar, rezina shinalar, eski metall buyumlar va boshqalar) materialni ishlab chiqarish tushuniladi.



"Qurilish" atamasi texnologiya ta'limi metodologiyasida yangilik emas; aksincha, texnologiya ta'limi darslari haqida gap ketganda, biz buni eng tanishlardan biri sifatida qabul qilamiz. Mahalliy uslubiy adabiyotda u ko'p o'n yillar davomida "modellash" so'zi bilan birgalikda ishlatilgan (keyinchalik "tartib" tushunchasi bilan almashtirilgan). "Dizayn va modellashtirish" iborasi har qanday tuzilmalarning modellarini ishlab chiqarishni anglatadi: me'moriy, texnik va hokazo.

Ko'pincha, bu modellar batafsil ko'rsatmalarga muvofiq, reproduktiv tarzda tayyor qismlardan yaratilgan.

Ayrim qismlarni yoki qismlarni bog‘lash orqali ob‘yektini (ko‘pincha uch o‘lchovli) qilish faoliyatini bildirish uchun "qurilish" so‘zidan foydalanish, masalan, chizishdan farqli o‘laroq keng tarqalgan.

Bundan tashqari, boshlang‘ich maktabda qabul qilingan metodikaga muvofiq, mahsulotlar odatda o‘qituvchining diktanti yoki batafsil ko‘rsatma kartasi bo‘yicha yig‘iladi. Shu bilan birga, "dizayn" tushunchasining bunday talqini uning haqiqiy ma‘nosiga mutlaqo mos kelmaydi va eng muhimi, zamonaviy maktablar oldida turgan murakkab rivojlanish va ta‘lim vazifalarini hal qilishga imkon bermaydi. Shuning uchun, ushbu qo‘llanmada biz dizaynga boshqacha qaraymiz va undagi eng muhim xususiyatlarni ta‘kidlaymiz.

Origami - bu ikkala qo‘lni bir vaqtning o‘zida ishlatadigan mashg‘ulot. Shu nuqtai nazardan, origami miyaning chap va o‘ng yarim sharlarining faolligini oshirishga yordam beradigan juda foydali faoliyat bo‘lib tuyuladi. Shunday qilib, qo‘llarning faol ishi aql ishi bilan birga insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda qiziqarli shart-sharoitlarni yaratadi. Bolalar miyasining plastisitivligi va bolalik davrida bir yarim sharning boshqasidan minimal ustunligi miyaning ikkala yarmining rivojlanishi va yarim sharlarning o‘zaro ta‘siri strategiyasini ishlab chiqish uchun juda qulay tuproqdir.

Applikatsiya tasviriy san‘at texnikasining turlaridan biri bo‘lib, turli shakllarni kesish, ustiga qo‘yish va ularni fon sifatida olingan boshqa materialga o‘rnatishga asoslangan. Bu san‘at asarini yaratishning eng oddiy va eng arzon usuli. Applikatsiyaning asosiy xususiyati uning siluyetidir.

Ilova alohida tasvirlardan (barg, shox, daraxt, qush, gul, hayvon, odam va boshqalar) iborat mazmunli bo‘lishi mumkin. syujet, muayyan hodisalarni tasvirlash va dekorativ, shu jumladan turli xil narsalarni bezash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bezak va naqshlar. Bu juda qadimiy san‘at. Uning tarixi 2500 yildan ortiq davom etadi.

Applikatsiyaning paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi va hayvon terisidan tikilgan kiyimlarda tikuvlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ko'p asrlar davomida aplikatsiya nafaqat Osiyoda, balki Evropada ham keng qo'llanilgan va keng tarqalgan: Italiya, Ispaniya, Germaniya, Fransiya. Aplikatsiya ritsarlik davrida katta shuhrat qozondi. Urushlar va turnirlar oilaviy belgilar - gerblarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Gerblar ikki tomondan yaqqol ko'rinib turishi kerak edi, bu esa aplikatsiya kashtachiligining rivojlanishiga olib keldi. Ammo aplikatsiya ishi 16-asrda ayniqsa gullab-yashnadi. Italiya va Ispaniyada cherkov kiyimida ular bir xil motivning takrorlanishi va ohanglarning kontrast kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Eng zamonaviy rang kombinatsiyasi qizil, sariq va yashil edi. Mato aplikatsiyasi qog'oz aplikatsiyasi bilan almashtirildi. Uning kelib chiqish tarixi qog'oz ishlab chiqarishning boshlanishi bilan bog'liq va aplikatsiyaning eng yosh turi qog'ozdan kesilgan qora siluyetlar hisoblanadi. Tasviriy san'at turi sifatida siluyet qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Qora tekis profilli raqamlar yunoncha vazalar bilan bezatilgan.

Nazorat savollari?

1. Qo'l mehnatiga o'rgatishdan asosiy maqsad nima?
2. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda nimani tushinasiz?
3. O'quvchilarni ish unumi qanday oshiriladi?
4. O'quvchilarda mehnat ko'nikmasi qanday hosil qilinadi?
5. O'quvchilarni aqliy o'sishida mehnatning ahamiyati?
6. Qanday metodlardan foydalanish lozim?
7. Qo'l mehnatida qanday usullardan foydalaniladi?
8. Mehnat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz.?
9. Mehnat tarbiyasining shakli nima?

3-Modul. BOSHLANG‘ICH SINFDA TEXNOLOGIK TA‘LIMIDAN AMALIY ISHLAR

3.1 Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish

Ma‘lumki Respublikamiz mustaqilikka erishib, o‘z yo‘lini belgilab oldi va bozor iqtisodi yo‘nalishini tanladi. Bozor iqtisodi ongli kishilik taraqqiyotining hamma bosqichlarida bo‘lgan va bundan keyin ham davom etaveradi. U insonlarga hamisha yo‘ldoshdir. O‘quvchilar ongiga jamiyatimizning demokratik asosida iqtisodiy islohatlarni yanada rivojlantirish, mahnaviy-ahloqiy, mehnat tarbiyasi tushunchalarini shakllantirish, texnologiya darslarida iqtisodiy tushuncha berish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani asosini chuqur va amaliy o‘zlashtirishda, bolalarni mehnatga bo‘lgan munosabatini ijodiy ish faoliyatida mustaqil shakllantirishda, fikr yuritishga o‘rgatuvchi ilmiy vositalardan biridir. Ko‘p asrlik tajriba shuni ko‘rsatadiki, insonlarning mehnati tufayli cheksiz boyliklar va imkoniyatlarning yechiladi. Texnologiya fani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanib, o‘quvchilarning chuqur iqtisodiy bilimini mustahkamlaydi. Hali-hanuz iqtisodiy mehnat tarbiyasida ilg‘or umumbashariy va milliy g‘urur, ularning tarbiyaviy harakteri o‘z ifodasini topgani yo‘q.

Shuning uchun texnologiya darslarida o‘quvchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik mehnat faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish va kuchaytirish lozim. Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu vazifalardan biri tadbirkorlik bo‘lib, bu mahsulot ishlab chiqarish uni sota bilish, tushgan mablag‘ni joy-joyiga sarflay olishdir. Bu tadbirkorlik talablarini texnologiya darslari jarayonida darslar nechog‘lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o‘quvchilar shunchalik iqtisodiy bilimga va malakaga ega bo‘ladilar.

Avvalo bu darslarning muzmunini to'g'ri belgilab olish zarur.

- texnologiya ta'limi va tarbiyasining ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalganligi;

- texnologiya fani darslarini bozor iqtisodi talablari asosida pedagogik texnologiyalardan va malakalardan unumli foydalanish;

- o'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olib amaliy to'garaklarga jalb qilish;

- o'quvchilarni texnologiya ta'limi darslarida iqtisodiy bilim berishda yoshi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;

- o'quvchilarni mehnat natijalarini rag'barlantirish va kamchiliklarni do'stona hal qilish;

Texnologiya fani darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak- atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim. Shuning uchun hozirgi kunda texnologiya fani darslarida «o'z-o'zini boshqarish» va «o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash» kabi tadbirkorlik ishlarini tashkil qilish lozim.

Masalan o'quvchilarning texnologiya fani darslarida materiallarni isrof qilmaslikni, ishning sifatligini, estetik jihatdan bejirim va chiroyli bo'lishiga e'tibor berishlari kerak. Shu bois boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi va tarbiyasi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarini, kelgusi mehnat faoliyatida muhim o'rin egallash ekanligi ko'rsatish, tushuntirish pedagog o'qituvchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlash zarur. O'quvchilarda texnologiya ta'limi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi.

1. O'quvchilarni texnologiya fani ta'limiga oid nazariy va amaliy bilim berishni uzviyligini mustahkamlash;

2. Kasblar xususiyatni farqlay bilishga o'rgatish orqali ularni turli kasblarni to'g'ri tanlashga yo'naltirish;

3. Unumli mehnat qilib yuqori samaradorlikka erishishni o'rgatish;

4. Mehnat jarayonida erishilgan natijani maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida namoyish etish;

5. Bajarylgan ishlar sifatini oshirishda kim oshdi savdo maskanlarini tashkil etish;

O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda maktab, mahalla, oila va jamoatchilikni birgalikdagi harakati o'z-o'ziga xizmat qilishni tashkil etish, mahsulot sifati hamda turli ish turlari jarayonida mehnat natijalarining unumdorligi keskin o'sishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Chunki tadbirlarda erishilgan yutuqlar bo'yicha o'quvchilarning bajargan buyumlari maktab muzeylari yoki sinf burchagida namuna sifatida saqlash, ota-onalarga sovg'a sifatida taqdim etish o'quvchilarda amaliy mehnatda ish sifatini yanada oshirish, ijobiy natijalarga erishishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning bajargan ishlaridan maktab sharoitidan kelib chiqib har xil ko'rgazmalar va o'quvchilarning o'zlari uchun maktab bozori tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda o'quvchilar o'zlari bajargan ishlar natijalarini, diqqatga, e'tiborga sazovor bo'lganligini, o'zini mablag' bilan qisman ta'minlanganligini, o'zini boshqara olishini ko'rib, o'z mehnatiga va o'z galar mehnatiga hurmat bilan qaraydi.

O'quvchi ongida mehnatga muhabbat o'z samarasini topadi. Natijada davlatimizning iqtisodini yuqori darajaga ko'tara oladigan, o'zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimizning rivojlanishida o'zini hissasini qo'sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashimizda yordam beradi.

3.2. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi darsini olib borilishi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limiga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

a) Bolalarning mehnat tajribasini ularning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlik, mehnatga va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) Mehnat malakasi, mehnat madaniyati asoslarini, o'z ishi va o'rtoqlari ishini rejalashtirish va tashkil qilish malakalarini rivojlantirish.

Dasturda to'rtta asosiy ish turlari bor.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
4. Texnik modellashtirish.
5. Qishloq xo'jaligi mehnati.

O'z-oz'iga xizmat ko'rsatish bo'limi o'zlarining kiyim-kechaklariga va turar joylariga qarashni, nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun dasturxon tuzashni o'z ichiga oladi. Bu darslarni yil boshida o'tkazish tavsiya etiladi, bundan maqsad o'qituvchilarni va ota-onalarni yil davomida bolalarning olgan bilimlarini qanday qo'llayotganliklarini va sinfda navbatchilik qilganda o'z – o'ziga xizmat ko'rsatish, uyda ota-onalariga yordam berishlariga imkon berishdir. Texnikaga oid mehnat bo'limi mehnatning quyidagi turlarini: qog'oz va karton bilan ishlash, mato bilan ishlash, turli xil materiallardan plastilin, turli va tabiiy materiallar: somon, quritilgan barglar, patlar, chig'anoq, loy, qum, sement, yog'och, yumshoq sim,

tunuka va boshqa materiallar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Bolalarga buyumlarni yasash tartibi haqida, ya’ni yig‘ish, ishlov berish to‘g‘risida, ishlatib ko‘rish, xato va kamchiliklarni bartaraf qilish haqida, ish o‘rnini tashkil qilish va boshqalar to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi.

Bu elementlarning barchasi keyinchalik modellar va texnikaviy o‘yinchoqlar tayyorlashda qo‘llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o‘stiradi, To‘plangan mehnat tajribasini tevarak-atrofdagi texnika bilan bog‘lashlariga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligi mehnati bu darslarda o‘quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab tajriba hovlisida o‘simliklarni o‘stirishga, ko‘paytirishga va parvarishlashga oid ishlar bilan shug‘ullanadilar.

Texnologiya ta’limi dasturi talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Buyumlarni kundalik uchun zarurligi.
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo‘lgan dasturda ko‘rsatilgan bilim va malakalarining mazmundorligi.
3. Barcha o‘quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiya ta’limining yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya fani o‘quv dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va ko‘nikmalari aks ettirilgan bo‘lib, unga qarab maktab o‘quvchisi, o‘qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi. Texnologiya fani ta’lim yo‘nalishlaridan birinchisi bolada va o‘smirda inson mehnati haqida va uning mehnatining mahsuli yaratilgan buyumlar to‘g‘risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi.

Texnologiya fani ta'limining yo'nalishining ikkinchisi, o'quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to'g'risidagi tasvurlarni shakllantirish. Texnologiya fani ta'limining yo'nalishining uchunchisi esa hozirgi zamon o'quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo'lishni shakllantirish, uni qishloq xo'jaligi sohasidagi malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Texnologiya ta'limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Texnologiya fani darsining maqsadi – shaxsning turmush tarziga, mehnat madaniyatiga qaratilgan barqaror yo'l yo'riqni qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, ahloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'quvchilarni xalq xo'jaligidagi muvoffaqiyatli mehnat faoliyatida zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarini rivojlantirishdir.

Texnologiya ta'limi o'zining bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funksional imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqiega muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

U quyidagilarni taqozo etadi.

- Mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat qilishga ehtiyojni, unga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishni, o'z mahoratini doimo takomillashtirishga intilishni shakllantirish;

- Kasbiy faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan psixo-fizologik funksiyalarini, shaxsning kasbkorlik jihatidan muhim bo'lgan umumiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Tanlangan faoliyat sohasiga kasbiy faoliyatni keng politexnik bilim doirasi va kasbiy harakatchanlik bilan birga qo'shgan holda shakllantirish;

- Bunyodkorlik faoliyati jarayonida haqiqiy mehnat munosabatlariga kirishi, jamoa mehnatiga ijtimoiy tajriba to'plash;

- Shaxsning barcha sohalarida madaniyatni tarbiyalash;
- Zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, yangicha iqtisodiy tafakkurni, omilkorlikni shakllantirish, haqiqiy iqtisodiy faoliyatida ishtirok etish;
- Mustaqillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalash, muammoli vaziyatlarni ijodiy ravishda hal qilishga hozirlikni shakllantirish, ishlab chiqarishni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etish.

Savollar.

1. Boshlang'ich sinflarda qanday ish turlari mavjud?
2. Ish unumini oshirishda nimalarga e'tibor berilishi zarur?
3. Mustaqil ishlarning bosqichlarini ayting?

Topshiriqlar.

1. Mehnatga oid maqollardan namunalar keltiring.
2. Mehnat ta'limida kasb-hunar tarbiyasiga qaratilgan talablarni ayting.

3.3. Texnologiya ta'limi darslarida o'quv jarayonini tashkil etish.

Texnologiya fanidan o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilarni muayyan mehnat malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularda mehnatga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiya fani darslari g'oyat zarurdir. O'qituvchining o'z fanini yaxshi bilishi o'quvchilarning muvaffaqiyat bilan o'qitishning eng muhim shartlaridan biridir.

O'z fanini yaxshi bilgan o'qituvchi biror buyum narsani tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirish va ko'rsatib bera oladi, bu esa mehnat amallarini o'quvchi to'g'ri idrok etishni ta'minlaydi.

O'qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, bolalarga ko'rsatadigan buyum narsani o'qituvchining o'zi oldindin tayyorlab ko'rishi lozim, chunki buyum narsani tayyorlash

davomida qiyin ish usullarini qo‘llashga to‘g‘ri kelib qolishi mumkin. Agar o‘qituvchining o‘zi narsalarni oldindan tayyorlasa o‘quvchilarga uni tayyorlatishning xiyla mukammalashgan metod va usullarini ko‘zda tutgan bo‘ladi.

Har bir dars o‘quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijobiy ko‘nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim. Dars vazifasini faqat bilim berish va ko‘nikma hosil qilishdan iborat qilib qo‘ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan organik bog‘lab olib borish ham zarur. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan bo‘limini bilishi lozim.

Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o‘qituvchi mazkur dars materialini asosida o‘quvchilarning ahloqiylikning qanday g‘oyalarini anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog‘i lozim. Agarda bolalar yaxshi yoritilmagan sinfdan, yoshiga mos kelmaydigan qo‘pol, og‘ir asboblardan ishlasalar, bu ularning ish natijalariga juda yomon ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnat madaniyati malakalari ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo‘ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o‘rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini sistematik suratda tushuntirish berish zaruriyati bilan birga qo‘shib olib boriladi.

Mehnat va politexnik jihatdan tayyorlashning yangi dasturi “taqlid qilish” metodikasini texnologiya fani darsidagi ish sistemasi sifatida rad etadi, tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolalar butun buyumni tuzulishini yaxshi tasavvur etsalargina ish opreatsiyasi va asboblardan ishlash usullarini tezroq va puxtarroq o‘qib oladilar, o‘qituvchi ayniqsa birinchi sinf o‘quvchisi o‘qituvchiga taqlid qilishga intiladi. Shu sababli o‘qituvchi boshdan boshlaboq faqat to‘g‘ri usullarni ko‘rish va eslab qolishi lozim.

Bordi-yu o'qituvchi qo'llamasligi lozim bo'lgan noto'g'ri ish usulini har doim ta'kidlab ko'rsataversa o'quvchi shuni eslab qolishi mumkin, u o'quvchilar ongiga singdirib olib, keyin uni tuzatish ancha qiyin bo'ladi.

Texnologiya fani darslarida birinchi sinf o'quvchilarining ishlarini kuzatish natijasida o'quvchilarni topshiriqlarni olib, buyum narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namunani uning qurilishi nuqtai nazardan sinchklab qarab chiqib, buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar.

Birinchi sinf texnologiya fani darslarida, odatda tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum narsaning namunasi ko'rsatiladi. Bunda birinchi sinf o'quvchilari uchun real, buyum narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab mazkur buyum narsa qanday tayyorlanganligini, qanday qilib xuddi mana shunday tayyorlash mumkinligini o'ylab oladilar. O'qituvchi yangi mavzuga metodik jihatdan qanchalik to'g'ri yondashmasin, uni suhbat va ko'rsatmada qanchalik tushunarli qilib izohlanmasin, baribir bolalar dastlabki vaqtlarda mehnat usullarini har doim ham to'g'ri qo'llaymaydilar.

O'quvchi ko'p savollarni mustaqil hal qilishi kerak. O'quvchilarning hayotga mustaqilligi faol fikrlash faoliyatini, tashabbusni paydo bo'lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi, avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo'llay bilishni o'rganish lozim. Mustaqil mashg'ulot soatida asosiy faol shaxs bolalar. Lekin bunga qaramay darsning bu bosqichida ham o'qituvchining vazifasi benihoyat katta va ma'suliyatlidir. Bunday mashg'ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko'rsatib qo'ya qolish kifoya, bolalar erkin ishlashni kerak deb o'ylash katta xato bo'ladi.

O'qituvchi mumkin qadar kamroq so'zlashi, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o'quvchilarga sezdirmay ularning

xarakterini kuzatishi, ularga yaqinlashish va uzoqlashishini, o'rniga qo'yib gapirishni yoki jim turishni o'rganish lozim.

Yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchini yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchiga biriktirib qo'yish kerak. Masalan tikishda o'g'il bolalar odatda orqada qoladilar ularga qizlar yordamini biriktirib qo'yiladi, aksincha texnikaviy modellashda o'quv tajriba hovlisidagi ishlarda bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak. Shu tarzda o'quvchilarda o'rtoqlarcha o'zaro yordam hissi tarbiyalanadi.

O'qituvchi har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib bolalarni ruhlantirish lozim. Bolalar mustaqil ishlayotganda o'qituvchining mehnati oson emas, balki yanada qiyinroq, biroq ijodiy mehnat singari huzur baxshdir. O'quvchilar mustaqil ishlayotganda o'qituvchi passivdek ko'rinadi, lekin aslida o'qituvchi oldida u rahbarlik qilish lozim bo'lgan xilma-xil xususiyatli o'ttiz-qirq bola bor. Ba'zilarini butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim, boshqalarga ko'rsatma berish kifoya, qolganlari yordamga muhtojdir.

Mustaqil mashg'ulot vaqtida bolalar qo'ng'iroqni ham sezmay qoladilar, hatto ishini davom ettirishga ruxsat etilsa quvonadigan hollar ham bo'ladi. O'zlariga yoqqan ishga sho'ng'ib ketib va tez ishlaydigan o'rtoqlarini ko'rib bolalar bora-bora o'zlarining ish suhratini tezlashtirishni odat qilib oladilar. Bajarilgan ishni o'z vaqtida tekshirmaslik o'quvchining ishga qiziqishini kamaytiradi.

Bajarilgan ishni tekshirish va baholashga bolalarning o'zlarini jalb qilish kerak, bu bilan ular mehnatga ongli munosabat, faollik va tashabbus rivojlanadi. Mehnat natijalarini birgalikda tekshirish va baholash bolalarning xotiralarida ma'lum bir buyumni tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir.

Texnologiya fanidan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani avvalo darsda ishni yaxshi bajara olishni uddalay olmagan o'quvchilarga berish zarur.

Dars besh bosqichga bo‘linadi:

1. Kirish qismi – mavzu nechanchi yil o‘qitilayotganligi o‘quvchilarning o‘shish darajasiga qarab, vaqt jihatdan xiyla uzun yoki qisqa bo‘lishi mumkin. Kirish qismi o‘quvchilarni emotsional qiziqtirishi o‘quvchi ishlashi lozim bo‘lgan biror mehnat ob‘yektini namoyish qilishda go‘zallik hissini o‘yg‘otish lozim.

2. O‘qituvchining ko‘rsatmasi – ko‘rsatmalikning xilma-xil vositalarini (karton, maket, ish proessining bajarilishi keng tasvirlangan shit kabilarni) qo‘llab o‘qituvchi darsini bu bosqichida o‘quv ishning maqsadiga eng muvofiq izchilligi bilan tanishtiradi.

3. O‘quvchilarni topshiriqni mustaqil bajarishi – darsning asosiy qismi bo‘lib, unga darsning 2/3 hatto 3/4 ulushi ajratiladi. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni diqqat bilan kuzatib turadi, ularning ishlariga boshchilik qiladi, ish harakatlaridagi ish holatlari, asboblardan foydalanishdagi xatolar va kamchiliklarni kuzatadi.

Bordi-yu ish o‘quvchilarga qiyinlik qilsa, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zi bajariyotgan operatsiyalarga e’tibor berib turishini va uning harakatiga o‘xshatib asta-sekin harakat qilishini aytadi.

a) O‘qituvchining ko‘rsatmalariga qanday amal qilmoqda.

b) O‘quvchilarning mehnat madaniyati va sanitariya-gigiena ko‘nikmalari qanday.

v) Material qanday saqlanmoqda, o‘quvchilar asboblarni qanday to‘g‘ri ishlatmoqdalar.

g) O‘quvchilar o‘z usullarini qay darajada o‘qib oladilar.

4. Tekshirish va qat’iy baho qo‘yish asosida ishni hisobga olish. O‘qituvchi har bir bolaning ishini qisqa tavsiflab jurnalga baho qo‘yadi.

O‘quvchilarga yorliq etiketkasi qilib tayyorlangan buyumni yopishtiradilar, yorliqqa ishning tugallangan vaqti, qancha vaqt sarflaganligi, bajaruvchining familiyasi va ismi, sinfi aniq ko‘rsatiladi.

5. Uy vazifasini tushuntirish - darsning bu bosqichida darsda bajarilgan topshiriqning yakuni bilan bog‘liq, o‘qituvchi har bir

o‘quvchining faoliyatiga baho qo‘yib, ishdagi kamchilik tomonlarini ko‘rsatadi va uyga berilgan topshiriqni tushuntirish davomida xatolarni tuzatish uchun qo‘shimcha ko‘rsatmalar beradi. Kattalarning sanoatdagi mehnati bilan mehnatning tabiatning o‘zgartirish borasidagi ta’sirini ochib berish uchun tabiat bilan tanishish dars-ekskursiyalar tashkil qilinadi.

Laboratoriyada olib boriladigan ishlar. Bunda o‘quvchilar materiallarning xossalari (plastilinni, loyni) ish uchun o‘zlari tayyorlaydilar, material (qog‘oz, karton, mato)larning texnologiyasi bilan tanishadilar.

1. Agar: Buyumlarni o‘quv nazoratchilarining xohishi bilan ko‘rgazmaga tayyorlash, bunday darsning maqsadi o‘quvchilarni bilim, malaka va ko‘nikmalari darajasini tekshirishdir.

2. Qishloq xo‘jaligi mehnati agar: bu dars o‘z mazmuni jihatdan yuqoridan bayon etilgan dars bilan deyarli bir xil, shu sababli darslarni rejalashtirishda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tuzilishga amal qilish zarur. O‘quvchilarning mehnatga aqliy faolligiga mehnat topshirig‘ining xarakteri kuchli ta’sir etadi.

Masalan: “Tabiiy materiallardan qurish-yasash” mavzusidagi darsni olib ko‘raylik.

3. Darsning maqsadi: Tabiiy materiallardan buyum yasash usullarini o‘rgatish material tanlash, ulash, detallarni bir butun model qilib yasash.

4. Darsning jihozi: qaychi, santimetr, paxol, yumshoq sim.

5. Darsning borishi: o‘qituvchi paxoldan yasalgan o‘yinchoq uychani ko‘rsatib paxoldan o‘yinchoq uycha yasash uchun ma’lum o‘lchamda paxolcha olish kerakligini tushuntiradi.

1. Bu o‘yinchoq nimadan qilingan? O‘qituvchi o‘yinchoqni ko‘rsatadi.

2. Bu o‘yinchoqni tayyorlash uchun qanday geometrik shakl zarur?

Bunda o'qituvchi devorning uzunligi 6 sm, eni esa undan 2 sm kam, balandligi esa enidan 5 sm uzun. Tomi esa uy yonlariga 1 sm dan chiqib turadigan bo'lishi kerak deb uqtiradi.

O'zbekiston maktablarida o'quvchilarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, bolalarning mehnat operatsiyalari shartli grafik usuli bilan mustaqil rejalashtirishga olib kelishdan avval, bolalarda mehnat bosqichlari uchun zarur bo'lgan dastlabki malaka va ko'nikmalarni hosil qilish kerak. Laboratoriya yo'li bilan materialni xossalari va asboblardan unumli foydalanish bilan tanishtirishga, bunda bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirishga e'tibor bermoq lozim, o'quvchilarning qurish yasash qobiliyatlarini rivojlantirish, buyumning qismlarini bir butun qilishga o'rgatish kerak.

Birinchi sinfda o'quvchilar chizmani o'qituvchi rahbarligida buyum namunasini ko'zdan kechirib bajaradi. Bunda o'quvchilarni shartli chiziq namunalari bilan asta-sekin har bir darsda alohida tanishtiriladi. Boshlang'ich sinflarda chizmachilik elementlari maxsus o'quv fani sifatida ham, mehnatga o'rgatish dasturi bo'limida mustaqil bo'lim tariqasida ham kiritilmagan. Doskadagi chizmani chiz, uni namunaga solishtir va materialni o'zi mo'ljallagan buyumni tayyorlash uchun darsda qilinadigan ishlarni oldindan rejalashtirishning tashqi ifodasidir. O'quvchilarning mehnati va mustaqilligini faol fikrlash faoliyati tashabbusning paydo bo'lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo'llay bilishidir.

Savollar.

1. O'quvchilarni mehnatga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
2. Texnologiya fani xonalarini tashkil qilish usullari.
3. Dars nechta bosqichda amalga oshiriladi?

Topshiriqlar.

1. Texnologiya fani darslarida ish o'rnini qanday tashkil etish kerakligini ayting?
2. Texnologiya fani xonalari va ish jihozlarini vazifalarini ayting.

3.4. Boshlang'ich sinfda texnologiya fani ta'limida amaliy ishlar.

Texnologiya fani ta'limi darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat dars mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog'oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hamda uy-ro'zg'or mehnati va shu kabilar bilan tanishadilar.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar berib boriladi.

O'quvchilarga mehnat tarbiyasi berishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir.

Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar. Hosil qilingan ko'nikmalar, takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirish lozim.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim. Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Buning uchun qo'l asboblardan foydalanishning o'ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarni qo'l mehnatiga o'rgatish quyidagi ish turlariga bo'linadi.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
 - a) Applikatsiya va mozayka ishlari.
 - b) Loy va plastilin bilan ishlash.
 - v) Tabiiy materiallar bilan ishlash
3. Qog'oz va karton bilan ishlash.
4. Gazlama bilan ishlash.
5. Loyihalash va modellar ishlari.
6. Qishloq xo'jalik ishlari.

Dars boshida o'qituvchi biror mavzu bo'yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, ya'ni qayerda ishlatilishini tushuntiradi, so'ngra o'quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo'llaydilar. Buyumni tayyorlash usullarini o'qituvchi sinf doskasiga osib qo'yilgan yo'llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko'rsatadi.

Shundan so'ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o'tadi.

Yuqoridagilar kelib chiqib, texnologiya fani ta'limidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi.

1. O'quvchilar oldiga mehnat topshirig'ining maqsadi va mavzusini qo'yish:

a) darslarda bajarishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatish.

2. Ish o‘rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o‘lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o‘lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o‘qish, ya’ni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o‘lchovlar bo‘yicha belgilab chiqish. O‘quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko‘rsatib tushuntirayotgan o‘qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish. Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig‘ish; detallardan buyumni yig‘ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo‘yish. Texnologiya fani ta’limida amaliy ish mashg‘ulotlarini tashkil qilishning bu tartibidan o‘qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi. Amaliy ishlar jarayonida o‘quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to‘g‘ri tanlashdir.

O‘quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qayerda ishlatilishini bilishlari kerak. Bu ish turlarini barchasi boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnati jarayoni o‘quvchilardagi kasb tanlash ishlariga

qaratilgan. O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o‘qituvchi ko‘rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg‘ulotdan so‘ng sinfni tozalab qo‘yishlari kerak. Barcha fanlarda qo‘llanilgani kabi texnologiya ta’limi darslarida ham ta’limning ko‘rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, texnologiya fani darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

Savollar.

1. O‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash nima?
2. Texnologiya ta’limi darslarida qanday amaliy ish turlari bajariladi?
3. Texnologiya ta’limi darslarida amaliy ishlar qanday tashkil qilinadi?
4. O‘quvchilar tarbiyasida amaliy ish jarayonini ahamiyati?

Topshiriqlar.

1. Amaliy ish turlaridan namuna keltiring.
2. Namunaviy dars ishlanmasini yozing.

3.5. Texnologiya darslarining ish unumini oshirish usullari

O‘quvchilarni ish unumini oshirish, chuqur bilim egallash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish masalalari texnologiya ta’limi darslarida hal etiladi. Har bir dars o‘quvchilarni diqqatini, xotirasini, qiyoslay bilishini, fikr yuritishni, asosiy narsani ajratishni, xulosa va umumlashtirishni, o‘z ishini rejalashtirishni, uni kerakli sur’atda amalga oshirishni, o‘z-o‘zini nazorat qilish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Dars mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri darslarni hayot bilan chambarchas aloqador bo'lmog'i lozim. O'quvchilarni faollashtirish ayniqsa o'qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkabdir. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini faollashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o'qituvchining doimo diqqat markazida bo'lishi shart.

O'quvchilarning ish unumini oshirish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vositasida faollashtirish mumkin.

Bu usullarni ba'zilar bilan tanishtiramiz:

Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishda o'quvchining iloji boricha mustaqil ishlash hissasini ta'minlash.

Bir maqsadda o'qitishning alohida va umumiy shakllarini birlashtirish usullari bilan birga maxsus tarqatma materiallaridan foydalanish.

Faoliyat turlari o'rganilayotgan material bilan to'g'ri munosabatni ta'minlash.

Dastur material asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o'ziga xos konkurslar o'tkazish.

Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi, balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan organik bog'lab olib borish ham zarur.

Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi o'qitayotgan bilimni chuqur bilishi lozim. Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o'qituvchi mazkur dars material asosida o'quvchilarning ahloqiylikning qanday g'oyalarini anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilarni sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog'i lozim.

Agarda bolalar yaxshi yoritilmagan sinfda, yoshiga mos kelmaydigan qo'pol, og'ir asboblarni ishlatib, bu ularning ish natijalariga juda yomon ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat madaniyati malakalari ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo‘ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o‘rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini sistematik sur‘atda tushuntirish berish zaruriyati bilan birga qo‘shib olib boriladi.

Texnologiya ta‘limi darslarida ish unumini oshirish usullari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni bilim, malaka, ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijodiy mehnatga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish muhim muommalardan biridir. Shunday ekan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni ijodiy mehnatga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiya fani darslarining o‘rni juda kattadir. O‘quvchilarni mehnatga ijodiy tayyorlash texnologiya ta‘limining muhim vazifalaridan biridir. Mehnat o‘quvchilarning chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantiradi. O‘quvchilarni tanlagan kasbiga qiziqtirish, mehnatkash kishilarga hurmatda bo‘lishga tarbiyalaydi.

O‘quvchilarni ish unumini oshirish, chuqur bilim egallash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish masalalari texnologiya ta‘limi darslarida hal etiladi. Har bir dars o‘quvchilarni diqqatini, xotirasini, qiyoslay bilishini, fikr yuritishni, asosiy narsani ajratishni, xulosa va umumlashtirishni, o‘z ishini rejalashtirishni, uni kerakli suhratda amalga oshirishni, o‘z-o‘zini nazorat qilish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarini texnologiya fani darslarida ish unumini oshirish ikki bosqichda olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi bosqich - texnologiya mashg‘ulotlarining aniqligi, asosligi, uning bola qiziqishiga, isti‘dodiga va qobiliyatiga mos kelishi. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni mehnatning ma‘lum turiga bo‘lgan mayl va qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga

mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishga yordam berish juda muhimdir.

Texnologiya fani ta'limida o'quvchilarning diqqat ehtiborini:

- asbob-materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga:

- ish joyini to'g'ri jihozlashga:

- materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga:

- ish harakati me'yori va sur'atiga:

- ish sifatini ta'minlovchi omillarga:

- ishlov berishda olingan aniqliq va tozalikka rioya qilishga:

- buyumni chiroyli qilib bezishga jalb qilib borish kerak.

Ikkinchi bosqich - O'quvchilarga jamoatchilikga, ijodiy tashabbus-korlikga, mehnat kishilarini va mehnat natijalarini hurmat qilishga, mehnat javobgarlikni xis etish xususiyatlarini singdirib borish zarur. O'quvchilarni texnologiya ta'limi darslarida ish unumini oshirish uchun ularni ongiga, dunyosiga mehnat orqali ta'sir etishimiz muhim o'rin egallaydi. Bunda mehnatning tarbiyaviy kuchi o'quvchining mehnatga munosabatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ishtiyoq va qiziqish bilan qilinayotgan mehnat majburan qildirilayotgan mehnatga nisbatan bolalarning ongiga, xissiyoti va irodasiga kuchliroq ta'sir etadi.

Shuning uchun o'quvchilar biror ijodiy mehnatga kirishishlaridan oldin pedagog o'qituvchilar zimmasiga quyidagi shartlarni amalga oshirish talablari qo'yiladi:

- yasayotgan buyum yoki predmetning zarurligini tushuntirish:

- uni qo'llash urni va maqsadini tushuntirish:

- yasash usullari va jarayonini tushuntirish:

Bolalar tayyorlagan narsalar o'z o'rnida qo'llanilishi ham katta ahamiyatga egadir. Ular o'z mehnatlarining foydaliligini ko'rganlarida, ularda o'z mehnatlarining natijasidan ko'nikishi, yana qandaydir foydali, yaxshiroq narsani hosil qilishga intilish paydo bo'ladi. Ularda o'z qobiliyatlarini ishonch, narsalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda

bo'lish hissiyoti uyg'onadi, chunki bolalar atrofdagi narsalarni qanday mehnat evaziga yaratilganligini anglaydilar.

Dars mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri darslarni hayot bilan chambarchas aloqador bo'lmog'i lozim. O'quvchilarni faollashtirish ayniqsa o'qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkabdir. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini faollashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o'qituvchining doimo diqqat markazida bo'lishi shart. O'quvchilarning ish unumini oshirish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vositasida faollashtirish mumkin.

Bu usullarni ba'zilar bilan tanishtiramiz:

1. Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishda o'quvchining iloji boricha mustaqil ishlash hissasini ta'minlash.

2. Bir maqsadda o'qitishning alohida va umumiy shakllarini biriktirish usullari bilan birga maxsus tarqatma materiallaridan foydalanish.

3. Faoliyat turlari o'rganilayotgan material bilan to'g'ri munosabatni ta'minlash

4. Dastur materiali asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o'ziga xos musobaqalar o'tkazish.

Texnologiya fani darslarining muhim xususiyati shundaki, o'quvchilar mehnat va politexnik bilim, ko'nikma va malakalarni xilma-xil amaliy ishlarni bajarish, o'zlariga kerak bo'lgan va ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan predmtlar yasash jarayonida egallaydilar. Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan bog'lab olib borish ham zarur. Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi o'qitayotgan bilimni bilishi lozim.

Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o'qituvchi mazkur dars materiali asosida o'quvchilarning ahloqiylikning qanday g'oyalarini

anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog‘i lozim.

Savollar.

1. Texnologiya fani darslarini tashkil qilishda nimalarga e‘tibor berish kerak.
2. O‘quvchilarda mehnatsevarlikni tarkib toptirish.
3. Ish unumini oshirish usullari qanday.

Topshiriq.

1. Ish unumini oshirish usullariga misol keltiring.
2. O‘quvchilarda mehnat tarbiyasini amalga oshirish manbai nima?

4-Modul: TEXNOLOGIYA DARSLARINING ISHLANMASINI TUZISH

4.1 Applikatsiya ishlarining bajarilishi va uning turlari.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Applikatsiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga ko'ra xilma-xil bajarilishi texnikasining o'xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxtlar po'stloglari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

Applikatsiya – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yin uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo'llash imkonini beradi.

Dekorativ applikatsiya – u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin. Applikatsiya tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan.

Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida daraxt po'stlog'idan foydalanishgan, bo'yalgan po'stlog'dan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan.

Komi, qozoq, qalmaq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikasiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Applikasiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo'lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simliklar, urug'-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo'ladi.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog'ozi navlari applikasiya uchun yaroqlidir. Applikasiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tassavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikasiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikasiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikasiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikasiyalar eskizsiz bajariladi. Applikasiya ishlarini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak.

Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikasiya muvaffaqiyatining garovidir. Eng oddiy applikasiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikasiyalardir. Avval ornament eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detailarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. Applikasiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi.

Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Geometrik shaklli applikatsiyalar.

Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. 1 va 3 sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyani bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylanani qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

2. Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

3. Ayrim predmetlarni detalma-detel tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.

4. O'quvchilarni "ko'p, kam, uzunasiga, ko'ngdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. O'quvchilar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin. Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli o'lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo'yicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo'ylab tuziladi.

Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar.

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada

geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin. O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin. Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. O'quvchilarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartiblilik tarbiyalanadi.

Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Ko'p rangi applikatsiyalar.

Ko'p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'yilgan asarga bog'liq.

Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarninig tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi. Ko'p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikatsiyalardir.

Dekorativ applikatsiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo'lishi mumkin. Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo'lda yaratishlari mumkin. Sharq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

Badiiy applikatsiyalar.

Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Texnologiya ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o'rganiladi. Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo'l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi.

Quticha ochiq tondagi qog'oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar hajmiga ko'ra eng katta detal mavzuli detal bo'lishi kerak.

Syujetli applikatsiya.

Syujetli applikatsiya asariga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya – ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya ham syujet tanlashdan boshlanadi.

Agarda syujetni o'quvchining o'zi o'ylab topgan bo'lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo'lsa, unda avval syujetni rasmi, so'ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog'ozlardan qirqiladi. Agarda o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlangan rasmdan ko'ra qog'oz yordamida nusxa ko'chirishi

mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, har bir detalni rangli qalam bilan atrofi chizib chiqiladi. Ularni qirqib olib, syujet yoki narsa detallari qog‘ozga yig‘iladi.

Syujet yoki predmetning tabiiy ko‘rinishiga putur yetmasligi uchun ularni qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi. Kuchaytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyadan foydalanish mumkin.

Mavzuli applikatsiya.

Mavzuli applikatsiya ma’lum mavzuni aks ettirishi lozim u badiiy asr uchun illyustratsiya, applikatsiya plakat bo‘lishi mumkin. Badiiy tematik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy aniqliklarni, qismlarning o‘zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug‘lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko‘rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Applikatsiya ishida asosiy material qog‘ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo‘lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o‘simliklar, urug‘danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo‘ladi.

Qog‘ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushurilgan - barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog‘ozi navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo‘lgan izchillikda ado etiladi. Eng oddiy applikatsiyalar bu goyemetrik figuralardan qilingan applikatsiyalardir.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so‘ngra kerakli detallar o‘lchami va miqdori hisoblanadi. Detailarni tayyorlab ma’lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So‘ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Geometrik shaklli applkatsiyalar.

Bajarilish texnikasiga ko‘ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applkatsiyalardir. 1 va 3 sinf o‘quvchilari geometrik shaklli applkatsiyani bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

Geometrik shakllar: kvadrat, to‘g‘ri burchak, uchburchak, aylanani qog‘oz bo‘lagidan va o‘lchov asboblari yordamida hosil bo‘lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

Badiiy didni o‘stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo‘yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to‘g‘ri idrok etishni o‘rganadilar.

Bolalarni “ko‘p, kam, uzunasiga, kungdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to‘rt qismga, teng qismlarga” kabi tushunchalari mustahkamlanadi. Bolalar ranglar o‘yg‘unlagini to‘g‘ri tanlashni o‘rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar.

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o‘rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

Rangli qog‘ozlardan olingan doiralarni va ularning qismlari bilan applikatsiya bo‘yicha juda ko‘p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo‘lsin.

Bu ishlar o‘quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o‘stirishga yordam beradi. Bolalarda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida qat‘iyatlik, tartiblik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko‘rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllanadi.

O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Ko'p rangi applikatsiyalar.

Ko'p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'yilgan kompozitsiyaga bog'liq.

Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarining tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi.

Ko'p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikatsiyalardir. Dekorativ applikatsiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlari uyg'unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo'lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo'lda yaratishlari mumkin. Sharq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

Badiiy applikatsiyalar.

Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Texnologiya ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o'rganiladi.

Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo'l belgilari) ishlarini bajaradilar.

Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog‘oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog‘ozni tashlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e‘tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi.

Savollar

1. Applikatsiya qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
2. Applikatsiya san‘ati nimalardan iborat?
3. Applikatsiyaning qanday turlari mavjud?
4. Applikatsiyadan qanday ishlar bajariladi?

Topshiriqlar

1. Applikatsiya turlariga misollar keltiring.
2. Applikatsiya turlaridan amaliy ishlar bajaring.

Adabiyotlar

1. R.A.Mavlonova, O.T.To‘raeva, K.M.Xoliqberdiev “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 1998 yil
2. X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” 1996 yil
3. R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat ta‘limi metodikasi” T., “O‘qituvchi” 1986 yil
4. SHumulevich N.M.“Qog‘ozdan texnik modellar yasash” T.,“O‘qituvchi” 1989 y
5. Vorobyov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O‘qituvchi”1989 yil
6. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. “Mehnat eng yaxshi tarbiyachi”. T.1988y. 46
7. Mavlonova.R.A. “Boshlang‘ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

4.2 Applikasiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlarida ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvinerlar, devoriy gazetalar, stendlar va hokazolarni bezashda ishlatiladi. Applikasiya bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni o‘stiradi.

Applikatsiya ishini bajarishda asosiy e‘tibor uning umumiy ko‘rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o‘ylangan kompozitsiya, ya‘ni tasvirlash lozim bo‘lgan narsalarni joylashtirish applikasiyaning muvaffaqiyatining garovidir.



Tasvirlash lozim bo‘lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog‘ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi.

Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko'pincha ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi. Applikatsiya muljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy tematik element bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o'quvchilari 8 – Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko'nikmalarini sinaydilar va rangli qog'ozdan ingichka oq va sariq to'g'ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog'ozdan doira qirqsa bo'ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo'lishi mumkin. Novdalar ham qo'lda qirqiladi.

Dars rejasi o'quv yilining boshida yillik kalendar reja bo'yicha taqsimlanadi. Dars rejasi 4 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich tashkiliy qism, bunda qo'ng'iroq chalingandan boshlab yangi dars bayon etilgan vaqtgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Ikkinchi bosqich uy ishini tekshirish va baholash, uchunchi bosqich yangi mavzuni bayoni, to'rtinchi bosqich darsning yakuni, bunda bajarilgan ishlarni baholash, uyga vazifa berish va ish joylarini tozalash. Bir soatlik dars misolida ko'rib chiqamiz.

Suhbatni o‘qituvchi “8 Mart” bayrami haqida olib boradi va bunda sovg‘a masalasini eslatib o‘tadi. Eng yaxshi sovg‘a o‘z qo‘li bilan yasagan sovg‘a ekanligi ta’kidlanadi. Suhbatimiz mehribon buvijonlarimiz, onajonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo‘lishi mumkin.

Shundan s‘ng namuna ko‘rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. tabriknoma uchun qog‘oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;

2. ko‘k rangdagi qog‘ozga to‘g‘ri burchak chiziladi, uning o‘lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;

3. ko‘k qog‘ozdan qirqilgan to‘g‘ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko‘k qog‘oz taklifnomani bo‘yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig‘ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;

4. endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog‘ozni kerakli o‘lchamda qirqiladi;

5. namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;

6. Och ko‘k va jiggar rang qog‘ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;

7. gullar qirqib yopishtiriladi.

Mavzu: 8 mart bayramiga tabriknoma yasash.

Darsning maqsadi: Bayramga tabriknoma yasash, har-xil shakllarni kesishga o‘quvchilarni o‘rgatish, mehnat qurollaridan to‘g‘ri foydalanish.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko‘rsatmali.

Dars jihozi: yasalgan tabriknomalar, kley, qaychi, rangli qog‘oz, karton, gullar andozasi.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

Salomlashuv. Davomatni aniqlash.

Hozir nima dars?

Bugun nechanchi sana?

Hozir qaysi fasl?

Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Hozir qaysi oy?

Mart oyida qanday bayramlar bo'ladi?

8 mart qanday bayram?

Uy ishini tekshirish.

Uyga qanday vazifa berilgan edi?

Hamma uy ishini oldiga qo'ysin.

Uy ishini tekshirib, baholab chiqish, chiroyli va toza bajarganlarni rag'barlantirib, o'quvchilarga namuna qilib ko'rsatiladi. Bajarilmagan ishlarni bajarib kelgandan so'ng keyingi darsda tekshirishni aytiladi.

Yangi mavzuni bayoni.

Bolalar bugun biz halqaro xotin qizlar bayramiga tabriknoma yasaymiz. O'z qo'limiz bilan yasagan tabriknomalarni onalarimizga, opalarimizga, buvi, singillarimizga she'rlar aytib shirin so'zlar bilan tabriklasak, ular juda xursand bo'lib ketadilar.

Onalar to'g'risida ko'plab maqol, hikmatli so'zlar, hikoyat, she'r, asarlar bor, masalan:

Onaning bir qo'li beshikni,

Ikkinchi qo'li dunyoni tebratadi.

Onaning beli og'risa,

Yer ham titraydi.

3. Dunyo tor bo'lganda ham,

Ona bag'ri keng.

Ona bilan bola,

Gul bilan lola.

Bolaning barmog'i og'risa,

Onaning yuragi achiydi.

Avaylab bizni

Bir parcha go'shtdan.
Inson qilolgan
Onaga ta'zim!
Axir onaku do'stlar.
Yo'qdan bizni bor etgan.
Kim xo'rlasa onasin.
Bag'ri qon tuban ketgan.

Ona muqaddas! Ona aziz va mo'tabar siymo! Ona ulug'lik, go'zallik, donolik timsoli. Ona aziz va mo'tabar siymo! Ona ulug'lik, go'zallik, donolik timsoli. Shuning uchun bolalar onalarning doimo hurmat qiling ular ish buyursalar, xo'p bo'ladi deb bajaring.

O'quvchilardan she'r maqol, hadislar so'raladi. So'ngra tabriknoma yasashni boshlaymiz.

Bolalar avval karton ya'ni albom varog'ini 2 ga bo'lamiz, uni chetlarini qizil rangli qalamda chiroyli qilib chizamiz. O'quvchilarga ko'rsatilib birgalikda bajariladi. Ularga ish qoidasi ham o'rgatilib boriladi. Bolalar qaychidan ehtiyot bo'lib foydalanishni, qog'ozni kesayotganda qo'lini kesib olmaslikni aytiladi.

Gul lolalarni andozasi bolalarga tarqatiladi, ranglarga qarab kesib yoki chizib oladilar. So'ngra yopishtirish ishlari bajariladi. Bolalar yelimdan unumli foydalanishini, partalar va kiyimingizni yelim qilib qo'ymasligi ta'kidlanadi.

Tabriknoma yasab bo'lgandan so'ng, uning ichiga doskadagi tabriknomani ko'chirib oladilar. Tabriknoma bitdi, tekshirib, baholab chiqiladi. Kimning yasagan ishi chiroyli, toza, to'g'ri bo'lsa rag'barlantiriladi.

Darsning yakuniy qismi.

Hamma ish joylarini tozalab chiqish kerakligini aytiladi va uyga borib buvi, ona, opa-singillaringizga she'rlar, qo'shiqlar aytib 8 mart bilan tabriklanglar deb dars yakunlanadi.

Ish ijodiy tarzda bo‘lganligi uchun o‘quvchilar gullarni shoxlarga o‘zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o‘qituvchi tarqatgan andoza bo‘yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so‘zi yoziladi.



Mozayka monumental dekorativ san‘at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozayka qo‘llaniladigan materialiga ko‘ra ham naqsh va rasmlariga ko‘ra ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozayka ishlari bilan bezatilgan.

Mozayka hozirgi kunda monumental san‘atga aylangan. Mozayka bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san‘ati asarlari bezatiladi. Mozayka ishlarida oyna, sopol plitalaridan foydalaniladi. Laosda rangli ko‘zgu parchalaridan ajoyib mozayka asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo‘shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozayka bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog‘oz, oyna, sopol, gul tojibarglari, tuxum po‘sti va shu kabilar) qo‘yib chiqishdir.

1. Tuxum po‘stlog‘idan mozayka ishlarini bajarish uchun yuvib quritilgan tuxum po‘sti mo‘yqalam yordamida akvarel bo‘yoqlari bilan kerakli ranglarga bo‘yaladi.

2. Bo‘yoq qurigandan keyin tuxum po‘stini tanlangan rasmga ko‘ra mayda va yirik bo‘laklarga bo‘linadi.

3. Tuxum po‘stidan mozayka qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo‘lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog‘oz orqali o‘tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po‘sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, tuxum po‘sti yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo‘yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug‘lari, danak, baliq tangalari, chig‘anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozayka ishlarini bajarish mumkin.

4.3 Qog‘oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini Tashkil etish metodikasi

Qog‘oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko‘rinishidagi yig‘ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yig‘ma chizmani o‘qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o‘lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga namuna va texnologiya darsidagi chizmani ko‘rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o‘lchami shakli qanday bo‘lishini aniqlaydilar.



O‘quvchilar chizmaga qarab to‘g‘riburchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog‘oz va karton bilan ishlash mashg‘ulotlari o‘quvchilar oldindan quyidagi tayyorgarlik ko‘rishadi: stolning ustiga qog‘oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni tayyorlaydilar. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar keyingi mashg‘ulotda kerakli bo‘ladigan narsalarni yozib oladilar.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo‘yishlari kerak.



Barcha fanlarda qo‘llanilgani-dek texnologiya ta’limi darslarida ham ta’limning ko‘rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan texnologiya darslarida turli xil namuna, rasm, chiziq, sxematik namuna turli predmetlarning shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek “Qog‘oz va karton bilan ishlash” mashg‘ulotlarida o‘quvchilar qog‘ozni buklash yo‘li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o‘rganib boradilar. Ana shunday mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi quyidagi ko‘rsatmali qurollardan foydalanish mumkin. Shu bilan o‘quvchilar bu ko‘rgazmalarni yasashni bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasalishini o‘rganib borishlari mumkin.

Birinchi sinfda o‘quvchilar eng avvalo faqat texnologiya fani darsi mashg‘ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to‘qnash keladigan materiallar bilan ham tanishadilar. Bu barcha o‘quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari bosiladigan qog‘oz turlari: yozadigan muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan kitob va gazeta qog‘ozlaridir.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar turli qog‘ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g‘adur-budurligi bilan tanishadilar. Ba’zi narsalarni tayyorlashda bolalar yelimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor yelimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, yelimlashni o‘rganishlari kerak.

1.”Lola “ ko‘rsatmali qurolli.(1-rasm)

1.-Bosqich. Rangli qog‘ozlardan kvadrat qirqib olinadi. Uning diagonallari bo‘yicha buklab, buklangan do‘ppi shakliga keltiriladi.

2.-Bosqich. Buklashdan hosil bo‘lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga yetkizdirib buklanadi. Xuddi shuningdek orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.

3.- Bosqich. Hosil bo‘lgan shaklda cheti o‘rtaga hosil bo‘lgan chiziqqa tomon buklanadi. Shaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

4.- Bosqich. Oxirgi buklangan shakllarning har bir orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so‘ng ularning uchlari bir biriga qaytarilib bukiladi.

Keyin shaklni pastgi ochiq tomonidan asta puflanadi. Shaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada “lola” shakli hosil bo‘ladi. Lolaning bandini boshqa qog‘ozni silindir shaklida o‘rab, uni lolaning pastki puflangan qismiga kiritib qo‘yish bilan tugallash mumkin. Bu bandga lolaning bargini g‘unchasini ham yopishtirib qo‘yish mumkin.

4.4. Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg‘ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o‘tkazish har bir o‘qituvchidan mazkur soha bo‘yicha ma‘lum tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchilar o‘z ustilarida ko‘proq ishlashlari, haykaltaroshlik va sopoldo‘zlik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo‘ladi

Texnologiya darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o‘yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahromonlari yasaladi.

O‘yinchoq – dekorativ san‘atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko‘ra o‘yinchoqlarni assortamenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda.

O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.

Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan materialni narsalar yasashga yaroqli yoki yo'qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilin har-xil oddiy va murakkab turlari bo'lib, turlicha tayyorlash jarayonlari ham bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq buyoq massasi qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchunchi variant - 1 qism tuproqqa 1/5 qism ilitilgan mum hamda qo'lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qo'lda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va sun'iy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Texnologiya darslari uchun do'konlarda ochdan to to'q rangacha bo'lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblari, pichoq, oddiy konstruksiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo'g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, o'lchov, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi.

Tayyor narsalardagi changlarni yo'qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har – xil mo'yqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma'lumot.

Haykaltaroshlik – ta'sviriy san'at turlaridan biridir. San'atning bu turining xususiyati tasvirni hajmi – formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg'iz turi emas. Undan tashqari, barelyef va gorelyef ham mavjud relyef aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltaroshlik formalaridan idish – tovoq sathini, binolarning old tomoni, interyeri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar.

Yumoloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilari shakllini berishdir.

Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.

Shar yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.

Cho‘zish – sharikning bir qismi cho‘ziladi.

Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

Loy va plastillin bilan ishlash mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish-da ish joyini bekamu-ko‘st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Savollar.

1. Applikatsiya ishlarida nimalarga e‘tibor berish kerak?
2. Mozayka qanday san‘at turi?
3. Mozayka ishlaridan nimalar yaratiladi?”
4. Applikatsiya qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
5. Applikatsiya san‘ati nimalardan iborat?
6. Applikatsiyaning qanday turlari mavjud?
7. Applikatsiyadan qanday ishlar bajariladi?
8. Darsning tashkiliy qismida nimalarga e‘tibor berish kerak?
9. Nima uchun har darsda davomad tekshiriladi?
10. Uyga vazifa nima uchun beriladi?
11. Haykaltaroshlik san‘ati qachon paydo bo‘lgan?
12. Loyning xususiyati qanday?
13. Plastilinning tarkibi qismlari qanday?
14. Darslarni tashkil qilish usullari

5-Modul: YUMSHOQ O‘YINCHOQLAR YASASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

5.1 Texnologiya darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyasi

Kasb tanlashga yo‘llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda texnologiya ta‘limi alohida o‘rinni egallashini esdan chiqarmaslik kerak. Bunga sabab shuki, texnologiya ta‘limining mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish kiritib yuboriladi va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham olib boriladi. Ma‘lumki, kasb to‘g‘risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqda to‘liq tassavvurga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi.

Kasb tanlashga yo‘llash ishi butun texnologiya ta‘limi davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o‘zining turli bosqichlarida o‘zgarib turadi.

I-IV sinflarda asosan kasb haqida ma‘lumot beriladi. O‘quvchilar qanday ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o‘quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o‘qitishning shu davrida o‘quvchilarni umumtexnik tayyorlash vazifasiga to‘la mos keladi.

IV va V sinfda kasb to‘g‘risida ma‘lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida o‘quvchilar bo‘lg‘usi mehnat tayyorgarligining profili (yo‘nalishi)ni tanlab olishlari zarur.

Har bir profil ko‘plab ommaviy ishchi kasblarini o‘z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg‘ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo‘lgan kasblar bo‘lishi (masalan, metallga ishlov berishga va yog‘ochga ishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo‘lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, bo‘yoqchilik va shu kabi kurilish kasblari) bo‘lishi mumkin.

Mehnat tayyorgarligining profilini tanlashda ko‘pincha munozarali vaziyatlar vujudga kelib, bu munozarada o‘quvchilarning ota-onalari ham ishtirok etishlari mumkin. Mehnat tayyorgarligining ayrim profillari go‘yo e‘tiborsizdek tuyulib, hech kim bu kasbni tanlashni xohlamaydi. Boshqa profillarga esa, aksincha, keragidan ko‘proq o‘quvchilar qiziqib qolishadi.

Afsuski, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin; o‘qituvchilar bu masalani o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga qarab hal etishga urinishadi, ya‘ni a‘lochi o‘quvchilarga tanlash huquqi beriladi yomon o‘zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo‘lishadi.

Masalani bu tarzda hal etish har jihatdan noto‘g‘ridir. Hayot yo‘lini zo‘rma-zo‘raki tanlaganlardan hech qanday yaxshilik kutib bo‘lmaydi. Shubhasiz, a‘lochi o‘quvchilar rag‘batlantirilishga loyiqlar, biroq bu narsa boshqalarni kasb tanlash erkinligidan mahrum qilmasligi kerak.

Shunday ham bo‘ladiki, mehnatga tayyorgarlashing profilini to‘g‘ri tanlagan o‘quvchi keyinchalik o‘ziga shu profil doirasidagi kasbni tanlaydi.

Shundan kelib chiqib, mehnat tayyorgarligini tanlash ixtiyoriy bo‘lishiga harakat qilish lozim.

Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini qanday tushunish, lozimligini aniqlab olish zarur. Bizning jamiyatimizda xohlagan kasbni tanlash yo‘lida siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa xil g‘ovlar yo‘q. Ammo bu huquqdan o‘z o‘rnida foydalana bilish va bunga o‘rgatish darkor.

Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo‘lgan talab uning e‘tiboriga qarab emas, balki xalq xo‘jaligining strukturasiqa qarab aniqlanadi. Shuning uchun, xohishimizdan qat‘iy nazar, ob‘yektiv tarzda kechuvchi ilmiy-texnik taraqqiyot bu planga o‘z shartlarini kiritadi va biz yoshlarni xalq xo‘jaligiga kerakli kasblarda ishlashga

tayyorlashimiz kerak. Ravshanki, bu o'ta muhim vazifaning bajarilishini ta'minlash kasb tanlash erkinligi fuqarolik burchni tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrli ekanligini anglash bilan uyg'unlashib bo'lishi lozim.

Har bir o'quvchi kasb tanlash haqidagi masalani faqat o'zining manfaatlari nuqtai nazaridan hal etmasligi kerak. Agar u siyosiy jihatdan yetuk bo'lsa, bunday qilmaydi ham. O'smirlar to'g'risida gap ketganda, ular shaxs sifatida endigina shakllanib kelayotganliklarini e'tiborga olish zarur.

Shu munosabat bilan texnologiya ta'limiga alohida umid bilan qaraladi. Tekshirishlar o'quvchilarning ma'lum qismi ishchi bo'lib ishlashni xohlamasliklarini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, o'quvchilar ishchi kasblarining mazmuni to'g'risida to'g'ri tasavvurga ega emaslar, jamiyatimizda ishchilar qanday e'zozlanishini yaxshi bilmaydilar. O'quvchilar bilan aynan mana shu yo'nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o'rta maktabni bitirganlarning ko'pchiligini moddiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga jalb qilishni taqozo etadi.

Mazkur holda masala eng qimmatli ommaviy ishchi kasblariga taalluqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga har tomonlama kamol topish, moddiy farovonlik, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishga imkoniyatlar yaratishi jihatidan teng bo'lgan kasblar tushuniladi. Shu boisdan, agar ommaviy ishchi kasblari ichida ayrimlari e'tiborsizdek tuyulsa, bu oddiy chalkashish bo'lib, texnologiya fani o'qituvchisi xatolikni bartaraf etishi kerak. Buning uchun esa ommaviy ishchi kasblarida umumiy tomonlar ko'p ekanligini ta'kidlash kerak.

Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o'quvchilarni tanishtirib chiqishning imkoni yo'q, albatta. Lekin ko'pgina kasblar inson oldiga qator umumiy talablarni qo'yadi. O'smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ularning kasblar haqidagi tasavvurini

kengaytirish mumkin. Masalan, keyingi paytda jismoniy mehnatning ma'naviy saviyasi ortayotganligi kuzatilmoqda. Aqliy mehnat faoliyatiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat jamoasida o'zini tutishiga nisbatan ham yuqori talablar qo'yilmoqda.

Shuni hisobga olib, kasb tanlashga yo'llash ishini shunday tashkil qilish mumkinki, o'quvchilar faqat aniq kasblar to'g'risida tasavvur olibgina qolmasdan, mehnat faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan umumiy talab to'g'risida ham tasavvurga ega bo'layotganliklarini anglaydigan bo'lishsin.

Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak. Ko'pincha sinf rahbari har bir o'quvchiga kartochka tutib, o'quvchinint, u yoki bu o'quv predmetiga munosabati, kasbga bo'lgan qiziqishi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy fazilatlari haqida o'qituvchilar aytgan ma'lumotlarni shu kartochkaga yozib boradi. Bu esa o'quvchining nimalarga qiziqishini aniqlashga imkon beradi. Agar o'quvchining qiziqishlari barqaror bo'lsa, sinf rahbari o'quvchida u tanlamoqchi bo'lgan kasb uchun zarur alomatlar bor-yo'qligini aniqlashga kirishadi.

O'quvchining sog'lig'i u tanlagan kasb talablariga to'g'ri kelmaydigan hollar ham uchraydi. Bu masalani shifokor hal qiladi. Shundan so'ng o'qituvchilar o'quvchining ota-onasi bilan suhbatlashib, bolani boshqa kasbga qiziqtirishga harakat qiladilar. Lekin bu ishni xushmuomalalik, ehtiyotlik bilan bajarish lozim, aks holda o'smirning ko'ngli cho'kishi, o'zini to'laqonli odam emasdek his etishi mumkin.

O'quvchilar o'zlariga kasb tanlayotganlarida o'qituvchilar o'z ta'siriii o'tkazishga haddan tashqari intilmasliklari kerak. Bu o'rinda juda ehtiyot bo'lish va o'quvchilar ushbu kasbga chindan ham qiziqadilarmi yoki bu qiziqish tasodifiy qiziqishmi, aniqlab olish lozim.

Kasb tanlashga yo'llash ishini olib borishda maktabning real ish sharoitlarini hisobga olish darkor.

Mamlakatimiz turli tumanlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Tuman iqtisodiyotini mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Biroq insonning individual xususiyatlari ham, odatda, qator kasb talablariga javob beradi, o'quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashga yo'llash ishini davlatning u yoki bu kasbga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda va o'quvchilarning qiziqishlari hamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan holda olib borish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida VIII-IX sinflar alohida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita texnologiya fani darslarida davom etib, o'quvchilar o'zlari tanlagan mehnat tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo «torayib boradi». Boshqa tomondan esa «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash» maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni xalq xo'jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan sistemaga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi. Mazkur texnologiya darslarida, fan asoslari o'rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to'g'risida olgan bilimlar umumlashtiriladi.

Bu ish «O'quvchilarning mehnat tarbiyasini, o'qitishni, kasb tanlashga yo'llashni va ularning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil qilishni yanada yaxshilash» to'g'risidagi qarorida aytilgandek, to'liqsiz o'rta maktabni bitirayotgan o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga hamda o'qishni davom ettirish uchun o'quv yurtlarini tanlashga olib kelish maqsadida qilinadi.

Shunday qilib, III-IV sinflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgan texnologiya ta'limini o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni yuqori sinflarda davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba sistemaga solingan holda

to'liq ochib beriladi, go'yo ulardan xohlaganini tanlab ol deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. X sinfda o'quvchi o'zi avval tanlagan kasbdan aynib, texnologiya ta'limining butunlay boshqa yo'nalishini ixtiyor qilib qolishi mumkin.

Demak, o'quvchi faqat X sinfda biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashiga yo'nalishli tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi tanlagan kasbga muhabbat uyg'otish egallaydi.

Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, formalari va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Yuqorida aytilganlardan, texnologiya ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishi bir necha bosqichdan o'tib, bu bosqichlarning har birida o'z vazifalari hal etiladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bunda kasb tanlashga yo'llash ishi, boshqa har qanday o'quv-tarbiya ishi kabi, ikki yoqlama jarayondan iborat bo'lib, bu jarayonda o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham teng darajada rol ajratiladi. Shuning uchun kasb tanlash ishiga nisbatan qo'yiladigan eng muhim talab - o'quvchilarning yuksak darajada faol bo'lishi lozimligidirki, bu faollik kasbiy tarbiya kasb tanlash negizlarini shakllantirish hisobiga ta'minlanadi.

5.2 Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" ustuvor yo'nalishda ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o'qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta'kidlash lozim.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o'quvchilarni kasbga yo'naltiradi. O'quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo'yadi, uni orzu qiladi, o'sha kasb egasi sifatida o'zini tasavvur qiladi. Mazkur tasavvurning realligini ta'minlashda o'qituvchining katta o'rnini bor. Negaki, o'qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go'yoki bir "sehrGAR", tengsiz murabbiydir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, mustaqil fikrlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular:

- Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o'z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish;
- toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir.

Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim. Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqishi, har xil kasblar bo'yicha bilimli, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo'lishi kerak. Shaxsni kasbga yo'naltirish maxsus ilmiy amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o'quvchilarning inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat ya'ni oila yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi.

- O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar:
- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
 - kasbga qiziqish mezon;
 - amaliy mezon.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning ob'yektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi - o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining asosiy maqsadlaridan biri - o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham texnologiya ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni bartaraf etishi mumkin va h.k.

Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashish muhimdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi - o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir.

Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik - shaxs yetukligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash - moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chogʻida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy eʼtibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli oʻqtirib oʻtiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning oʻquvchilari bilan ishlash - biron ish qilishga undaydigan bosqich. Maʼlumki, taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchilarda bilishga boʻlgan qiziqish, odatda, kasbga boʻlgan qiziqishdan oldin shakllanadi.

Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yoʻnaltirish sohasida olib borilayotgan ishda oʻquvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obʼyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga boʻlgan qiziqishni uygʻotish muhimdir. Kasbga yoʻnaltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xoʻjalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashgʻulotlar, viktorinalar, oʻyinlar katta rol oʻynashi lozim. Bu bosqichda oʻquvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yoʻnaltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning oʻquvchilarini qamrab oladi - bu bosqichida oʻquvchilar oʻz kuchlarini aniq mehnatda tekshirib koʻradilar, oʻquvchilarning kasbga boʻlgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. Oʻquvchilar bu bosqichda oʻz kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar boʻyicha amaliy koʻnikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich aniq kasbni tanlash, uni oʻzlashtirish yoʻllarini belgilash bilan tugaydi. Oʻquvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) boʻyicha toʻgaraklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yoʻnaltirishda yakka tartibda ishlashga eʼtibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;

- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo‘naltirish;
- turli soha mutaxassisleri bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o‘quvchilarni o‘z vaqtida to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko‘zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo‘lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo‘lgan.

Mehnat tarbiyasi g‘oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo‘lib, "texnologiya ta‘limi", "kasbga yo‘naltirish", "politexnik ta‘lim", "kasb ta‘limi" singari tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda, mehnat tarbiyasiga katta e‘tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ko‘zda tutilmagan.

Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o‘zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloqlar go‘daklik bosqichiga o‘tishlari bilanoq, ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlanadi.

Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Bolaning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va intizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir aqliy jismoniy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak

Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lug'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan institut nizomiga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, texnologiya ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar.

Shuning uchun ham texnologiya ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni tayyorlash milliy dasturi (2020-yil 23 sentabr)ga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim bosqichining majburiy bo'lganligi o'zbek o'quvchilariga mehnat tarbiyasi berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu bosqich to'liq kasbga yo'naltirilgan bo'lib, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o'quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariy asoslarini o'zlashtiradilar.

Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

5.3 Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.

O'zbek xalq pedagogikasining boy va bebaho xazinasini xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Xalqimizning asrlar davomida bola tarbiyasi bobida to'plagan tajribalari hamda buyuk mutafakkir allomalarimizning yozib qoldirgan meroslari tashkil etadi. Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasi va uning kamoloti to'g'risida o'z asarlarida to'xtalib, yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi hamda vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelingan.

Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko'nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirish borishning muhim omili ekanligi ta'kidlab kelingan.

Ular mehnatni yuksak baholab, kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muomala va munosabatlari ham mehnat orqali yuzaga keladi deydi. Mehnat qilgan kishi doimo o'zgar mehnatni qadrlay oladi hamda to'g'ri munosabatda bo'ladi deb hisoblashgan. Dangasa, ishyoqmas kishilar esa o'zgar mehnatini qadrlay olmaydi, hatto ularning ustidan kuladilar deb uqtiriladi. Shuning uchun bunday kishilarni tarbiyalash kerakligini aytiladi.

Kaykovus o'zining mashhur asari "Qobusnoma"da odob-axloq to'g'risida juda ko'p ibratli fikrlarni ilgari suradi. Ayniqsa, bolalarni yoshligidan mehnat qilishga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga hamda kasbkorlik tarbiyasiga keng to'xtaladi. Ota-onalarni bolalarga yoshligidan boshlab mehnat qilishni va biror bir kasbni o'rgatib borish kerakligini ta'kidlaydi. "Ey farzand sen bola ko'rsang, unga yaxshi ot qo'ygin. Chunki otadan farzand haqlaridan biri yaxshi ot qo'yishdir. Kattaroq bo'lgandan so'ng, raiyat bo'lsang, hunar va kasb o'rgatasan".

Kitobning 43-bobi asosan dehqonchilik va hunarlarga bag'ishlangan bo'lib, Kaykovus kishilarning dehqonchilik ishlari bilan shug'ullanishlari kerakligini aytadi. U dehqonchilik kasbini ulug'lab: "Ey, farzand agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondan bilimdonroq bo'lgin va har bir ekinni eksang, vaqtdan o'tkazmasdan hamma vaqt yerni tarbiya qilgin va dehqonchilik kasbidan bahramand bo'lgaysan".

Abdurahmon Jomiyning mehnat xususidagi qarashlari diqqatga sazovardir. U mehnatni insonga baxtli turmush baxt etuvchi vosita hisoblaydi. Har bir inson o'z halol mehnati bilan yashamog'i lozim, shundagina u baxtli turmushga erishadi:

O'z mehnatining bo'lsin doim yo'ldoshiung,

O'zga minnatidan og'ritma boshing.

Chin do'st ul-do'stligi oshaversa gar,

Do'stidan yomonlik ko'rganida

Boshiga ming jaf oshi yig'lsa,

Mehr uyi u toshdan bo'lur mustahkam.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunarli va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bo‘lishini orzu qiladi. Shoir ilgari surgan g‘oyalar o‘zlikni anglash, shaxs axloqi va kamolotiga xizmat qilar ekan uning asarlarini o‘qib-o‘rganish, o‘rgatish, targ‘ib-tashviq qilish muhimdir. Uning “Munosib el” deb ataluvchi kishilari xalqqa xizmat qiluvchi xalq manfaatini ko‘zlovchi mehnatsevar, vijdonli, insofli, to‘g‘ri, saxovatli va muruvvatli kishilar ekanligini ko‘ramiz.

Alisher Navoiy jamiyat kishilarini oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishning birinchi omili bu halol mehnat qilishdir, deb uqtiradi. Har bir insonning biror kasbni egallashi va bu yo‘lda tinimsiz mehnat, mashqlar darkorligini ta’kidlaydi.

Hunarsiz kishilarni qiladigan ishlarini tayini bo‘lmasligini eslatib:

Yo‘q hunari yolg‘uz esa bir kishi,

Qayda kishi sonida yolg‘uz kishi.

Alisher Navoiy insonlarni kamolotga etishishini belgilovchi omil deb mehnatni uqtiradi: Mehnat arodir murod topmoq, bilgil Mehnat arodir, qo‘shoq topmoq, bilgil.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida shoir chin sevgi va vafo, do‘stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g‘oyalarini tarannum etadi. Shoir dostonida Farhodning bolalik chog‘laridayoq ilm - hunarga, mehnatga va ilmga havas qo‘yishini, shaxzodaman-ku, deb o‘tirmasdan qasr qurilishida turli ilm va hunarlarni qunt, havas bilan egallab, yuksak kamolot bosqichiga ko‘tarilishini bayon qiladi, uning mehnatga bo‘lgan muhabbatini zo‘r mahorat bilan tasvirlaydi.

Bu Alisher Navoiyning bola tarbiyasida va uning bilim olishiga katta e’tibor bilan qaraganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy Farhod obrazini mehnat va hunarga zo‘r havasli, sangtaroshlik, rassomlik, naqqoshlik hunarlarini mukammal egallab olgan yigit sifatida ijodkorlik va mehnatsevarlik ruhi bilan sug‘ordi.

Farxod boshchiligida va uning bevosita fidokorona mehnati natijasida katta kanal “Hayot daryosi” va hovuz “Najot dengizi” qaziladi.

Navoiy Farxodni suvsiz yerlarga suv chiqargan qahramon mehnat sohasiuda mo‘jizalar ko‘rsatgan bahodir yigit sifatida ta’riflaydi.

U ilm va hunarni omma manfaati uchun xizmat ettirish lozim deb hisoblaydi. Farxod Shirinni qidirib, Armanistonga borganda,

Arman yurtidagi kanal qazish uchun qiynalib kishilarni ko‘radi va:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir?!- deya, o‘z bilimi, hunar va g‘ayratini ishga soladi, kanal qazuvchilar mashaqqatini yengillashtiradi va xalq o‘rtasida katta shuhrat qozonadi. Demak, Farhod kanal qazishda mehnat mo‘jizalarini ko‘rsatadi.

Ulug‘ shoir o‘zi bu dostonni “Mehnatnoma” deb atadi va unda mehnatning zo‘r madhiyasini yaratib qoldirdi. Alisher Navoiy reja bilan, aql bilan halol qilishni maslahat beradi, mehnat bilan oila, yurt obod bo‘lishini aytadi.

Navoiy mehnatsiz rohat bo‘lmasligini shunday ta’riflaydi:

Mehnat aro har kimki, tahammul yo‘q anga,

Tarvijga mutlaqo taxayyul anga.

(Kimki mehnatga chidamsiz bo‘lsa, ishining rivoj topishini hayolga ham keltirib bo‘lmaydi.)

Alisher Navoiy “Hotami Toyi” hikoyasida halol mehnat bilan kun kechirishni birovning minnat bilan bergan har qanday boyligidan afzal ko‘radi. Alisher Navoiy odamlarni, binobarin yoshlarni ham mehnatni puxta qilishga, ishni o‘z vaqtida bajarishga da’vat etadi: Aylar ishingga chu bo‘lur dast ras, Vaqtidan o‘tkarma oni bir nafas.

Buyuk alloma Abulqosim Firdavsiy o‘z asarlarida mehnatkash xalqning ezgulikka, yaxshilikka, dangasa va ishyoqmas kishilarni qoralashga bag‘ishlangan.

Mashhur asari “Shohnoma”da kishi kamolotida, yaxshi turmush kechirishida mehnatning o‘rni haqida shunday deydi:

***Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,
Ganj topmast hech kimsa topmast ersa ranj.
Hunarda tinimsiz, ishchan donishmand,
Toza ruhi doim fikro‘ o‘yiga band.***

Firdaysiy har bir kishini baxtli hayot kechirishida yoshlikdan boshlab hunar o‘rganish va bu yo‘lda dangasalikdan qochish kerakligini hamda mehnat barcha yutuqlarning garovi ekanligini ta’kidlaydi. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida kishilarni halol mehnat qilishga hamda mehnatning hayot uchun eng zarur omil ekanligini ta’kidlaydi.

“Tadbiri manozil” asarida barcha jamiyat a’zolarini dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib xalqqa foyda keltirishlari kerakligini uqtiradi. Ibn Sinoning fikricha, mehnatsiz hayot kechirish kishini jismoniy va ruhiy tomondan ezadi.

Bunday hayot kechirish yomon oqibatlariga olib kelishiuni tushuntirib, ota-onalarning o‘z bolalariga yoshligidan boshlab mehnat tarbiyasini berish zarurligini aytadi. Uning fikricha, bolaga yoshligidan boshlab ma’lum bir kasbga o‘rgatish lozim. Chunki bola kasbhunarni ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng uni o‘sha paytlardan boshlab, o‘z kasb-hunaridan foydalanishg, ya’ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak.

Umar Hayyom ijodiga nazar solar ekanmiz, uning ruboiylarida ham ma’rifiy- ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalarni uchratamiz. Umar Hayyom o‘z asarlarida kishilarni baxt-saodati, turmush tarsi to‘g‘risida to‘xtalib, hayotda halol mehnat qilish va shu mehnat evaziga topilgan nonni totli bo‘lishini ta’kidlagan.

Ayniqsa, mehnat va mehnatsevarlik tarbiyasi xususida bayon etilgan quyidagi ruboiylarda ko‘rishimiz mumkin:

***Bir so‘ngakka sordek qanoat qilg‘on,
Afzaldir nokasga bo‘lgandan mehmon.***

***Nokasning shinnilik nonidan yaxshi,
O‘zing topib yegan burda arpa non.***

Abu Nasr Forobiyning ijodiy faoliyatida bola tarbiyasi chetdan qolgan emas.

Forobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o‘rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltirishi kerak, deb biladi. Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib,

“Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha marta takrorlanishida va uzoq davom etishi jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo‘lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo‘lsa, unda razillik kelib chiqadi”, - deydi.

Farobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o‘ziga yoqqan ish bilan mashg‘ul bo‘lishi, asta-sekin o‘zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to‘la egallab bo‘lmasligini ifodalab, shunday deydi: “Har bir kishiga biriktirilgan ma’lum bir ish bo‘lishi kerak, toki u kishi o‘ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdan o‘z vaqtida bajarsin”.

Fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi Shayx Sa’diy o‘z asarlarida bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor berib, mehnatning kishi kamoloti va hayotida egallagan o‘rni hamda halol mehnat qilish farovonlik keltirishini ta’kidlab, barcha yutuqlar zamirida mehnat turishini va bolalarni yoshligidan boshlab mehnat qilishga o‘rgatish kerakligini hamda halol mehnat bilan topilgan bir burda non ham totli bo‘lishini ifoda etadi:

***Esam arpa nonini mehnat bilan,
Shirindir birovning oq noni bilan.***

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm ahlini hurmat qilib ularning mehnatini doimo qadrlab borgan.

Boburning didaktik asarlarida asosan insonlar va ularning qadrqimmatini ardoqlash masalalari asosiy o‘rinni egallagan.

Mehnatkash xalqning zahmatli mehnatlarini doimo qadrlashga chorlaydi:

***Davlatga yetib mehnat elini unutma,
Bu besh kun uchun o‘zingni asru tutma.
Borg‘onni kel emdi, yod qilmay, ey do‘st,
Borish-kelishingni lutf etib o‘ksitma.***

Ma‘rifatparvar shoira Anbar otin o‘z asarlarida kishilarni har qanday mashaqqatlardan chekinmasdan ilm olishga, hunar o‘rganishga va mehnatsevar bo‘lishga chorlaydi:

***Murodingni hayoting ichra axtar,
Mavhum ilm ichinda bo‘lma axtar.
Mashaqqatsiz hunardin chiqmagay dur,
Hayotsiz ilm durdin ko‘p erur dur.***

Anbar otin dehqonchilik va uning mashaqqatli mehnatini qadrlab, ularning o‘z mehnatlari evaziga baxtli yashashlari kerakligini ko‘rsatib beradi. Jadidchilik oqimining vakili Xolmuhammad o‘g‘li Furqat o‘z asarlarida mehnatkash xalqning hayotini ko‘rsatib bergan.

U o‘z asarlarida kishilarni ilm olish bilan birga hunar o‘rganishiga hamda mehnatsevarlik ruhiyatini takomillashtirib borishga alohida e‘tibor bilan yondoshgan.

Furqat hunar ahllarini mehnatini ulug‘lab shunday yozadi:

***El ichra o‘zlarin ma‘zur qildi,
Bahor holi hunar mashhur qildi.***

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida mehnat insonni bezaydigan muhim sifat ekanligi, yalqovlik va dangasalik esa insonga mos xususiyat emasligini alohida ta’kidlab o‘tadi. U mehnatni yaxshi yoki yomon bo‘lmasligi va bolalarni har bir ishni bajarishga o‘rgatish kerakligi bu esa bolalarni yuksak kamolotga olib chiqishga va saodatga erishishga yaqindan ko‘mak berishini ta’kidlaydi.

Kasb-hunarni yaxshi yoki yomon bo'lmashligi va bolalarni yoshligidan boshlab kasb-hunarga o'rganishga chorlaydi: "...ushbu ko'mirchilik, bu temirchilik manga munosib ish emas. Deb dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdir". Abdulla Avloniy bolalarni mehnatga o'rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy misollar keltirish bilan hayvonlar va hashoratlar misolidagi hikmatlardan foydalangan. Adib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilada, ota-onalar yordamidan so'ng maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirishni ma'qullaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, buyuk mutafakkirlamizning mehnat tarbiyasi xususidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Serqirra olim Abdulla Avloniy ta'kidlaganlaridek, "Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir". Shu sababli texnologiya ta'limi va tarbiyasi yuqori o'ringa qo'yish lozim oqibatda shaxsga qo'lga kiritilgan mehnat muvaffaqiyatidan quvonish, o'z qadr-qimmatini anglash hamda o'z mehnatidan g'ururlanish tuyg'usi qaror topsin.

5.4 Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimidan foydalanish

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim- tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umum bashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida va ayrim umumiy ta'lim maktablarida tashkil etilgan

pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyatini o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

Ta'limda test usuli qo'llanildi, iqtidorli bolalarni aniqlashga, o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, Shvetsiya, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malaziya, Rossiya va Turkiya davlatlarida ta'lim olib, mustaqil respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallamoqdalar.

Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq etishda xorijiy Sharq va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining «Milliy ruh», «Qadriyat» nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi - mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan

yetuk ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengashning tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek tilida, turli millat vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishiga keng imkoniyat yaratildi, mazkur kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda.

Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarning yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy ta'lim maktablarda, o'rta va maxsus oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim barcha fuqarolarni tinimsiz o'qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo'lishini talab etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tatbiq etilishi respublikada xalq ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartiradi hamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik xodimlar tayyorlash pog'onali ravishda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan uzluksiz pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan qoidalar asosida hayotga tatbiq etildi va amaliyotga keng joriy qilindi.

O'tkazilgan islohotlar, samarali tajribalar respublikada ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Chunki ta'lim standartlari shaxs ma'lumotliligining davlat me'yorlarini ta'minlaydi. Ta'lim standartlari vositasida talabdagi ma'lumotlilik darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyoti istiqbolloriga muvofiqligi ta'minlanadi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini qat'iy chegaralangan qolipga solib qo'ymaydi, balki, aksincha pedagogik ijodkorlikka, ta'lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabaqalashtirilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatlariga katta yo'l ochadi.

Respublikamizda lotin yozuvi asosidagi alifboning joriy etilishi ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday mamlakat va xalq taqdiri, uning kelajagi, taraqqiyotining asosi elat va millatlarning tili, yozuvi va ta'lim-tarbiya maskani bo'lgan maktab bilan bog'liqdir. Shu sababli o'zbek milliy maktabini yaratish va uning asosida hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida to'planib qolgan muammolarni ijobiy hal etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy qayta ishlash intellektual salohiyat darajasini saqlab qolishga qilinadigan sarf-harakatlar moddiy-ashyoviy ishlab chiqarish sarf-xarajatlaridan sezilarli darajada ko'p, zero yaqin kelajakda xo'jalik, ijtimoiy, madaniy va boshqa hayotiy muhim sohalarda yetakchilik intellektual salohiyati nisbatan rivojlangan mamlakatlargagina tegishli bo'ladi.

Statistik ma'lumotlariga ko'ra XX asr 90-yillari oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilar miqdori Ispaniyada 15 marta oshdi, Avstraliyada 9,4 marta, Fransiyada 6,7 marta. Bu hol rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos bo'ldi, Masalan, Indoneziyada talabalar soni 36 marta, Venesuelada 63 marta, Nigeriyada esa, hatto 112 marta. Tanlash darajasi qancha yuqori bo'lsa, shaxsning yetuklik darajasi bo'lsa, tarbiyalanganligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Mana shuning uchun ham har bir ta'lim tizimi tarbiyalanganlikning u yoki bu darajasini, shuningdek, uzluksiz ta'limdagi tarbiyaviy va ta'limiy vorislikni ta'minlaydi.

Bu jamiyatni rivojlantirishning aniq ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Umuman olganda, mamlakatimizda mustaqillik tufayli «... biz umumbashariy qadyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadamma-qadam bahramand bo'lmoqdamiz» (I.A. Karimov). Shu bahramandlik tufayli yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, do'stlik, baynalmilallik kabi insoniy fazilatlar shakllanib, rivoj topmoqda, o'z ona tili, milliy urf-odatlari, diyorumizning tabiat boyliklari bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topmoqda.

Germaniya, Fransiya va Yaponiya kasb ta'limining tuzilmasi

Dunyo kasbiy ta'limini o'rganmay turib, bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlarini o'rganish juda zarurdir. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasb ta'limining yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli xil yo'nalishlardagi mutaxassislarni, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning bitiruvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi bosqich oliy maktab bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi.

Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSHda - 20, Buyuk Britaniyada - 15, Avstriyada - 10, Avstraliyada - 7, Yaponiyada - 6 foizni tashkil qiladi.

Bu davrda tanlangan yoʻnalish boʻyicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar oʻqitiladi (Angliya, Ispaniya. AQSH). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy taʼlim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchi sikldagi oʻqishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim.

Germaniyada kasb taʼlimi tizimi

Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega boʻlgan taʼlim tizimi qabul qilingan. Taʼlim oluvchilarni mutaxassislikka yoʻllashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilgan boʻlib, ular oʻz faoliyatini boshlangʻich taʼlimdan keyin davom ettiradi. Oʻquv jarayonining turli jabhalarida oʻziga xos talablar yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ular turli bosqichlarda turlicha amalga oshiriladi.

2. Germaniyada kasbiy taʼlimning tuzilmasi

1-bosqich: Kasbiy taʼlimga tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar berilib, ushbu kasbga yoʻnaltiriladi).

2-bosqich: Oʻquvchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilganidan soʻng, birinchi sinov olinadi).

3-bosqich: Mutaxassislashtirish jarayonidan iborat boʻlib, u imtixon bilan tugallanadi. Bu tizimda taʼlim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega boʻlishlari kerak.



5.5 Germaniya kasb ta'limi tizimida texnologiya fanlarining o'ri

1-2 bosqichda keng ma'noda ishchilar tayyorlanadi. Ular oddiy ish jarayonlarini bajarib, murakkab jarayonlarga 3-bosqichga o'tadilar. Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur.

Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol.

Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, bir so'zlilik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'ining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil.


Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin. Bizdagi kasb-hunar kollejlariga o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi.

Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar o'n birinchi sinfdan tanlagan yo'nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o'rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyani tugatganlik to'g'risidagi imtiyozli shahodatnoma universitetga imtixonsiz kirish huquqini beradi. Ammo imtiyozli shahodatnomani olish oson emas. O'quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o'n uch yil davomidagi natijalari hamda to'rtta fan bo'yicha yakuniy imtixon baholari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o'quv yurtiga kirish uchun o'n uch yil yaxshi natija bilan o'qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo'llari ochiladi.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. “Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!” deydi mashhur faylasuf Rene Dekart.

Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.



Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o‘choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e’tirof etilgan olmon ta’lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e’tibor beriladi.

Ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi-bu o‘qituvchi va o‘quvchi-talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etgani holda, ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar mustaqil fikrga ega bo‘lib, ijodiy faoliyat yurita olsalar, izlansalar, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi tomonidan esa

ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratilsa, bularning barchasi, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyaga ega, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabanning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.¹

Shunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda ko'ndalang qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilish jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar, tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya pedagogik mentalitetlar o'rnatil-moqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda. O'zbekistonda ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish Germaniya va Fransiyada kasb ta'limining tuzilmasi, ilg'or

pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabi mavzularda tadqiqot olib borishga harakat qildik.

Savollar

1. Hunar deganda nimani tushinasiz?
2. Ustoz va shogird haqida?
3. Mutafakkirlar merosi mehnat tarbiyasiga qanday tahsir etadi?
4. Hunar deganda nimani tushinasiz?
5. Ustoz va shogird haqida?
6. Mutafakkirlar merosi mehnat tarbiyasiga qanday ta'sir etadi?

Topshiriqlar

1. Kasb-hunar turlarini ayting.
2. Mutafakkirlar merosidan kasb-hunar tarbisi haqida fikrlar keltiring.

5.6 Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash metodikasi

O'yinchoqlar – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu real predmetning kichraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir. Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o'yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o'ynash ishtiyoqini tug'diradi. O'yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o'yinchoqlar bilan turli yoshdagi bolalar shug'ullanishlari mumkin. Aytishlaricha, yumshoq o'yinchoq yasab o'ynash faqatgina kichik bolalarga xos deb, lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki yumshoq o'yinchoqlar bilan faqat bolar emas, balki katta yoshdagi bolalar ham qiziqadilar.

Kichik o'quvchilar o'yinchoqlarning eng oddiy turlari, kattaroqlari esa qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqlarini turli holatdagi

o'yinchoqlarni tayyorlaydilar. O'quvchilarga o'yinchoqlar yasashni o'rgatish uchun avvalo o'qituvchi o'zi bu san'atni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. O'zi tayyorlagan chiroyli o'yinchoqlarni o'quvchilarga ko'rsatar ekan, ularda ham o'yinchoqlar yasash qiziqishi paydo bo'ladi.

Yumshoq o'yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O'yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o'zlari o'ylab qo'shgan g'oyalari uchun rag'barlantirishlari kerak.

Ishni tashkil qilishdan oldin qo'yidagi ashyolar va asboblarni tayyorlash kerak:

Asboblar:

1. Ignalarning turli katta-kichiklar.
2. G'altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mo'lina iplar.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi.
6. Bigiz.
7. Ombir.
8. Dazmol.
9. Angishvona.
10. Qalam.

Ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar.

Hayvonlarni tayyorlash uchun tukli bumaziy, su'niy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi. Tana yuz ko'rinishini tasvirlovchi o'yinchoqlar uchun shifon, su'niy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun su'niy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur.

O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averla qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashda ishni nimadan boshlash kerak. Dastlab bolalarni ushlashdan, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishdan, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishdan boshlash zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir nechta ish tavsiya etiladi. (Ro'molcha tikish, xaltacha tikish va boshqalar) Bu esa bolalarni chok turlarini tikish malakasini egallashga shiroit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan keyin oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinasidan foydalanish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish izchilligi quyidagicha bosqichlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim matoni dazmollash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi, bichishga mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib, yaxshi ichi ochiladi, qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. Toq mato bo'lsa andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan och rangi mato bo'lsa qaro rangli qalamdan tayyorlanadi.

Chizib olingan mato har tomondan 0,5 sm chok uchun qoldirilib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklar o'ng tomonga chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayyoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi. Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa chok haqqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlari bir-biriga tikiladi. Formani ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Forma o'ngiga ag'darilib qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlari bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi.

O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi.

O'yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1-guruh: Yengil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, marteshka qo'g'irchoq, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa).

2-Guruh: Qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq (cho'chqacha, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk sim six o'rnatilgan o'yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).

O'yinchoqlarni yasash bolalarni fikrlash qobiliyatini riojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishini tarbiyalaydi. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarga o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. Shuning uchun ularning mehnatlarini qadrlab va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

6-Modul: KONSTRUKTORLIK VA MODELLASHTIRISH ISHLARI DARSLARINI TASHKIL ETISH

6.1 Texnik modellash mashg‘ulotlarini tashkil etish, modellash uchun tanlanadigan ob‘yektlar

Texnik modellash mashg‘ulotlarda namuna rasm va chizmalar berilgan o‘lcham konstruktor to‘plamining detallari yoki turli materiallarni qo‘llab og‘zaki tasvirlash bo‘yicha texnik o‘yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar texnik o‘yinchoqlar va modellarni ishlatib namoyish qilishlari, ularni boshqarishlari, shuningdek namoyish jarayonida konstruksiyaning detal va qismlarini aytishlari, ularni nimaga mo‘ljallanganligini bilishlari.

Plastik materiallar bilan ishlash tasviriy san‘atning bir turi hisoblanib, *hajmli* yoki *relefl* obrazlardan butun kompozitsiya yasash tushuniladi. Modellashtirish texnikasi turli va rang-barang bo‘lib, shu bilan birga kichik yoshdagi o‘quvchilar ham bajara olish imkoniyatiga egadirlar. Fazoviy tasvirlarni modellashtirishda plastik materiallardan narsalarni yasash ajoyib imkoniyatlarni beradi.

Modellashtirish- badiiy ijodiyotning eng aniq shaklidir. O‘quvchi yaratgan narsasini nafaqat ko‘radi, qo‘liga oladi, paypaslaydi, kerak bo‘lsa o‘zgartiradi. Modellashtirishning asosiy asbobi qaychi, qalam, mo‘yqalam emas balki qo‘ldir, to‘g‘rirog‘i ikki qo‘limizdir, shu sababli mahorat darajasi o‘z qo‘llarining egalik darajasiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, modellashtirish texnikasi oddiy, sodda va o‘zini rivojlantirish uchun eng qulay vosita deb hisoblash mumkin.

Modellashtirish, ya‘ni loy ishi darslari o‘quvchi rivojlanishida kompleks ta‘sir etadi:

- shakl, hajm, plastik, rangni idrok etish hissiyotini, sensor sezuvchanligini rivojlantiradi;
- mayda qo‘l motorikasini, fazoviy taffakurni va tasavvurni rivojlantiradi;

- ikkala qo‘l ishini sinxronlashtiradi;
- ishni rejalashtirish, amalga oshirish, natijani bashoratlash va unga erishish, kerak bo‘lsa o‘zgartirish kiritish ishlarida ko‘nikma, malakalari shakllanadi;

To‘g‘ri tayyorlangan chinni xamir o‘zining xossasiga ko‘ra yumshoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bu material bilan ishlash uchun chuqurlashtirilagan maxsus bilim va ko‘nikmalar shart emasligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayni muddaodir.

Bunday loyni tayyorlash usullari xilma-xil.

1- usul:

- ✓ 3 osh qoshiq yelim PVA;
- ✓ 2 osh qoshiq pista yog‘i;
- ✓ 1 osh qoshiq glitserin;
- ✓ 4 osh qoshiq jo‘xori kraxmali; 3/1 ch qoshiq limon kislotasi;

Tayyorlanishi:

Barcha ingrediylentlar aralashatiriladi, ishlov beriladi, xamir tayyor bo‘ladi. Xamirni yog‘langan stol ustiga og‘dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo‘lsa, shuncha qismlarga bo‘linib, kerakli rang guash solinadi, (bo‘yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona haroratida 3 soatga yog‘langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo‘lgan xamirdan loy ishi mashg‘ulotlarini yasagan kabi yasaladi.

Xamir 4 haftagacha saqlanadi.

2- usul:

- ✓ 200 gramm jo‘xori kraxmali.
- ✓ 200 gramm yelim PVA.
- ✓ 2 osh qoshiq pista yog‘i.
- ✓ 1 osh qoshiq glitserin.
- ✓ 3/1 ch qoshiq limon kislotasi.

Tayyorlanishi:

Barcha ingrediylar aralastiriladi. Bug'li hammomga qo'yiladi. 7-10 daqiqa ichida aralashma tindiriladi va xamir tayyor bo'ladi. Xamirni yog'langan stol ustiga ag'dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo'lsa, shuncha qismlarga bo'linib, kerakli rangli guash solinadi (bo'yash uchun faqat guash ishlatiladi).

Xamirni xona haroratida 3 soatga yog'langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo'lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi yasaladi. Xamir 2 haftagacha saqlanadi. Plastilin, loy, polimer loy yoki chinni xamir bilan bajariladigan barcha ishlar qo'lda bajariladi.

Modellashtirish texnikasi

Modellashtirish texnikasining usul va metodlarning xilma-xil, rang-barangligiga qaramay o'quvchilar oson egallab olishadi.

Konstruktiv uslub

Modellashtirishning bu uslubi konstruktor qismlari kabi alohida qismlardan yaratiladi (nomi ham shundan kelib chiqqan). O'qituvchi dastavval o'quvchilarning diqqatini o'sha predmetning yirik qismlariga, uning mayda qismlariga, shakliga, rangiga jalb etadi. Dastlabki darslarda o'qituvchi tasvirlashning texnik usullarini ko'rsatib tushuntirib beradi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarni loydan narsalar yasashga o'rgatishda ko'proq ko'rsatmali usullaridan foydalanadi. Bu guruhda loy darslari predmetli xarakterga ega bo'ladi, ya'ni o'quvchilar alohida, yakka predmetlarni yasaydilar, bu guruhda o'quvchilar ishiga yoki faoliyatiga baho berish ham muhim hisoblanadi. O'qituvchi albatta o'quvchilarni, ular qanday ishlaganlarini va ishni qanday bajarganlarini aytib rag'batlantirib borishi lozim.

O'quvchi o'ylab topgan obrazni tasavvur qilib, qanday qismlardan iboratligini aniqlashtirib, yasaydi. Konstruktorlik uslubi bilan bolalar 2-3 yoshdan boshlab yasashni boshlaydilar va ko'pincha o'zlariga bu "yangilikni " mustaqil ochishadi".

Ko'p hollarda kichik yoshdagi o'quvchilarda modellashtirish quyidagi variantlarda namoyon bo'ladi:

- ikkita bir xil shaklni birlashtirish;
- o'xshash, ammo turli hajmdagi shakllarni birlashtirish;
- turli shakllarni birlashtirish.

Haykaltaroshlik uslubi

O'quvchilarni loy bo'lagining mayda qismlarini cho'zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, birlashtirilgan qismini mahkam qilib yopishtirishga o'rganadilar. Chimdib chiqarishga o'quvchilar jo'ja, qushlarni yasashda o'rganadilar. Shu jarayonda o'quvchilar predmetlarni, ularning qismlarini, shakl kattaligi jihatdan taqqoslashga o'rganadilar.

Masalan: baliqni loy yasashdan oldin tanasini oval shaklida yasab oladilar, so'ng baliqning bir tomonini salgina cho'zib va dumaloqlab, baliqning boshini, qarama-qarshi tomonini ko'proq cho'zib chiqarib, yapaloqlab, uning dumini yasaydilar, suzg'ichlarini chimdib chiqaradilar. Shuningdek o'quvchilar loy bo'lagini bir necha bo'lakka bo'lishga o'rganadilar. Ular idishlarni yakka usulda: ya'ni yumaloqsimon va silidrsimon shakllarni barmoq bilan bosib chuqurcha hosil qilish, bandini esa alohida loy bo'lagidan yoki asosiy loy bo'lagidan cho'zib chiqarib yasash mumkin.

O'quvchilar o'qituvchi bilan birga tipratikan, sichqon, meva solingan idishcha, qo'ziqorin solingan savatcha kabilarni ham loydan yasashga o'rgatib boradi. O'quvchilar boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishga mustaqil ishlashga, o'z ishlarini yangi detallar bilan boyitib borishga o'rganadilar.

Kombinatsiyalashgan uslub

Kombinatsiyalashgan uslub ikkita uslubni o'z ichiga oladi: konstruksiyalash va haykaltaroshlik uslublaridir. O'quvchilar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qismlarning shakli, uning xususiyatlarini aniq tasavvur eta olishlari lozim. Shu bilan birgalikda o'quvchilar predmetlarni ko'proq harakatda tasvirlashga harakat qiladilar. O'quvchilarni loy ishlariga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proporsiyasini, uning tuzilishini, karakterli qismlarni va harakatini tasvir etish va boshqalardir.

O'quvchilar idishlar yasab, so'ng uni bo'yaydilar, dekorativ plastinkalar yasab ularni bezaydilar. O'quvchilar syujet mazmun asosida ishlaydilar. Texnik usullar ham murakkablashadi. Shu bilan birga stek bilan ishlashga ham keng imkoniyat yoki o'rin ajratiladi. O'quvchilar dastavval o'zlariga tanish bo'lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. O'quvchilar shu ikki usulda odam shaklini va hayvonlarni yasaydilar.

5.2. Obrazni jihozlash, dekoratsiyalash vosita va usullari

Tez o'zgarib borayotgan zamonaviy dunyoda, o'sib borayotgan axborot oqimida, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va shu bilan birga teksturada yangilarining paydo bo'lishi va materiallar va ularni qayta ishlash qurilmalari xususiyatlari, favqulodda ehtiyoj bor hunarmandchilik ustalari ham tez va samarali foydalanishlari mumkin o'z faoliyatida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot mahsulotlari.

Hozirda talabalarni badiiy hunarmandchilik bilan tanishtirish pedagogik amaliyotda nihoyatda dolzarb bo'lib qoladi. Qo'lda ishlangan badiiy mehnat bolalarni axloqiy va estetik tarbiyalashning zarur elementidir.

O‘tmishdagi eng yaxshi texnologik va badiiy an’analarni uyg‘unlashtirish va zamonaviy, usta an’ana va madaniyatning o‘ziga xosligini saqlaydi va buni o‘quvchilarga yetkazadi.

Bu faqat nostandart, eng samarali foydalanilganda mumkin qisqa muddatda imkon beradigan pedagogik texnologiyalar va usullar ko‘proq ta’lim ma’lumotlarini o‘zlashtirish va eng muhimi, o‘rganish vaqti uning amaliy qo‘llanilishidir.

Master-klass kabi ijobiy tajribaning bunday shakliga alohida o‘rin beriladi.

Master-klass ta’lim munosabatlarini o‘rnatishning o‘ziga xos mantiqi bilan tavsiflanadi, o‘quv jarayonini original tashkil etish, texnologik jihatdan tasdiqlangan modellar o‘quv mashg‘ulotlarini optimal rejalashtirish, sig‘imli, ko‘p o‘lchovli sifatni baholash ta’lim natijalariga erishildi.

Dekorativ-amaliy ijod – san’atning keng bo‘limi bo‘lib, utilitar va badiiy funksiyalarga ega badiiy mahsulotlar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyatning turli sohalarini qamrab oladi. Bu tushuncha shartli tushuchadir.

San’atning ikkita keng turini birlashtiradi: dekorativ va amaliy. Tasviriy san’at asarlaridan farqli o‘laroq, estetik zavq uchun mo‘ljallangan va sof san’at bilan bog‘liq holda, dekorativ va amaliy ijodning ko‘plab ko‘rinishlaridan kundalik hayotda amaliy foydalanish mumkin.

San’at va hunarmandchilik asarlari bir nechta xususiyatlarga javob beradi: ular estetik sifatga ega, badiiy effekt uchun mo‘ljallangan, kundalik hayot va interyerni bezash uchun ishlatiladi.

Bunday san’at asarlari: kiyim-kechak, libos va bezak matolari, gilamlar, mebellar, badiiy oynalar, chinni, sopol idishlar, zargarlik buyumlari, san’at mahsulotlari va boshqalar.

XIX-asr adabiyotida san’at va hunarmandchilik sohalarining moddiy (metall, kulolchilik, to‘qimachilik, yog‘och), texnikasi

bo'yicha (o'ymakorlik, bo'yash, kashtachilik, bosma materiallar, quyma, bo'rttirma, intarsiya va boshqalar) tasnifi o'rnatildi va funksional bo'yicha buyumdan foydalanish belgilari (mebel, o'yinchoqlar). Bu tasnif badiiy hunarmandchilikda konstruktiv va texnologik tamoyilning muhim roli va uning ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqligi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda turli xil ijodkorlik va dekoratsiya modaning eng yuqori cho'qqisida. Inson har doim ijodkorlik va o'zini namoyon qilish uchun nimadir yaratishga muhtoj bo'lgan. Zamonaviy odamlar endi o'z kiyimlarini tikishlari yoki idishlarni tayyorlashlari shart emas va uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishlari mumkin. Ammo, qandaydir tarzda siz ko'pincha oddiy narsalarga o'ziga xoslik berishni xohlaysiz. Bu yerda san'at va hunarmandchilik yordam berishi mumkin.

San'at va hunarmandchilik buyumlari bo'lishi mumkin: interyer buyumlari, mebellar, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, zargarlik buyumlari. Qadim zamonlardan beri bu san'at turi inson hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tinchlik va go'zallik haqidagi g'oyalarini aks ettiradi.

Dekoratsiya nima?

Bu so'z bizga Fransiyadan kirib kelgan. Fransuzlar bu so'zni lotin tilidan olishgan.

Dekoratsiya so'zi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "dekoro" - men bezayapman. Dekor (dekoratsiya) - strukturani, interyerni, ob'yektni, mahsulotni bezash elementi degan ma'noni bildiradi. Bu shuni anglatadiki, bezak - bu strukturani yoki mahsulotni (kiyimni) bezash tizimi.

O'z qo'llaringiz bilan tikuv mahsulotlarini bezash juda qiziqarli faoliyatdir. O'zingizning shaxsiy eksklyuziv buyumingizni yaratish uchun eng oddiy bitta rangli buyumni sotib olish va turli materiallardan (ko'pincha uyda ham mavjud) foydalanish kifoya.

Kiyimlarni bezash esa, birinchi navbatda, kiyimning butun yoki uning alohida elementlariga o'ziga xoslik, nafasat, o'ziga xoslik, individuallik, ayollik va joziba berishga qaratilgan.

Bezashning ko'plab usullari va usullari mavjud va ularning ba'zilari hatto keng ommaga noma'lum, chunki bezak usuli individuallikning namoyon bo'lishidir, ya'ni deyarli bir xil narsalar mavjud emas. Sizning oldingizda stollarda turli xil dekorativ elementlarni o'z ichiga olgan qutilar mavjud.

Plastik materiallar bilan ishlashda turli yordamchi usul va metodlardan foydalaniladi. O'quvchilarni predmetning sifatlarini loydan tasvirlashga o'rgatib boriladi. Masalan: uzun, qisqa, ingichka, kalta, shuningdek, predmetlarni vertikal, tik holatda o'rnatadilar, qismlarni mahkam biriktirishga, birlashtirilgan qismlarni silliqlashga o'rganadilar. O'quvchilar asta-sekin o'z ishlariga mazmun berishni keng tadbiq etadilar, asosan bir butun loy bo'lagidan haykaltaroshlik usulida yasaydilar.

Masalan: mushuk, kuchuk, quyon va boshqalar. Butun bir loy bo'lagidan lentasimon usuli bilan idishlar yasaydilar, so'ng ularni bezaydilar. O'quvchilar o'zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Ko'proq natura asosida, ixtiyoriy loy ishlarini bajaradilar. Dastavval predmetni yoki naturani kuzatib, ko'rib chiqiladi. Predmetning shaklini, qismlarini, proporsiyasini barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlari mumkin.

Agarda o'quvchilar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agarda bilishmasa, unda o'qituvchi qisman ko'rsatib berishi mumkin. Ishlarni bajarishda turli texnik vositalaridan foydalansalar ham bo'ladi.

6.3 Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish

Innovatsion texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, shu materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mahg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emosional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya - borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va tizimlashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlaiishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish baholash darajalarida bo'ladi.

Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham foydalanadi, jumladan;

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharxlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'naviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarni ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi.

Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish. tizimlashtirish, kombinasiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Innovatsion texnologiyalar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq, bo'lib, ular orasida o'qitishning usul na metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni taplashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini o'qtirgan.¹

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqdigi aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayxon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir.

Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqdirlash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlariin tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat e'tibori eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi.

Natijada sinfnining bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning mashg‘ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o‘qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo‘lsada, ularni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta’limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo‘lib, birinchidan, o‘quvchilarni ularning e’tiqodiga, e’tiqodni esa amaliy faoliyatga, hatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o‘qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o‘qish-o‘rganish diqqat-e’tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o‘tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O‘qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o‘quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o‘rgatishdir. Hozirgi o‘qitish jarayonida qo‘yiladigan talablar nima va o‘quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak?

Hozirgi zamon ta’limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o‘zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o‘quvchilar qatnashishi lozim bo‘lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o‘zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, shularni hosildor yerlarga va bog‘roglarga aylantirish, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo‘lishi mumkin.

Xalq xo‘jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro‘y bermoqda va har bir o‘qituvchi o‘zining tarbiyalanuvchilarini o‘zi o‘qitadigan fan sohasi bo‘yicha navbatdagi qayta ko‘rilishlar va erishilgan yutuqdar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o‘quvchilarga mos shaklda va o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishdir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muhabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir.

Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimlilik uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarlilik: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'yekti, o'quvchi esa ob'yekti deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda

o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, o'quvchilar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni o'ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo'llash tizimi mavjud bo'lib, quyida shu mashg'ulotlardan ayrim namunalarni ko'rsatib o'tamiz:

- uch pog'onali intervyu;
- davra suhbat;
- ro'yxat tuzish;

- muammolar yechishni tashkil qilish;
- bir daqiqalik ishlar;
- juftlik izohlari;
- muammoni jo‘natish;
- baholash chizig‘i;
- kam uchraydigan birlik jamoa kutuvi;
- ikki qismli kundalik o‘zaro savol yo‘llash.

Bu mahg‘ulot turlarining ko‘pida o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lish, ularga rollar va vazifalar taqsim qilish ko‘zda tutiladi. Bunda quyidagilarni hisobga olinadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari pedarogik jarayonini takomillashtirish va uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni aqldantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ilm sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko‘rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Hamkorlikda o‘qitish mahg‘ulotlarini tashkil qilishda: o‘qituvchi-sinf, o‘qituvchi kichik guruh, o‘qituvchi-katta guruh, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi.

Hamkorlikda o‘qitish - bu o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka o‘quvchi hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O‘quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o‘zlariga hamda o‘z guruhlaridagi o‘rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

Umuman, hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O‘quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhish ish orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.

2. O‘quvchilar 2-5 a‘zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O‘quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O‘quvchilar ijobiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyati bo‘yicha ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarning bir-birlariga ko‘maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.

5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta‘lim olishga, shaxsan mas‘uliyatli va javobgardirlar.

O‘quvchilar texnologiya ta‘limi faniga oid quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart:

- mehnat jarayoni haqida dunyoqarashga ega bo‘lish;
- umummehnat bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish;
- kasb-hunarlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish;
- xalq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish;

- turli materiallarga boshlang‘ich badiiy ishlov berish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; milliy mehnat an‘analari, urf-odatlarini bilish;

- buyumni texnologik xaritasini tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

Mazkur Davlat ta‘lim standartida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya ta‘limi va kasb tanlashga yo‘naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o‘quvchilarning mehnat va

kasb tanlashga tayyorgarlik darajasining me'yorlari ifodalanadi. Ushbu standart umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun texnologiya ta'limi fanidan o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va boshqa rasmiy me'yoriy materiallarni ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun asos sifatida xizmat qiladigan me'yoriy hujjatdir.

Texnologiya ta'limining maqsadi va vazifalari texnologiya ta'limining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini. Mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya ta'limining vazifalari:

- turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma'lumotlarni o'rgatish, o'lchash - tekshirish asboblaridan, ma'lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarni belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish;

- xalq xo'jaligining turli sohaslarida ishlatiladigan texnika va texnologiyalar to'g'risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish; mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena qoidalari asoslarini;

- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste'mol mollari, mehnat mahsulotlarini yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish

vositalarini o'rgatish, ish boshqaruv (menenjerlik) unsurlari, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirib borish;

- o'quvchilarni bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- xalq hunarmandchiligi kasblarini o'rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rgatish, ulardan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash;

- yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, yangi texnika, jihozlarning qo'llanilishi sohalarini zamonaviy talablar darajasida hamda jahon tajribalariga mos holda o'rganishlarini ta'minlash;

- turli sohalarga oid kasbiy faoliyat turlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o'rgatish;

- o'quvchilarda umummevmat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan sifatlarni, umummevnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat

-

6.4 Texnologiya ta'limi va tarbiyasining uzviyligi.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish belgilangan. Mamlakatimizda ham istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy

bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ammo, bugun shiddat bilan o'zgarayotgan zamon, jahon bozoridagi keskin raqobat va yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani ushbu sohani ham isloh qilib borishni taqozo etmoqda. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatimizda ham o'tgan ikki yilda jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning mazmuniga mos ravishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keng jamoatchilik va ota-onalarning fikr-takliflari asosida yurtimizda 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta joriy etildi, kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ham manzilli va maqsadli ravishda isloh qilinmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari ko'paytirildi, xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiyalash tizimi soddalashtirildi, talab yuqori bo'lgan qator sohalar bo'yicha sirtqi ta'lim yo'lga qo'yildi, davlat test sinovlari tizimi takomillashtirildi. Shu bilan birga, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ham halqaro andozalarga asosan takomillashtirilib, olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy va innovatsion faoliyatiga keng sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, inspeksiya hamda tegishli ta'lim vazirliklariga maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilab berilgan.

Bunda maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim fan dasturlari uzviyligini ta’minlash va ta’lim jarayoniga yangi o‘quv dasturlari va rejalarini joriy etish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan tegishli yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

Uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmagani ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, ta’lim turlari mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma’lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Ta’lim bosqichlari mazmuni tahlilida 10–15 foiz mavzularning takror berilayotganligi, 50–60 foiz mavzularda uzviylik ta’minlanmaganligi tahlillarda ko‘rindi.

Oldimizda ta’lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta’lim tizimining me’yoriy hujjatlari, o‘quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo‘yicha bosqichlar orasida takroriylikning oldini olish bo‘yicha ishlar hamda uzviyligi ta’minlangan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

O‘quvchilarni ma’naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg‘unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o‘stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o‘rgatish amaliy fanlar blok moduli orqali amalga oshiriladi.

Mavjud oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiya fani yo‘nalishida o‘qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi texnologiya fanini o‘qitishni tubdan qayta ko‘rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda.

Shu bilan bir qatorda texnologiya fanini o‘qitishda, ya’ni, amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda ancha yillardn beri yechimini topmayotgan muammolar hali ham mavjud.

Texnologiya o‘quv fani o‘quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishni ko‘zda tutgan. O‘quv predmetini o‘qitish orqali o‘quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Texnologiya fanini rivojlantirish uchun ta’limning barcha bosqichlarida texnologiya fanini o‘qitish tizimini yaratish, texnologiya fanining ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish, texnologiya fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, texnologiya ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, fan doirasida o‘rgatiladigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb tanlangan kasblar hamda mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi, fanning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Texnologiya fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini (laboratoriya) barpo

etish va muqaddam qurilgan o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy ustaxona (laboratoriya) namunasiga moslashtirish, zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, ularni o‘z vaqtida yangilab borish, ustaxonalarda (laboratoriya) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun kerakli xom ashyo materiallarini davlat budjeti, homiy tashkilotlar va ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish kerak.

Texnologiya fani bo‘yicha elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko‘chirib olish maqsadida QR-kod yordamida o‘quv-metodik majmualar (darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Edu Market interfaol-virtual ta’lim dasturi) hamda ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish, masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga texnologiya fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualarni, elektron ta’lim resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablar to‘liq amalga oshirilsa, o‘quvchilar texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda

qo‘llay oladigan, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetensiyalari shakllangan, texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta oladigan va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadilar.

Texnologiya fani ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini harakatlantiruvchi kuch, O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv, ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar, kadrlar tayyorlashda sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, texnologiya fani maqomi va nufuzini oshirish, o‘quvchilar o‘rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish, iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, respublika miqyosida intellektual yetuk o‘quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish orqali amalga oshirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Qurish-yasashning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Qurish-yasashda qaysi material turlaridan foydalaniladi?
3. "Tangram", "Tuxum", "Sehrli aylana" geometrik to‘plamlari o‘quvchilarda qanday qobiliyatlarni shakllantiradi?
4. O‘quvchilarni modellashtirish bo‘yicha yasashda qaysi predmetlardan foydalaniladi.

7-Modul: TURLI VA TABIIY MATERIALLAR BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

7.1 Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

O‘zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog‘ochlar va o‘simliklarga boy o‘lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xom ashyo bo‘lishi bilan bir qatorda texnologiya darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo‘lib ham xizmat qiladi.

O‘quvchilarni ilk yoshligidan boshlab bolalarda ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g‘oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg‘otadi.

Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko‘nikma, malakalarini beradi.

Turli tabiiy materiallarni to‘plash o‘qituvchi qo‘ygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan tasvir uchun material to‘playdilar va aksincha, avval qandaydir materialni to‘plab, keyin qanday ish bajarishni aniqlashlari kerak.

Tabiiy material - bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. O‘quvchilarga o‘yinchoq va buyumlar yasashda ulardan qanday foydalanishni o‘rgatish zarur. Shu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etiladi. Tabiiy materiallar burchagini sinfxonada, uyda tashkil etish mumkin.

Tabiiy materiallardan buyum va o‘yinchoqlarni tayyorlash - qiziqarli, oddiy bo‘lmagan va juda yoqimli mehnatdir.

Tabiiy materiallarni to‘plash, saqlash va ularga ishlov berish tabiatshunoslik darslarida egallangan bilimlarni qo‘llash hamda uini mustahkamlash imkonini beradi.

O‘quvchilar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong‘oqlar, barglar, shoxchalarni, ko‘l, hovuz qirg‘oqlaridan - chiroyli toshchalar, chig‘anoqlarni olib kelishadi. O‘quvchilar tabiiy to‘plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko‘radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o‘rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong‘oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g‘adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho‘chqa yong‘og‘ini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang bo‘lishini bilib oladilar.

Tabiat bilan bo‘lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrok va tasavvurning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda o‘quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz mehnat natijasida bolaning o‘ziga ishonch, aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo‘ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, boshida bolalar namunani ko‘rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o‘zlashtirgandan so‘ng ish murakkablashadi. O‘quvchiga tayyorlanadigan o‘yinchoqning rasmi yoki foto surati ko‘rsatiladi va ular topshiriq yoki o‘zining o‘ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar.

O‘yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustahkamligini oshiradi. Erkin diqqat shakllanadi.

Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko'rib chiqib (ular simmetrik holda turishi, past ham, baland ham bo'lmasligi, haqiqiyga o'xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko'pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlamsh, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O'yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo'naltirish, mehnatda muloqat quvonchi, chiroyli o'yinchoq yasash jarayonida rohatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasash mehnati bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

O'yinchoqni tayyorlash oson ish emas. Uni tayyorlashda noaniqlikka duch kelganda, o'quvchilarga mustaqil ravishda uni bajarish yo'llari o'rgatiladi. Ba'zan biron-bir ishni yasash uchun kerakli o'lchamda eman daraxtining g'uddalarini tanlash, o'yinchoq qismlarini o'lchash yo'llarini amalga oshirish va h.k.

Kattalar yordami bilan bola omadsizlik sababini, ularni yengish yo'llarini o'rganadi. Shu asnodda unda maqsadga intilish, qati'yatlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi.

Ushbu mehnat turida o'z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor.

Tabiiy materialdan o'yinchoqni tayyorlash jarayoni yakka va jamoaviy bo'lishi mumkin. Kattalar kabi bolalarga ham jamoaviy mehnat ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

Urug'lar. O'yinchoq uchun tabiiy materiallarga qimmatli qo'shimcha bo'lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug'lari xizmat qiladi.

Masalan: zarang, shumtol urug'lari. Bolalarga ular qanotchalar sifatida tanishtiriladi.

Ulardan ninachi qanotlarini, quyon quloqlarini, baliq suzgichlari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug‘laridan ko‘zlar yasash mumkin.

Urug‘larni kuzda yig‘ish maqsadga muvofiqdir.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;

- ochiq tondagi qog‘oz va fon tanlanadi;
- applikatsiyaga mo‘ljallangan tasvir uchun urug‘lar tanlanadi;
- tasvir ustida ishlanganda asosiy e‘tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;

- tasvirlash lozim bo‘lgan predmetlarning holati aniqlanadi;

- tasvirlanadigan urug‘ ranglari va hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi;

- tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug‘dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak;

- urug‘lar qog‘oz sathiga joylashtiriladi va o‘ylangan tasvir hosil qilinadi;

- agar bu tasvir ma‘qul bo‘lmasa, urug‘lar boshqacha joylashtiriladi;

- urug‘larni yelimlashda PVA yelimidan foydalaniladi;

- tasvirning kerakli qismi yelimlanadi va urug‘lar yopishtiriladi;

- urug‘larni yelimlashda qisqichlardan foydalaniladi;

- urug‘larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o‘rnini qalam bilan belgilab qo‘yiladi;

- urug‘lar yelimlab bo‘lgandan so‘ng quritish uchun qo‘yiladi. Quritishda yelvizak bo‘lmasligi kerak.

Somon bilan ishlash texnikasi yangi yo‘nalish bo‘lganligi uchun asta-sekin o‘quvchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Ayniqsa bu sohani imkoniyati cheklangan bolalarga o‘rgatish quvonarli hol.

Chunki ular ish jarayonida o‘zlarining nogiron ekanliklarini unutib, yaratayotgan namunalardan zavq olishadi va hunar egasi bo‘lishadi.

1. Avvalo bizga xomashyo sifatida somon kerak bo‘ladi. Aynan bug‘doy yig‘ini boshlangan vaqtda somonning kerakli, ya‘ni tepa va pastki bandlari alohida yumshoq hamda qattiqligiga qarab, qirqib olinadi. Chunki, tepa qismi quyosh nuriga yaqinligi uchun qizarib, to‘qroq, pastkisi esa salqinlikda ochroq rangda bo‘ladi. Ushbu qalamchalarni bunday ajratishning boisi, ular asar tayyorlash jarayonida o‘z o‘rniga moslab qo‘llaniladi.

2. Yig‘ib olingan qalamchalar 1 kun davomida suvga solib qo‘yiladi va ular nam holicha olinib, qattiq bosib, birma-bir dazmol qilinadi. Ushbu sohani tanlagan hunarmand nafaqat o‘z ishini bilishi, balki tasviriy san‘at yo‘nalishini ham puxta egallashi lozim. Asar uchun eskiz tayyorlashda bu juda asqotadi.

3. Endigi navbat chizmaga. Qog‘ozga o‘ylangan kompozitsiya chizib olinadi va ushbu eskiz oddiy qog‘ozga ko‘chiriladi. Eskizning har bir qismi alohida-alohida qirqib olinadi.

4. Dazmollangan somon qalamchalari kompozitsiyaning kerakli, ya‘ni issiq, sovuq, soya, nur kabi joylariga moslab qog‘oz ustidan yelim yordamida yopishtirib chiqiladi.

5. Yaratilgan asar janriga ko‘ra, unga ishlov beriladi. Masalan, bolakay obrazi bo‘lsa, uning yuziga ifoda berish maqsadida maxsus kuydirish uskunasi foydalaniladi. Bu uskuna yordamida asar xuddi rassom chizgandek tasvirlanadi.

Alohida ishlangan kompozitsiya o‘zaro birlashtiriladi va qora mato yoki somon qalamchalaridan tayyorlangan tag qismiga yopishtiriladi. Hajmiga qarab, ramkaga solinadi. Asosiysi, ular hech bir ranglar ustaning mahorati ila asar sifatida yaratiladi.

Rangsiz kompozitsiyalar ranglilaridan farqli ravishda yaratilishi, kuydirilishiga ko‘ra ancha murakkab hisoblanadi.

Rangli qilish mumkin, ya‘ni somon ustidan bo‘yoq beriladi. Latviya, Belorussiya, Litva va Rossiyaning turli shaharlarida somonchilik na‘munalaridan tayyorlangan ishlar aynan rangli ko‘rinishda tayyorlanadi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ona tabiat bilan yaqinlashishga, unga tejamkorlik va mehribonlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi.

Turli materiallar bilan ishlash. Turli materiallar bilan ishlaganda chiqindi materiallari: po'kak, qutichalar, plastmassa idishlar va shu kabilardan foydalaniladi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlar: o'lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilarni e'tiborga olish kerak. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, ular bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirisin, tasavvur qilishga o'rgatsin.

Turli materiallarning texnologik xususiyatlari shunday xilma-xilki, narsalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak beruvchi material sifatida ham foydalanish mumkin. Turli materiallardan o'yinchoqlar, yodgorliklar, ko'rgazmalar, ro'zg'or uchun foydali buyumlar va boshqa buyumlarni yaratish badiiy modellashtirishga yaqinlashib ketadi, o'quvchilarning estetik hissiyotlari va badiiy moyilliklarini o'stirishga yordam beradi.

Bu ishlarni bajarish jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar hamda mustahkamlaydilar:

- Turli tabiiy materiallar hamda ularni to'plash va saqlash qoidalari bilan tanishish.
- Atrof muhitni muhofaza qilish.
- Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalari.
- Buyum uchun atrof muhitdan ob'yekt tanlash.
- Predmetni tahlil qila bilish. Detallar uchun material, shuningdek ularga ishlov berish uchun asboblarni tanlash.
- Mustaqillikni, fantaziyani namoyon qilish. Ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.
- Boshqa materiallar bilan tanishish.
- Obrazlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarni

o‘stirish.

- Metallga ishlov berish asboblari bilan tanishish.

Jarayon bosqichlarini taqsimlay olishni, umumiy maqsadni hisobga olgan holda o‘z faoliyatini rejalay olish qobiliyatini bolalarda shakllantirish uchun jamoaviy ishning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jamoaviy mehnat bolalarda jamoalik, do‘stona munosabat, o‘zaro yordam, birodarlik kurtaklarini shakllantiradi. Jamoaviy mehnatning natijalari, ayniqsa kattalar tomonidan quvvatlanib bolalarga qanot bag‘ishlaydi, ularni yangi buyumlar yasashga undaydi. Har bir ishga ko‘tarinki ruhda kirishadilar. Shunday ekan, tarbiya va ta‘lim jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, turli tabiiy material bilan ishlash bolalarni barkamol o‘stirishda samarali vosita bo‘lib qoladi.

7.2 Texnologiya darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish

Texnologiya darslarida qo‘l mehnatiga o‘rgatishda boshqa fanlarni o‘rgatishda bo‘lganidek, o‘qitishning xilma-xil usullarini qo‘llab, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi. O‘quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o‘z so‘zlari bilan buyumni bajarilishini eshlari talab etiladi. Biroq, asosiy o‘rinni hali ham namuna, tayyor ko‘rgazma bo‘yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirdi va unga sayqal berdi.

O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi. Qo‘l mehnati darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchilar tarqatadi. Stolning ustida diqqatni chalg‘itadigan hech qanday ortiqcha narsa bo‘lmasligi kerak.

Asboblarni, ayniq'sa kesuvchi asboblarni charm g'ilofda saqlagan ma'qul. Har bir g'ilof asbobning ma'lum turiga mo'ljallangan bo'ladi. Navbatchi o'qituvchi asboblarni tarqatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda o'quvchilar tartib va tejamkorlikka o'rganadilar.

Hamma foydalanadigan asboblar sinf shkaflarda saqlanadi, ishdan so'ng asboblarni o'quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o'quvchiga topshiradilar.

Ish xonasida o'quvchilarga asboblarni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi plakat – eslatmalar osig'lik bo'lishi kerak. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'liq rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish qoidalarini o'quvchilar vaqti-vaqti bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu qoidani tushuntirishda o'qituvchi nima uchun aynan shunday qilish kerakligini, bu qoidalarga rioya qilinmasa qanday hodisalar ro'y berishi mumkinligini uqtirishi lozim.

Hafvsizlik texnikasining barcha qoidalari so'zsiz bajarilishi lozim. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo'yicha texnika xavfsizligi qoidalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Ish xonasiga faqat o'qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa ravishda qilinadigan bo'lsa, o'quvchilar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyingni tayyorla, asboblarni to'g'ri va qulay joylashtirish: O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblarni ung tomonga, chap qo'l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo'y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni hech qachon ikkita asbob orasiga qo'y, ularni doimo o'z joyiga, o'tkir tomonini narigi, dastasini o'zing tomonga qilib qo'y. Asboblarni o'ynama, ular o'yinchoq emas.
5. Ish vaqtida ish joyingni tartibli saqla.
6. O'tmas yoki buzuq asbob bilan ishlama.

7. Asbobni ishlatganda, uni o‘qituvchi ko‘rsatganidek ushla.

8. Asboblarni asra, ularni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlat, ishlatgandan so‘ng ularni tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artadiganlarini artib qo‘y.

9. Narsani, har bir detalni oldingi safargidan yaxshiroq, chiroyliroq, tartibliroq tayyorla.

Ko‘rgazmali qurollarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar.

Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish metodi qadim zamonardan beri ishlatilib kelinayotgan eng qulay samarali va tushunarli metod hisoblanadi. Ko‘rgazmalilik metodi o‘ziga xos tamoyillarga asoslanadi.

Savollar

1. Texnologiya ta‘limi darslarida metallning ahamiyati qanday?
2. Neoganik moddalar qayerdan olinadi?
3. Yog‘ochning turlari qanday?

Topshiriqlar.

1. Turli materiallarning mazmunida namunalar keltiring.
2. Dars ishlanmasini keltiring.
3. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish.
4. Texnologiya darslarida ko‘rgazmalilikdan foydalanish.

7.3 Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Tabiiy materiallarni o‘quvchilar dastlab o‘qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to‘playdilar. Tabiiy materiallarni to‘lash jarayonida oq‘tuvchilar atrofdagi o‘simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallni qachon va qanday to‘plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo‘riqlash va unga extiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni asrash masalalariga alohida e‘tibor berish har bir o‘quvchining burchidir.

Texnologiya darslarida tabiiy materiallardan: qo‘ritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari - qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar – olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilari: baliq tangalari va qanotlari, jo‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Tabiiy materillarni to‘playotgan har bir o‘quvchi tabiiy materiallarni tartibli yig‘ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to‘plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo‘ppollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni o‘ylamasdan to‘plash tabiatga nisbatan vaxshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni qo‘l bilan sindirib bo‘lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin.

O‘simliklarni to‘plashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo‘lishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Quritib olishga mo‘ljallangan o‘simliklar har qanday namlikdan holi bo‘lishi kerak, aks holda o‘simlik quritilganda unda dog‘larning izi qoladi. Quritilayotgan o‘simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni shamol o‘tib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak.

Gerbariy ramkalarida quritish.

Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlabq qoladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib quyiladi. Har bir varaq qog‘oz va o‘simlik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simlik o‘zidan namlik chiqaradi. Shundan so‘ng papka ikkita to‘rsimon ramka o‘rtasiga qo‘yilib, ochik havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, quritilayotgan o‘simlik issiq va quruq joyga olib kiriladi.

Pressda quritish.

Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlar o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi.

Og‘irilik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

Issiq dazmol bilan quritish.

Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasiga o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o‘simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazeta yopib yana dazmollandi. O‘imlik 2-3 daqiqada quriydi va u o‘zining tabiiy rangini yuqotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik qutarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

Metall va qotishmalar.

Metall so‘zi grekcha “yerdan qazib olaman” degan mazmunda bo‘lib, u dastlab kon, qazilma, degan ma‘nolarni anglatadi. Qadimgi dunyo xalqlari faqat oltin, kumush, mis, qalay, kurgoshin, temir, simob kabi 7 ta metallni bilishgan.

Texnologiya darslarida metall va qotishmalardan ham foydalanadilar. Metallar o‘zlarining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, egiluvchanligi, issiqlik va elektr o‘tkazishi, suvga bardoshlilik, eruvchanligi va cho‘kuvchanlik xususiyatlariga ega. O‘quvchilar rangli metall va qora metall turlarini bilishlari kerak.

Qora metall – temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo‘ladi. Bularga: Po‘lat, cho‘yan, temir, tunuka va folg‘ga kiradi.

Rangli metallga – mis, alyumin, qo‘rg‘oshin, jez, qalay va boshqa metallar va ularning qotishmalari kiradi.

Metall bilan ishlanadigan asboblari: Taxta qilingan metallni qirqishda maxsus tunuka qaychilari kerak bo'ladi. Simni o'tkir ombir bilan bolg'ani qaychi bilan qirqiladi. Metallarni mustahkamlovchi va boshqa ishlarda bolg'a, egov kabi asboblari qo'llaniladi. Metallga ishlov berishda texnika xavfsizligi texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur

Sim bilan ishlash.

Turli xil narsalarni yasashda xilma-xil simlardan foydalanish mumkin. Sim to'qish va o'rib olish uchun yaroqlidir. Qattiq po'lat yoki alyumin simdan texnik modellashtirishda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobilg' o'qlari, suv parragi, o'yinchoqlar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi. Ishlab chiqarilayotgan simlar diametri 0,005 dan 17 mm gacha bo'ladi.

U asosan dumaloq kesimli bo'ladi, Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shaklidagi simlar ham bo'ladi. Simlar turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, elektrodlar, ingichka parma, musiqa asboblari uchun to'rlar yasash va shu kabilardan foydalaniladi.

Plastmassalar.

Plastmassalar suhniy olinadigan modda bo'lib, sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, 155ass ab oyna, paralon, polietilen 155ass a kabi xilma-xil to'qimalarni ishlab chiqaradi. Plastmassalar juda yengil 155ass a bilan birga bukiluvchan va elastikdir. Ayrim plastmassalar o'ta mustahkam bo'lib issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi, kislotalarga bordoshlidir.

Plastmassaga ishlov berishda deyarli chiqindi bo'lmaydi. Texnologiya ta'limi amaliy mashg'ulotlarida topilishi oson bo'lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindi-laridan foydalaniladi. Bular: 155ass ab shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir

Organik shisha – Organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan su'niy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va yelimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

Paralon – Suhniy yo‘l bilan olinadigan material bo‘lib, g‘ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda yengil, yaxshi bo‘yaladi, suv ta’sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog‘ozga va ko‘pgina materillarga yopishtirish mumkin.

Penoplast – Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

Linoleum – Qurilishda keng qo‘llaniladi. Bu turli smolalar, alifmoy, maydalangan po‘kak, turli bo‘yovchilar va boshqa materiallar aralashmasidan olingan suhniy materialdir. Linoleumning qalinligi 2,5 mmdan 5 mmgacha bo‘ladi.

Teksolit – ko‘p qavatli gazlamadan katta bosimda presslanib tayyorlanadigan su‘niy plastmassa juda pishiq xususiyatga ega. Undan shesteryonka, roliklar, podshipniklar uchun vkladishlar tayyorlanadi.

Ebonit – maxsus usulda ishlov berilgan rezina, ebonitdan har xil turdagi elektr asboblari tayyorlanadi u sinuvchan, shuning uchun ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

Yog‘och – eng ko‘p tarqalgan material bo‘lib, o‘quvchilar mashg‘ulotlarda ko‘p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

Qarag‘ay – ko‘p tarqalgan ishlov berish oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo‘ylab randalanadi.

Qoraqarag‘ay – yaxshi ishlanadi, uning yog‘ochi oq rang ba‘zan sarg‘ish ranglisi bo‘ladi. Qoraqarag‘ay tuzilishiga ko‘ra qarag‘aydan yumshoq va yengil. Biroq qoraqarag‘ayda butoqlar ko‘p quriganda yorilib ketadi.

Qayin – Qarag‘ayga nisbatan pishiqroq va og‘irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg‘ish tovlanuvchan oq-sariq rangda bo‘ladi.

Eman – yog‘ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og‘ir, chiroyli jigar rangga ega.

Tog‘terak – asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Yog‘ochi yumshoq anchagina yengil.

Jo‘ka – yog‘ochi yumshoq, aralash oson, pichoq bilan oson ishlanadi, darz ketmaydi. Jo‘kani yorish qiyin. Qarag‘ay va qoraqarag‘aydan yengil sarg‘ish oq rangda.

Fanera – Yog‘ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar – yog‘ochning payraha qilingan yupqa qatlamlari yelimlab yasaladi.

Mozaika – buning uchun yupqa yog‘och plastinkalardan tasvir yig‘iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

Loy – Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum 157ass a kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko‘rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi. So‘ngra suvi to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyuproq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

Plastilin – narsalar yasashda qo‘llaniladigan materialdir. U sun‘iy 157ass ab 157ass abo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo‘lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Birinchi variant – toza quyuoq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo‘shiladi.

Ikkinchi variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmadigan quyuoq massa hosil bo‘lgan

aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasini qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yash mumkin.

Uchunchi variant – 1 qism to‘prog‘iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi.

Mum – Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan ham foydalaniladi. Mum tabiiy va suhniy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qo‘lay u qo‘rimaydi, suv bilan namlashni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

7.4 Mehnat tarbiyasida xalq og‘zaki ijodining o‘rni

O‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o‘rgatuvchi omillarga tayanib, o‘quvchilarni kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lard. O‘quvchilarni mehnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o‘zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o‘quvchilarga yoshligidan boshlab ta’lim, tarbiya berish bilan birga kasb-hunarga qiziqish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

Boshlang‘ich sinf oq‘uvchilariga kasb-hunar to‘g‘risidagi tushunchalarni singdirish:

- O‘quvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-hunar tanlashga ularga pedagogik-psixologik yondashish:

- Kasb-hunarga qiziqtirishda o‘quvchilarning yoshi va qobiliyatlarini hisobga olish:

- Mahalla oqsoqollari, mehnat faxriylar bilan muntazam aloqalar o‘rnatish:

- Texnologiya ta’limi ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish: Darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib kasb-hunarga oid fikrlari bilan tanishtirish.

O‘zbek xalq tarbiyashunosligining o‘tmishdagi mashhur mutafakkirlar, xalq maorifi arboblari va ma’rifatparvar shoirlarning, mehnat kasb-hunar to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnarsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Bizga mahlumki o‘zbek xalqining qadimiy kasb-kori asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo‘lgan. Ushbu kasb-korlar yuzlab yillar davomida shakllanib har biri o‘z ichida o‘nlab tarmoqlarga ajralgan va gullab yashnagan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari bizga meros bo‘lib qolgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al Xorazmiy (783-850) ning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mutafakkirning fikricha, har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag‘rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim.

X asrdagi sharq ijtimoiy tarbiyashunoslik bo‘yicha fikrlarning eng yirik vakili Abu Nasr Al-Farobiy (870-950)ning o‘z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki u insonlarni ilm-mahrifatli bo‘lishga, mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chiqiradi.

Farobiy kasb-hunar va ahloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan paydo bo‘lishini uqtiradi. Mutafakkir har bir kishi o‘zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so‘ng, o‘ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak ma’suliyatni his etishi va o‘z “kasb-hunarini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq atvor fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak” deb ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy (978-1048) ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o‘rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag‘ishlab 9 ta asar yozgan.

Asarlarida o‘zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Mehnatni va kasb-hunarni sharaflash, mehnat ahlining qadr-qiyamatini uning manfaati uchun astoydil kurashni Beruniyning zamondoshi qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning ilmiy faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Ibn Sino “Odam ijtimoiy jondir” degan fikrni olg‘a surdi. Shuning uchun ham olim odamning yashashi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini ta’kidlaydi.

O‘rta Osiyoda ko‘plab shoirlarning ustози bo‘lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020)ning “Shohnoma”sida mehnat ahliga mehr-muhabbat bilan yog‘dirilgan va kasb-hunarni egallash malakasiga bag‘ishlangan misralarini ko‘plab uchratish mumkin:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,

Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj.

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan yana biri Nosir Xisrav (1004-1088)dir. Uning fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar-jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan jodu hurram yo‘q jahonda,

Hunardin yaxshidur ham yo‘q jahonda.

Butun kun rizqining bog‘boni bo‘lg‘ay,

Kishin o‘z uyining mehmoni bo‘lg‘ay.

Arzir uning bo‘lsa boshi osmonda,

Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

Yuqorida tilga olingan ulug‘ mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson dunyoga kelar ekan o‘z hayoti maboynida insoniy qadr-qiyamatga ega bo‘lishi kerak.

Zero mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo‘lmaydi, ya’ni mehnat qilish orqali inson o‘zining uch ehtiyojini qondiradi.

Moddiy ehtiyojini, ma'naviy ehtiyojini, mehnat ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida ma'naviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat va kasb-hunarni tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning asarlarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko'z qorachig'iday saqlash kerak.

Savollar.

1. Hunar deganda nimani tushinasiz?
2. Ustoz va shogird haqida?
3. Mutafakkirlar merosi mehnat tarbiyasiga qanday ta'sir etadi?
4. Texnologiya darslarida metallning ahamiyati qanday?
5. Neoganik moddalar qayerdan olinadi?
6. Yog'ochning turlari qanday?

Topshiriqlar.

1. Turli materiallarning mazmunida namunalar keltiring.
2. Dars ishlanmasini keltiring.
3. Kasb-hunar turlarini ayting.
4. Mutafakkirlar merosidan kasb-hunar tarbisi haqida fikrlar keltiring.

TEXNOLOGIYA O‘QITISH METODIKASI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAMUNALAR

1- ilova

**Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni mavzusiga
doir loyiha metodi namunasi**

Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt -	Tinglovchilar soni –
Mashg‘ulotning shakli	Amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi	1. Texnologiya fanining mazmuni. 2. Mehnat malaka va ko‘nikmalari. 3. 1-4 sinf texnologiya ta‘limi mazmuni.
Amaliy mashg‘ulotning maqsadi	Tinglovchilarda texnologiya fanining mazmuni va uning tashkil etilishi, mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish haqida tushunchalarini shakllantirish.
O‘qituvchining vazifalar: 1. Texnologiya fanining mazmuni va uning tashkil etilishini o‘rgatish; 2. Mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish; 3. Mashqlar tizimining asosiy talablarini o‘rganish; 4. Texnologiya fani dasturlarining mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish	O‘quv faoliyati natijalari: 1. Texnologiya fanining mazmuni va uning tashkil etilishini o‘rganadilar; 2. Mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallashi; 3. Mashqlar tizimining asosiy talablarini o‘rganadilar; 4. Texnologiya fani dasturlarining mazmuni va mohiyati bilan tanishadilar
Ta‘lim metodi	Savol-javob, BBB metodi, kompyuter texnologiyasidan foydalanish, slaydlar
Ta‘limni tashkil etish shakli	Ommaviy, yakka tartibda savol-javob
Didaktik vositalar	Ma‘ruza matni, tarqatma materiallar, slayd-prezentatsiya
Ta‘limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	O‘z-o‘zini nazorat qilish.

Amaliy mashgʻulotda qoʻllash uchun texnologik xarita namunasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Tinglovchi
1-bosqich. (Daʼvat bosqichi) (15 minut)	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. (1 ilova)	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)	2.1. Testlar orqali avvalgi bilimlar tekshiriladi (2-ilova) 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy maʼlumotlarni bayon etadi. (3 ilova) 2.3. Jalb qiluvchi savollar bilan murojlat etadi. (4-ilova) 2.4. Mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib koʻrsatadi. (5 ilova)	2.1. Berilgan test savollariga javob yozishadi. 2.2. Tinglaydilar, 2.3. Savol-javoblarda ishtirok etishadi. 2.4. Mavzuning asosiy tushunchalarini oʻrganib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (15 minut)	3.1. Tinglovchilarning umumiy tasavvurlarini boyitish maqsadida BBB metodini taqdim etadi. (5-ilova) 3.2. BBB metodi orqali talabalarining umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (6-ilova)	Oʻz tasavvurlarini BBB metodi yordamida boyitadi va daftariga qayd etishadi. Topshiriqlarni yozib olishadi.

O‘quv faoliyati natijalari:**Talabalar bilishlari kerak.**

1. Texnologiya fanining mazmuni va uning tashkil etilishini o‘rganadilar;
2. Mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallashi;
3. Mashqlar tizimining asosiy talablarini o‘rganadilar;
4. Texnologiya fan dasturlarining mazmuni va mohiyati bilan tanishadilar.

Darsda o‘tilganlarni umumlashtirish va yakunlash. Talabalarga darsda egallagan bilimlarini tahlil qilish uchun “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi qo‘llash uchun tavsiya qilinadi.

Bilardim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Poliz urug‘idan yo‘lsimon naqsh yasash

1	Darsning maqsadi	<p>1. Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga meva urug‘lari, applikasiya usuli, naqsh turlari haqidagi bilim va tushunchalar hosil qilish. Meva urug‘laridan applikasiya usulida yo‘lsimon naqsh tuzishga o‘rgatish.</p> <p>2. Tarbiyaviy maqsad: Tabiatga mehr uyg‘otish, keraksiz narsalardan biror narsa yasashga ishtiyoq o‘yg‘otish, o‘z mehnatidan qoniqish va zavqlanishga o‘rgatish.</p> <p>3. Rivojlantiruvchi maqsad. Urug‘lardan foydalanib applikasiya usuli orqali yo‘lsimon naqsh yasay olish malakalarini rivojlantirish.</p>
---	------------------	---

2	Darsning jihozlari	1.Ko'rgazmali vositalar: Turli meva urug'lari namunalari, applikasiya ish turlaridan namunalari, naqsh turlari. 2. Ko'rgazmali jihozlar: Qovun va tarvuz urug'lari, qog'oz, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	1.Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum 2.Shakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob, test 3.Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1.Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa b) Uyga vazifani mustahkamlash 7 daqiqa 2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa 3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

A. Salomlashish

B. Davomatni aniqlash

V. Uy vazifasini tekshirish (sabzavot va meva urug'larini tayyorlab kelish)

D. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)

2.Asosiy qism

Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni meva urug'laridan applikasiya usulida yo'lsimon naqshlar tuzish haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi.

- a) Qanday meva urug'larini bilasiz?
- b) Meva urug'laridan foydalansa bo'ladimi?
- v) Naqshlarning turlarini bilasizmi?
- g) Siz naqshlar yasab ko'rganmisiz?

Yangi mavzu bayoni.

Bolalar o'lkamizga oltin kuz fasli kirib keldi. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar, poliz ekinlari pishadi. (Qovun, tarvuz, qovoq va boshqa mevalarning turlari haqida ma'lumot beriladi)

Qovun urug'i: rangi och sariq, shakli cho'zinchoq, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, elimlanadi, suvni o'ziga sekin shimadi.

Tarvuz urug'i: rangi to'q jigar rang, shakli oval, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, yelimlanadi, suvni o'ziga sekin singdiradi.



O'qituvchi sabzavot va meva urug'lari turli shakllarda va turli ranglarda bo'lishi, ular aslo bir-birini takrorlamasliklarini gapirib beradi.

Amaliy ish

Amaliy ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar ish joyini tekshirib chiqadi. Kamchiliklar bo'lsa to'g'irlashni maslahat beradi. Keyin qovun va tarvuz urug'lardan yo'lsimon naqsh tuzish uchun naqshni qalam yordamida qog'ozga chizib oladi. Buning uchun:

Karton o'rtasiga 2 ta

1.Rangli karton olinadi chiziq chizib olinadi 3.Urug'lar




O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar ishini kuzatib boradi. O'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni ko'rsatib, maslahatlar beradi. Texnika xavfsizligi qoidalariga, sanitariya gigiena talablariga rioya qilishlari kerakligini eslatadi.

4. Qovun va tarvuz urug'idan

5. Qovun urug'idan

Yo'lsimon naqsh

Yo'lsimon naqsh



Ishni to'g'atgandan so'ng o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida ularga test savollarini beradi.

1. Meva nomlari.....

a) olma, nok, qovun, uzum.

b) uzum, olma, nok, banan.

v) nok, olma, banan, piyoz.

2. Naqsh kim chizadi?

a) Rassom.

b) O'qituvchi

v) Naqqosh.

O'qituvchi tez va to'g'ri topgan o'quvchilarni rag'barlantiradi. Ish stolini tozalab, ish quollarini joy-joyiga qo'yish kerakligini aytadi.

3. Yakuniy qism.

1.Dars oxirida tayyor bo'lgan ishlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

2.Har bir o'quvchi qilgan ishlariga qarab izohli baholanadi.

3.Yo'lsimon naqshlarni boshqa urug'lardan yasash uyga vazifa qilib beriladi.

Mavzu. TABIIY MATERIALLARI UCHUN PAKET VA QUTICHA YASASH

1	Darsning maqsadi	<p>1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni qog'ozdan paket haqidagi bilim va tasavvurlari hosil qilish. Paket yasashga o'rgatish.</p> <p>2. Tarbiyaviy maqsad: O'z qo'llari bilan foydali buyumlar yasashga ishtiyoq o'yg'otish, o'z mehnatidan qoniqish va zavqlanishga o'rgatish.</p> <p>3. Rivojlantiruvchi maqsad. Qog'ozni buklash, qirqish, yelimplash orqali paket yasay olish malakalarini hosil qilish.</p>
2	Darsning jihozlari	<p>1.Ko'rgazmali vositalar: Paket turlaridan namunalar, paketni yasash bosqichlari, slaydlar.</p> <p>2. Ko'rgazmali jihozlar: Rangli qog'oz to'plami, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.</p>
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>1.Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum</p> <p>2.Shakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob</p> <p>3.Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash</p>
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	<p>1.Tashkiliy qism: 10 daqiqa A) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa B) Uyga vazifani mustahkamlash 7 daqiqa</p> <p>2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa</p> <p>3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish</p>

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

- A. Salomlashish,
- B. Davomatni aniqlash,
- V. Uy vazifasini tekshirish,
- D. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)

2. Asosiy qism

Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni paketlardan foydalanish haqida tushunchalarini aqliy hujum metodi yordamida aniqlaydi.

- a) Paket turlarini bilasizmi?
- b) Paketda nimada foydalanam?

Yangi mavzu bayoni.


O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni Paket haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi. Qog'ozdan paketni yasash doir kerakli tushunchalarni beradi.

So'ng o'qituvchi foydali buyum tayyorlash orqali oila mablag'iga o'z hissalarini qo'shishlari mumkinligini aytadi va buning uchun qog'ozdan paket yasashni taklif etadi.

- 1. Paket yasash uchun birinchi to'g'ri to'rturchak qog'oz olinadi.
- 2. Qog'ozning ikkiga buklaymiz. Bir cheti 1 sm kamroq buklanadi.
- 3. Ortiqcha qismi ikkinchi qavat ustiga chiqarib buklanadi.





4. Tayyor shaklning pastki uchi uchburchak qilib buklanadi.
5. Uchburchak shaklning uchi qaytarib qog'oz orasiga tiqiladi.
6. Urug' uchun paket hosil bo'ldi.



3. Yakuniy qism.

1. Dars oxirida tayyor bo'lgan ishlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.
2. Har bir o'quvchi qilgan ishlariga qarab izohli baholanadi.
3. Paketni yana boshqa shaklda yasash uyga vazifa qilib beriladi.

Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi





GAZLAMA VA TOLALI MATERIAL BILAN ISHLASH.

Yumshoq o'yinchoqlar tikish.

1	Darsning maqsadi	<p>1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni yumshoq o'yinchoqlar haqidagi bilim va tasavvurlarin boyitish. Yumshoq o'yinchoqlar tikishni o'rgatish.</p> <p>2. Tarbiyaviy maqsad: Tikish jarayonida texnik xavfsizlik qoidalariga amal qilishni o'rgatish.</p> <p>3. Rivojlantiruvchi maqsad. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlay olish malakalarini yanada rivojlantirish.</p>
2	Darsning jihozlari	<p>1. Ko'rgazmali vositalar: Yumshoq o'yinchoqlar, rasmlar, yumshoq o'yinchoqlar yasash namunalari, slaydlar.</p> <p>2. Ko'rgazmali jihozlar: Turli matolar to'plami, qaychi, ip, paxta, tugma, qalam, chizg'ich, elim, latta.</p>
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>1.Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, test, aqliy hujum</p> <p>2.Shakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob</p>

		3.Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1.Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa b) Uyga vazifani mustahkamlash 7 daqiqa 2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa 3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

A. Salomlashish.

B. Davomatni aniqlash.

V. Uy vazifasini tekshirish.

D. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)

2. Asosiy qism

Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni yumshoq o'yinchoqlar haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi

1. O'yinchoq qanday predmet.

2. Qanday gazlamalarni bilasiz.

3. O'yinchoqdan qanday andoza olinadi.

4. O'yinchoqni tayyorlash nech xil guruhga ajratiladi.

5. Yumshoq o'yinchoqlardan namuna keltiring.

6. O'yinchoq yasashdagi bosqichlarni sanab o'ting.

Yangi mavzu bayoni.

O‘yinchoqlar – bolalar o‘yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu aniq predmetning kichiraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o‘ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir.

Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o‘yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o‘ynash ishtiyoqini tug‘diradi. O‘yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o‘yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O‘yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o‘zlari o‘ylab qo‘shgan g‘oyalari uchun rag‘barlantirishlari kerak.

Ishni tashkil qilishdan oldin quyidagi ashyolar va asboblarni tayyorlash kerak:

Asboblar:

1. Ignalarning turli katta-kichiklari.
2. G‘altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mo‘lina iplar.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi.
6. Bigiz.
7. Ombir.
8. Dazmol.
9. Angishvona.
10. Qalam.

Ashyolar:

Yumshoq o‘yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar zarur.

Hayvonlarni tayyorlash uchun tukli bumaziy, su‘niy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi.

Tana yuz ko‘rinishini tasvirlovchi o‘yinchoqlar uchun shifon, suhniy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar

olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun suhniy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur.

O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averlok qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish izchilligi quyidagi bosqichlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim matoni dazmollash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi, bichishga mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib bichiladi, agar bichish ishlari qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. To'q mato bo'lsa andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan och rangi mato bo'lsa qora rangli qalamdan tayyorlanadi.

Chizib olingan mato har tomondan 0,5 sm chok uchun qoldirilib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklar o'ng tomonga chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayyoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

O'yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1- guruh: Yengil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, marteshka qo'g'irchoq, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa).

2- guruh: Qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq (Cho'chqa, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk sim sixga o'rnatilgan o'yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).

1- Amaliy ish

Amaliy ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar ish joyini tekshirib chiqadi. Kamchiliklar bo'lsa to'g'irlashni maslahat beradi. Hozir biz paralondan ayiqcha yasaymiz.

Yasash bosqichlari:

1. O‘rtacha o‘lchamdagi paralonni taxminan o‘rtasidan pastroq qismi ip bilan qattiq bog‘lanadi.
2. Yuqori qismini 2-3 sm cha qaychi yordamida teng ikkiga ajratib qiyamiz.
3. Har ikkala qiyilgan qism ip bilan bog‘lanadi, ayiqchani quloqlari hosil bo‘ladi.
4. Pastki qismini ham ikkiga ajratib bog‘lanadi. Ayiqchani oyoqlari tayyor.
5. Rangli qog‘ozlardan ayiqchani ko‘zi, burni, og‘zi yasab yopishtiriladi.

2- Amaliy ish

O‘quvchilar hozir biz filcha yumshoq o‘yinchog‘ini tayyorlaymiz. Bizga bunung uchun chit mato yoki baxmal, № 40 ip, ichini to‘ldirish uchun sintofon va ko‘zi uchun rangli ip.

Yasash bosqichlari :

1. Ishni filchani rasmini millimetrli qog‘ozga kattroq o‘lchamda chizib andoza olamiz.
2. Andozada filni bel-1, tana qismi-2, oyoqlar-2, quloq-4, tuyoqlari-4, dumi-1 qirqib olinadi.
3. Tayyor andozalar matoga qo‘yilib 3ml chok haqini qoldirib bichiladi.
4. Andozalar o‘z o‘rniga qo‘yilib, qo‘l chokida yoki tikuv mashinasida tikiladi.
5. Qorin qismidan sintofon solish uchun 8 sm joy tikilmaydi.
6. Tikilgan filcha qaycini uchi yordamida o‘ngiga ag‘dariladi.
7. Dum qismi alohida tikiladi.
8. Ichi to‘ldirilgan filchani tuyoqlari aylanma qo‘l choki yordamida tikiladi.
9. Filchani ko‘zi ipdan tikiladi.
10. Sintafon solingan joyi tikiladi.

3. Yakuniy qism.

1. Dars yakunida barcha ishlari namoish etish uchun qo‘yiladi va o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

2. Har bir o‘quvchi qilgan ishlariga qarab izohli baholanadi.

3. Bo‘g‘irsoq yumshoq o‘yinchog‘ini tikib kelish uyga vazifa qilib beriladi.

Gazlamadan applikasiya usulida guldasta tayyorlash

1	Darsning maqsadi	1. Ta’limiy maqsad: Gazlamadan applikasiya usulida guldasta tayyorlashni o‘rgatish. 2. Tarbiyaviy maqsad: Ishni bajarayotganlarida ozodalikka va tejamkorlikka o‘rgatish. 3. Rivojlantiruvchi maqsad. Ishni mustaqil bajarishga yo‘naltirish.
2	Darsning jihozlari	1.Ko‘rgazmali vositalar: Guldasta surati, namunalar, ishni bajarish bosqichlari, tarqatmalar, slaydlar. 2. Ko‘rgazmali jihozlar: Turli rangdagi qog‘ozlar, har xil gazlama parchalari,qalam, chizg‘ich, qaychi, yelim, latta.
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	1.Uslub: Og‘zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, test, aqliy hujum 2.Shakl: Amaliy mashg‘ulot, savol-javob 3.Baholash: Rag‘batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1.Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) Darsga hozirlik ko‘rish. 5 daqiqa b) Uyga vazifani mustahkamlash 5 daqiqa 2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa 3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O‘quvchilar bilimni baholash Uyga vazifa berish

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

- A. Salomlashish.
- B. Davomatni aniqlash.
- V. Uy vazifasini tekshirish.
- D. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)

Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchila gazlamadan applikatsiya haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi

1. Applikatsiya deb nimaga aytiladi ?
2. Gazlamadan applikatsiya deganda nimani tushunasiz?
3. Gazlamadan applikatsiya qanday tayyorlanadi?

2. Asosiy qism

Yangi mavzu bayoni.

Applikatsiya - badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qog'ozlar turli o'yinlar uchun ko'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, suverinlar, devoriy ro'znomalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashdagina emas, balki kartina, pano naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'lakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda samon ko'ritilgan o'simliklar urug'i - danak, barglar shu kabilardan ham foydalanadilar. Eng oddiy applikatsiyalar bu goemetrik shakllardan qilingan applikatsiyalardir.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Amaliy ish







Amaliy ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar ish joyini tekshirib chiqadi. Kamchiliklar bo'lsa to'g'irlashni maslahat beradi. Bugun sizlar bilan gazlamalardan applikatsiya usulida guldasta tayyorlaymiz.

Yasash bosqichlari:


1. Qog'ozga tayyorlanadigan guldastani rasmi tushiriladi.
2. Rasmdan andoza olinadi.
3. Andoza qizil matoga qo'yib guldastani gullari qirqiladi.
4. Guldastani barglari yashil matodan qirqiladi.
5. Bandlari esa och yashil yoki jigarrang matodan tayyorlanadi.
6. Tayyor detallar rangli kartonga yelim bilan yopishtiriladi.
7. Gullarga bezak beriladi.



3. Yakuniy qism.


1. Dars yakunida barcha ishlari namoish etish uchun qo'yiladi va o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.
2. Har bir o'quvchi qilgan ishlariga qarab izohli baholanadi.
3. Gazlamadan meva applikatsiyasini tayyorlab kelish uyga vazifa qilib beriladi.




2 ilova









Bilimlarni tekshirish testlari

1. Mehnat

A.Fizologik nuqtai nazardan qaraganda, mehnat odam uchun kerakli va zarur bo'lgan narsa.

B.Maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, bunda u tabiatga ta'sir qilib, undan o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish*

D.Inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun asosidir.

E.Tana a'zolari orqali tabiatga ta'sir qilib undan o'ziga kerakli maqsadda foydalanish.

2. Jismoniy mehnat

A.Jismoniy harakat

B.Mehnatning hamma turi jismoniy mehnatdir

D.Insonning tana a'zolari orqali ongli ravishda faoliyat ko'rsatish*

E.Inson aqliy foliyati bilan ish bajarishi.

3. Ekskursiya-

A. O'qitish metodi

B. O'qitish vositasi

D. O'qitish shakli

E. O'qitish tamoyili

4. O'qitish tizimi nima?

A.Puxta bilim berish

B.Umumiy tushuncha berish

D.Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish

E.O'quvchilar bilimining puxta bilish va ongiga yetib borishini ta'minlash

5. Integratsiya so'zining ma'nosi nima?

A.Yangi

B.Birlashtirish *

D.Tarbiyalash

E.Bilim berish

6. Ko‘rgazmalilik tamoyilaridan foydalanishning asosiy vazifasi nima?

A. O‘quvchilarda ko‘rish faoliyatini rivojlantirish

B. O‘quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish *

D.Darsni qiziqarli o‘tish

E. O‘quvchilar diqqatini tortish.

7. Texnologiya fani vazifasi

A.Iroda, ahloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, intizomlik, burch hissini, aqliy va jismoniy o‘shishiga yordam beradi*

B.Mehnatga muhabbat ruhida, mehnat madaniyatini, do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

D.Mehnatga axloqiy, ruhiy, amaliy tayyorlash.

E.Hamma javoblar to‘g‘ri.

8. Texnologiya o‘qituvchisining vazifasi.

A.O‘quvchilarda mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb- hunarga qiziqishtirish ishlarini amalga oshirish*

B.O‘quvchilarni jamoada ishlashga o‘rgatish.

D.O‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatish

E.Amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish.

9. Texnologiya ta’limining vazifasi nima

A. O‘quvchilarni mehnatga, mustaqil hayotga tayyorlash

B. O‘quvchilarni kasbga, hunarga o‘rgatish

D. Axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologiya va aqliy bilim va jismoniy mehnatga o‘rgatish

E. O‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatish.

10. Texnologiya darslari necha bosqichda olib boriladi.

A.Kirish, asosiy qism, yakuniy qism

B. Kirish qismi, o‘qituvchining ko‘rsatmasi, topshirig‘ini mustaqil bajarish, tekshirish va baho qo‘yish, uyga vazifani tushuntirish

D.Kirish qismi, ishni mustaqil bajarish, uyga vazifani tushuntirish
E.Tashkiliy qism, asosiy qism, yakuniy qism

Test natijalari:

Savol №	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob №										
Natija										

Savollar.

1. Texnologiya fani dasturi nima asosida ishlab chiqiladi?
2. Dasturga qanday sharoitda o'zgartirish kiritish mumkin?
3. Texnologiya ta'limining mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak?
4. O'quvchilardagi mehnat malakasi qanday shakllanadi?
5. O'quvchilardagi mehnat ko'nikmasi qanday shakllanadi?
6. Amaliy mashqlar tizimidagi asosiy talablar nimalardan iborat?
7. Mehnat malaka va ko'inkmasini shakllantirish bosqichlari?
8. Mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish qachon amalga oshiriladi?
9. Texnologiya dasturlaridagi izchillik nimalarga asoslanadi?
10. Dasturlar qaysi ish turlaridan foydalanib tuziladi?

4 - ilova

Aqliy hujum

Aqliy hujum hayotda, ishlab chiqarishda qo'llanayotgan ish usuli hisoblanadi. Undan ta'lim jarayonida ham keng foydalanish mumkin. Aqliy hujum usulidan da'vat boshqichida ham, anglash va fikrlash boshqichlarida ham foydalaniladi. "Aqliy hujum" metodida muhokama uchun biror muammali vaziyat, yangi tushincha, yangi o'rganilayotgan mavzu olinadi.

Tanlangan sohani oydinlashtirish uchun ishtirokchilarning barchasi o'z fikri mulohazasi, taklifini bayon etadi. Barcha aytilgan fikr-mulohaza qayd etilib, keyin eng maqbuli tanlab olinadi.

Aqliy hujumni o'tkazganda guruxning barcha qatnashchisi faol ishtirok etishi kerak. Hech qanday fikr sheklanmaydi va tanqid etilmaydi. Notug'ri bilririlgan fikr ustidan kulish yoki tanqid etish mumkin emas. Aqliy hujum guruxning barcha a'zolarini ayniqsa, passiv tortinchoq a'zolarini faollashtirishi bilan foydalidir.

Aqliy hujumni tashkil etganda ma'lum me'yorga rioya etish kerak. Mavzuga oid tushunchalarni izohlashda, mavzuni yakunlashda foydalanish mumkin. "Aqliy hujumni" o'tkazishda ma'lum bir muammo yoki tushincha guruxga ma'lum qilinadi va unda doir fikr va mulohazalarni, bilimlarni bayon etish taklif etiladi. Biror kishi fikrlarni qayd etib boradi.

Masalan "Talabaning muvaffaqiyatli o'qishi uchun ta'sir etuvchi omillar" muhokama etilsa: talabaning faolligi, bilim darajasi, qiziqishi, ta'limning uyushtirilishi, texnik vositalarni qo'llashi, kompyuterdan foydalanishi, darslik va qo'llanmalar mavjudligi, ta'lim jarayonini rejalashtirilishi, ta'lim mazmuni aniq bo'lishi, talabaning ixtisodiy ta'minoti, tarbiyaviy ishlarning qo'yilishi va hokazo fikrlar bildirilishi mumkin. Keng va atroflisha fikr bayon eilishiga erishish foydalidir. Barcha fikrlar qayd etiladi. So'ngra ularning ahamiyati muhokama qilinadi. Fikrlarning ahamiyatiga qarab o'rnini belgilash ham mumkin.

Har bir fan o'qituvchisi "Aqliy hujum" metodi uchun tavsiya etiladigan mavzularni aniqlashi kerak. "Aqliy hujum" metodini kichik va katta guruhlarda ham o'tkazilishi mumkin. "Aqliy hujum" metodi guruhni faollashtiradi, darsni jonlantiradi. "Aqliy hujum" metodini o'tkazishda bayon etilgan fikrlar va takliflarni o'rganish va eng maqbulini tanlab olish zarur.

Asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Aytilaotgan barcha g'oyalari bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqidning mavjud emasligi.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni o'tkazish tartibi:

1-metod - guruxning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi. 1.O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni suraydi.

2. Barcha g'oyalarni ayishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Barcha talabalarining ham fikri sharxlanmaydi, taqkid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flipchat-karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalari to'planishi, guruxlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

2-metod - barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta gurux tarkibidagi kichik guruxlarga taqdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta gurux kichik guruxlarga ajratiladi va har bir kichik guruxlarga aqliy hujum metodini o'tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruxcha aqliy hujum metodida bildirilgan mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruxning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir kichik gurux tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shunday sahifa-plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa-plakat jarayonning oxirida har bir xohlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruxga aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytda o'tib turadi.

Klaster metodi.

“Klaster” so‘zining ma’nosi “tarmoqlar” so‘ziga to‘g‘ri keladi, “Klaster” metodidan darsning tushintirish va fikrlash qismlarida foydalanish mumkin.

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi, o‘quvchilarni mavzuga taa’lluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochik ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rganadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz namuna sifatida misol keltirdik.

“Bumerang” texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushinib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolda bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta‘lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe‘llik;
- qoniquvchanlik;
- o‘zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy endashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- o‘zini xolis baholash.

Ochiq savollar - bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Epik savollar - bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq, javoblarni berishni ko‘zda tutadi.

Ko‘ndalang suroq-bir-biriga guruxlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“VEER” texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamshiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “VEER” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab etish;
- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushinchalar quyidagilar: Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushincha tekshiriladi.

Afzallik-biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson- nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa - muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo‘yicha dalildan natijaga kelish.


Blits xarita

№	Talabanning javobi	To'g'ri javob	Noto'g'ri javob	Javoblar
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				

Jami: 10-9 ta – “0,5”, 8-7 ta – “0,4”, 6 ta – “0,3”, 5 ta – “0,25”, 4 ta – “0,2”.

Tinglovchi _____ ball

Klaster metodi.



Asosiy atamalar lug‘at
(Glossary)

Mehnat - biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish.

Jarayon - oqimning borishi, sodir bo‘lishi, ish-harakat, voqea - hodisaning birin-ketin borishi, rivoji.

Kasb - kishining mehnat faoliyati,doimiy mashg‘uloti turlari;muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim,mahorat,tajribani talab etadi

Murakkab - yechilishi tushinilishi, bajarilishi qiyin, og‘ir, mushkul ish. Texnologik jarayon

Ishlab chiqarish mahsuli - holatini o‘zgartirish bilan bevosita bog‘liq ishlab chiqarishjarayonining bir qismi hisoblanadi

Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi.Oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga.

Model - biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko‘plab ishlab chiqarish uchun andoza bo‘ladigan nusxasi.

Iqtisodchi - ejab-tergab sarf etuvchi, sarf- xarajatni tejab-tergab bajaruvchi, tejamkor.

Malaka - bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassam- lashgan tajribadir.

Applikatsiya - tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Jismoniy mehnat -Insonning tana a’zolari orqali aqliy tafakkur bilan bajariladigan jismoniy harakatlar majmui.

Bilim - o'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumotlar.

Boshlang'ich ta'lim - Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlang'ich davri hisoblanadi.

Dars - o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmunidan iborat jarayon.

Darslik - har bir o'quv predmetining mazmunini darslikda ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob yoziladi.

Organik shisha - Organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan su'niy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va yelimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

Paralon – Su'niy yo'l bilan olinadigan material bo'lib, g'ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda yengil, yaxshi bo'yaladi, suv tahsir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina materillarga yopishtirish mumkin.

Penoplast - Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

Linoleum – Qurilishda keng qo'llaniladi. Bu turli smolalar, alifmoy, maydalangan po'kak, turli bo'yovchilar va boshqa materiallar aralashmasidan olingan su'niy materialdir. Linoleumning qalinligi 2,5 mmdan 5 mmgacha bo'ladi.

Teksolit – ko'p qavatli gazlamadan katta bosimda presslanib tayyorlanadigan su'niy plastmassa juda pishiq xususiyatga ega. Undan shesteryonka, roliklar, podshipniklar uchun vkladishlar tayyorlanadi.

Ebonit – maxsus usulda ishlov berilgan rezina, Ebonitdan har xil turdagi elektr asboblari tayyorlanadi, u sinuvchan, shuning uchun ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Yog‘och – eng ko‘p tarqalgan materil bo‘lib, o‘quvchilar mashg‘ulotlarda ko‘p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

Qarag‘ay - ko‘p tarqalgan ishlov berish oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo‘ylab randalanadi.

Qoraqarag‘ay – yaxshi ishlanadi, uning yog‘ochi oq rang ba‘zan sarg‘ish ranglisi bo‘ladi. Qoraqarag‘ay tuzilishiga ko‘ra qarag‘aydan yumshoq va yengil. Biroq qoraqarag‘ayda butoqlar ko‘p quriganda yorilib ketadi.

Qayin – Qarag‘ayga nisbatan pishiqroq va og‘irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg‘ish tovlanuvchan oq-sariq rangda bo‘ladi.

Eman – yog‘ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og‘ir, chiroyli jigar rangga ega.

Tog‘terak – asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Yog‘ochi yumshoq anchagina yengil.

Jo‘ka – yog‘ochi yumshoq, aralash oson, pichoq bilan oson ishlanadi, darz ketmaydi. Jo‘kani yorish qiyin. Qarag‘ay va qoraqarag‘aydan yengil sarg‘ish oq rangda.

Fanera – Yog‘ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar – yog‘ochning payraha qilingan yupqa qatlamlari yelimlab yasaladi.

Mozaika - buning uchun yupqa yog‘och plastinkalardan tasvir yig‘iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

Loy - Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko‘rish kerak.

Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi. So‘ngra suvi to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyugroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

Plastilin – narsalar yasashda qo‘llaniladigan materialdir. U su‘niy plastik massa bo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo‘lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Mum – Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan ham foydalaniladi. Mum tabiiy va su‘niy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qo‘lay, u qo‘rimaydi, suv bilan namlashni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. Sanoqulov X.R, Xodieva D.P.Satbaeva —Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P —Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. 2007yil TDPU.
3. Texnologiya 1-sinf: darslik /D.S. Miraxmedova, Z.S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 72 b.
4. Matlab Tilavova — Texnologiya va uni o‘qitish metodikasil. Toshkent —Muharrir nashriyotil. 2019
5. Texnologiya 2-sinf : darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. –Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – 80 b.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-MODUL: Boshlang'ich sinflarda texnologik ta'limi va tarbiyasining vazifalari.....	5
1.1 Texnologiya darsining maqsad va vazifalari.....	5
1.2 Mehnatga axloqiy tayyorlashda texnologiya fanining ahamiyati.....	14
1.3 Texnologiya ta'limining shakl va metodlari.....	17
2-MODUL. Texnologiya Darslarida Qo'L Mehnatining Usullari.....	25
2.1 Texnologiya darslarida qo'l mehnatiga o'rgatish.....	25
2.2 Qo'l mehnatiga o'rgatishda ish turlari.....	32
3-MODUL. Boshlang'Ich Sinfda Texnologik Ta'limidan Amaliy Ishlar.....	42
3.1 Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish.....	42
3.2 Texnologiya darslarida iqtisodiy tushunchalarning uzviyligi va o'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish.....	45
3.3 Texnologiya darslarining ish unumini oshirish usullari.....	48
3.4. Boshlang'ich sinfda texnologiya fani ta'limida amaliy ishlar.....	55
3.5. Texnologiya darslarining ish unumini oshirish usullari...	58
4-MODUL: Texnologiya darslarining ishlanmasini tuzish	64
4.1 Applikatsiya ishlarining bajarilishi va uning turlari.....	64
4.2 Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	73
4.3 Qog'oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini tashkil etish metodikasi.....	79
4.4 Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi.....	82
5-MODUL: Yumshoq o'yinchoqlar yasash darslarini tashkil etish metodikasi.....	86

5.1 Texnologiya darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyasi.....	86
5.2 Boshlang‘ich ta’limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari.....	91
5.3 Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.....	99
5.4 Texnologiya darslarida xorijiy ta’lim tizimidan foydalanish.....	106
5.5 Germaniya kasb ta’limi tizimida texnologiya fanlarining o‘rni.....	112
5.6 Yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash metodikasi.....	116
6-MODUL: Konstruktorlik va modellashtirish ishlari darslarini tashkil etish.....	120
6.1 Texnik modellashtirish mashg‘ulotlarini tashkil etish, modellashtirish uchun tanlanadigan ob‘yektlar.....	120
6.2 Obrazni jihozlash, dekoratsiyalash vosita va usullari.....	124
6.3 Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.....	128
6.4 Texnologiya ta’limi va tarbiyasining uzviyligi.....	138
7-MODUL: Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	144
7.1 Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	144
7.2 Texnologiya darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish.....	150
7.3 Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	152
7.4 Mehnat tarbiyasida xalq og‘zaki ijodining o‘rni.....	158
Texnologiya o‘qitish metodikasi” fanidan amaliy mashg‘ulot uchun namunalar.....	162
Asosiy atamalar lug‘at.....	192
Foydalanish uchun adabiyotlar:	196

Nurmaxmamatov
Lutfulla Abduhomid o'g'li.

TEXNOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: N. Rustamova
Badiiy muharrir: K. Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi: B. Muxtorov

Nashr. lits. AA № 628159.
Bosishga ruxsat etildi: 15.03.2025 yil.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.
"Georgia" garniturası.
Shartli b/t 12.5 Nashr hisob t 14.1
Adadi 50 dona. 4-buyurtma.

«O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Жангоҳ МФЙ, Жангоҳ мавзеси, 37-уй.

«O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Жангоҳ МФЙ, Жангоҳ мавзеси

ISBN 978-9910-690-37-2



9 789910 690372